Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi. Biologiya (botanika) o'quv fanidan fiziologik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi bilan tanishish;

Mashg'ulot davomida talaba:

1) biologiya (botanika) o'quv fanidan o'tkaziladigan fiziologik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlarini bilishi, boshqa mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlaridan farqlay olishi;

2) biologiya (botanika) o'quv fanidan fiziologik mazmundagi laboratoriya mashg'uloti orqali o'quvchilarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish orqali bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarish ko'nikmalarini egallashi;

3) biologiya (botanika) o'quv fanidan fiziologik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotini tashkil etishda ta'lif mazmuni, o'qitish metodlari va vositalaridan uyg'un ravishda foydalanish ko'nikmalarini egallashi lozim.

Zarur jihozlar va qurollar. Biologiya (botanika) darsligi, dastur, DTS, laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar.

Laboratoriya mashg'ulotida foydalaniladigan texnologiya. Modulli ta'lif texnologiyasining kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash metodi.

Laboratoriya mashg'ulotining borishi. Izoh: talabalar kichik guruhlarga bo'linib, har bir guruh mustaqil ravishda mavzu tanlaydi.

"Biologiya (botanika) o'quv fanidan fiziologik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi" mavzusidagi laboratoriya mashg'ulotining modul dasturi

O'FE	O'quv materialini mustaqil o'zlashtirish uchun o'quv topshiriqlari	Topshiriqlarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar	Izoh
I-O'FE	Maqsad: Biologiya (botanika) dan fiziologik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlari mazmuni bilan tanishish. 1. Biologiya (botanika) darsligida keltirilgan fiziologik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlari mazmuni bilan tanishish. 2. Biologiya (botanika) o'quv fanidan fiziologik tushunchalarini aniqlang. 3. Biologiya (botanika) o'quv fanidan fiziologik tushunchalarning anatomiq va morfologiq, ekologik tushunchalar bilan aloqadorligini tahlil qiling.	Kichik guruh a'zolari bilan hamkorlikda ishlang. Talabalar bilan o'tkaziladigan savol-javobda faol ishtirop eting	

2-O'FE	Maqsad: Biologiya (botanika) o'quv fanidan fiziologik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda foydalaniladigan laboratoriya jihozlarini o'rganish. Darslikda berilgan hamda tarqatma materiallarni o'rganing va quyidagi topshiriqlarni bajaring: 1. Biologiya (botanika) darsligida keltirilgan fiziologik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlarida foydalanish kerak bo'lgan laboratoriya jihozlarini aniqlang va texnik xavfsizlik qoidalarini yozing. 2. 1-ilovadagi "Barglarda organik moddalarning hosil bo'lishini o'rganish" mavzusidagi laboratoriya mashg'uloti ishlanmasini o'rganing. 3. 1-ilovadagi "Barglarda organik moddalarning hosil bo'lishini o'rganish" mavzusidagi laboratoriya mashg'ulotining borishini 3-ilovadagi rasm asosida qayta tuzing. 4. 2-ilovada keltirilgan o'quv topshiriqlarini tahlil qiling.	Kichik guruh a'zolari bilan hamkorlikda ishlang. Talabalar bilan o'tkaziladigan savol-javobda faol ishtirop eting.	
3-O'FE	Maqsad: Biologiya (botanika) o'quv fanidan fiziologik mazmundagi laboratoriya mashg'uloti uchun dars ishlanmasi loyihasini yaratish. Darslikda berilgan hamda tarqatma materiallarni o'rganing va quyidagi topshiriqlarni bajaring: 1. Biologiya (botanika) o'quv fanidan fiziologik mazmundagi mavzuni tanlang. Unda namoyish etiladigan laboratoriya mashg'uloti yoki tajribani aniqlang. 2. Mazkur laboratoriya mashg'uloti yoki tajribanining maqsadlarini yozing. 3. Laboratoriya mashg'uloti uchun zarur laboratoriya jihozlarini aniqlang. 4. Darsda o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va fanga doir xususiy kompetentsiyalarini nazorat qilish va baholash uchun nostonart o'quv topshiriqlar ishlab chiqing. 5. Bajarilgan ish yuzasidan taqdimot yoki hisobot tayyorlang.	Kichik guruh a'zolari bilan hamkorlikda ishlang. Talabalar bilan o'tkaziladigan savol-javobda faol ishtirop eting	
4-O'FE	Maqsad: modul dasturini yakunlash. 1. Modul dasturining didaktik maqsadini o'qib chiqing. Siz unga qay darajada erishdingiz? 2. O'z o'quv faoliyatizingizni tahlil qiling va 5 balli tizimda baholang. 3. Agar o'z o'quv faoliyatizingizdan qoniqish hosil qilmagan bo'lsangiz, modul dasturi yordamida takroran ishlang.	Baho keyingi ustunga qo'yiladi.	

1- ilova.

Laboratoriya mashg'uloti

Mavzu. Barglarda organik moddalarning hosil bo'lishini o'rganish.


Maqsad. Tajriba asosida o'simliklarda quyosh nuri ta'sirida va xlorofill donachalari ishtirokida barg etining hujayralarida anorganik moddalardan organik moddalar hosil bo'lishini aniqlash.

Jihozlar. Tomizgich, Petri kosachasi, reaktivlar to'plami (yod, spirit)


Ishning borishi.

1. Laboratoriya mashg'ulotini o'tkazishda tajriba uchun olingen o'simlikni 2-3 kun davomida qorong'i joyda, masalan shkafda saqlash lozim.
2. Qorong'i joyda ikki-uch kun saqlanayotgan o'simlik va yorug' joyda turgan o'simlikdan bittadan barg oling.
3. Ajratib olingen barglarni 100°C temperaturali suvga soling.
Izoh: barglarning epiderma-po'st qavatini olib tashlash uchun qaynagan suvga solinadi.
4. Barglarni 70°C gacha qizdirilgan spiritga solib, rangsizlantiring.
5. Rangsizlantirilgan barglarni suv bilan yuvib, Petri idishiga qo'ying va ustiga yod eritmasidan tomizing.
6. Yorug' joyda turgan o'simlik bargi va qorong'i joyda saqlangan o'simlik bargi qanday rangga kirishini diqqat bilan kuzating.
7. Kuzatishlaringiz asosida xulosa chiqaring.

"Barglarda organik moddalarning hosil bo'lishini o'rganish" mavzusini mustahkamlash uchun nostandard o'quv topshiriqlari.




1-topshiriq. Bundan uch yuz yil avval Van Gelmont quyidagi tajribani o'tkazdi: u tuvakka 80 kg tuproq solib unga tol novdasini ekdi. Novdani ekishdan avval uning og'irligini o'chadi. Novdaning vazni 1 kg edi. Tol 5 yil davomida o'g'itlarsiz o'sdi, unga faqat yomg'ir suvi quyib turildi. Suv tarkibida hech qanday tuzlar yo'q edi. 5 yildan so'ng tolning vazni o'lchanganda uning og'irligi 65 kg ga ortgani, tuvakdag'i tuproq esa 50 g ga kamaygani ma'lum bo'ldi. Bu hodisani qanday tushuntirish mumkin?



2-topshiriq. Fotosintez va nafas olish jarayonlariga tegishli ravishda «+» ishorasini qo'ying.

Nº	Jarayonlar	fotosintez	nafas olish
1	Kislород ajraladi		
2	Kislород sarflanadi		
3	Karbonat angidrid ajraladi		
4	Karbonat angidrid yutiladi		
5	Organik modda hosil bo'ladi		
6	Organik modda parchalanadi		
7	Yorug'lik ishtirokida sodir bo'ladi		
8	Yorug'lik ishtirokida sodir bo'ladi		



2- ilova.

Quyidagi sxemani izohlang.
Kuzatishlarigiz asosida xulosa yasang.

9-LABORATORIYA MASHG'ULOTI BIOLOGIYA (BOTANIKA) O'QUV FANIDAN SISTEMATIKAGA OID LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI.

Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi. Biologiya (botanika) o'quv fanidan sistematikaga oid laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi bilan tanishish;

Mashg'ulot davomida talaba:

1) biologiya (botanika) o'quv fanidan sistematikaga oid laboratoriya mashg'ulotlarini farqlay olishi;

2) biologiya (botanika) o'quv fanidan sistematikaga oid mustaqil ishlarini samarali tashkil etish orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarish ko'nikmalarini egallashi;

3) biologiya (botanika) o'quv fanidan sistematikaga oid laboratoriya mashg'ulotini tashkil etishda ta'lim mazmuni, metodlari va vositalaridan uyg'un ravishda foydalanish ko'nikmalarini egallashi lozim.

Zarur jihozlar va qurollar. Biologiya darsligi, dastur, DTS, laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar.

Laboratoriya mashg'ulotida foydalaniladigan texnologiya. Modulli ta'lim texnologiyasining kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash metodi.

Laboratoriya mashg'ulotining borishi. Izoh: talabalar kichik guruhlarga bo'linib, har bir guruh mustaqil ravishda mavzu tanlaydi.

"Biologiya o'quv fanidan sistematikaga oid laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi" mavzusidagi laboratoriya mashg'uloti dasturi

1-modul. Biologiya (botanika) dan sistematikaga oid

laboratoriya mashg'ulotlari mazmuni bilan tanishish.

1. Biologiya (botanika) darsligida keltirilgan sistematikaga oid laboratoriya mashg'ulotlari mazmuni bilan tanishish.

2. Biologiya (botanika) o'quv fanidan sistematikaga oid tushunchalarni aniqlang.

3. Biologiya (botanika) o'quv fanidan sistematikaga oid tushunchalarning anatomik va morfologik, ekologik tushunchalar bilan aloqadorligini tahlil qiling.

2-modul. Biologiya (botanika) o'quv fanidan sistematikaga oid laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda foydalaniladigan laboratoriya jihozlarini o'rganish.

1. Biologiya (botanika) darsligida keltirilgan sistematikaga oid laboratoriya mashg'ulotlarida foydalaniladigan laboratoriya jihozlarini aniqlang.

2. Biologiya (botanika) darsligida keltirilgan sistematikaga oid laboratoriya mashg'ulotlarida foydalaniladigan laboratoriya jihozlaridan foydalanishda rivoja qilinadigan texnik xavfsizlik qoidalarini yozing.

3. I-ilovadagi "Gulli o'simliklarda sinf va oilalarning belgilarini aniqlash" mavzusidagi laboratoriya mashg'uloti ishlanmasini o'rganing.

4. I-ilovada keltirilgan o'quv topshiriqlarini tahlil qiling.

3-modul. Biologiya o'quv fanidan sistematikaga oid laboratoriya mashg'uloti uchun dars ishlanmasi loyihasini yaratish.

1. Biologiya o'quv fanidan sistematikaga oid laboratoriya mashg'ulotini mavzusini tanlang.

2. Laboratoriya mashg'ulotining maqsadlarini yozing.

3. Laboratoriya mashg'uloti uchun zarur laboratoriya jihozlarini aniqlang.

4. Laboratoriya mashg'ulotining texnologik xaritasini yarating.

5. Laboratoriya mashg'ulotida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari nazorati uchun o'quvchilar uchun nostandart o'quv topshiriqlar ishlab chiqing.

6. Laboratoriya mashg'ulotini guruhingiz a'zolari bilan

hamkorlikda namoyish qiling.

1-ilova.

Laboratoriya mashg'uloti

Mavzu. Gulli o'simliklarda sinf va oilalarning belgilarini aniqlash

Maqsad. Ikki va bir urug'pallali o'simliklar sinflariga xos belgilari bilan tanishish.

Jihozlar. Ikki va bir urug'pallali sinflariga mansub o'simliklar vakillari, gerbariy.

Ishning borishi.

1. Bir va ikki urug'pallali o'simliklarning gerbariylari hamda tirk o'simliklarning namunalarini kuzating.

2. Aniqlangan belgilari asosida o'simliklarni bir va ikki urug'pallali o'simliklar sinflariga ajrating.

3. Ikki va bir urug'pallali o'simliklarning belgilarini ajrating va izoh yozing.

Belgi	Izoh	Sinf	Belgi	Izoh	Sinf

4. Gulli o'simliklarning qaysi belgi-xususiyatlariga ko'ra sinflarga va oilalarga birlashtiriladi? Tegishli ustunga «+» ishorasini qo'ying.

Belgi-xususiyatlar	Sinfga xos belgilar	Oilaga xos belgilar
Gul formulasi		
To'pguli		
Gulqo'rg'oni		
Bargining tomirlanishi		
Meva turi		
Ildiz tizimi		
Urug'ning tuzilishi		

5. Quyidagi jadvalda berilgan o'simliklarning ular mansub bo'lgan sinflariga xos jihatlarni yozing.

O'simlik nomi	Sinf	Ildiz tizimi	Bargining tomirlanishi	Gulqo'rg'oni
Olma				
Lavlagi				
Kanop				
Pomidor				
Tok				
Bodring				
Qoqio't				
Lola				
Sholi				

6. Gulli o'simliklarning qaysi oilaga mansubligini ko'rsatuvchi belgilari aniqlang.

7. Namunalari keltirilgan o'simliklarning hayotiy shakli, ildiz tizimining turi, novdasi, bargining tomirlanish turi va novdada joylashuvi, guli va to'pguli, meva turini aniqlang, gul formulasini yozing, gul diagrammasini chizing.

8. Quyidagi jadvalda berilgan o'simliklarning ular mansub bo'lgan oilalariga xos jihatlarni yozing.

O'simlik nomi	Oilasi	Gul formulasi	To'pguli	Meva turi
Olcha				
Karam				
Mosh				
Ituzum				
Tok				
Sachratqi				
Osh piyoz				
Bug'doy				

9. Kuzatishlaringiz asosida xulosa chiqaring.

10 - LABORATORIYA MASHG'ULOTI

BIOLOGIYA (ZOOLOGIYA) O'QUV FANIDAN MORFOLOGIK, ANATOMIK, FIZIOLOGIK MAZMUNDAGI LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI.

Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi. Biologiya (zoobiologiya) o'quv fanidan morfologik, anatomik, fiziologik mazmundaygi laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi bilan tanishish;

Mashg'ulot davomida talaba:

1) biologiya (zoobiologiya) o'quv fanidan morfologik, anatomik, fiziologik mazmundaygi laboratoriya mashg'ulotlarini o'ziga xos xususiyatlarini farqlay olishi;

2) biologiya (zoobiologiya) o'quv fanidan morfologik, anatomik, fiziologik mazmundaygi laboratoriya mashg'uloti orqali o'quvchilarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish orqali bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarish ko'nikmalarini egallashi;

3) biologiya (zoobiologiya) o'quv fanidan morfologik, anatomik, fiziologik mazmundaygi laboratoriya mashg'ulotini tashkil etishda ta'lif mazmuni, o'qitish metodlari va vositalaridan uyg'un ravishda foydalanish ko'nikmalarini egallashi lozim.

Zarur jihozlar va qurollar. Biologiya darsliklari, o'quv dastur,

DTS, laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar.

Laboratoriya mashg'ulotida foydalilaniladigan texnologiya. Modulli ta'lif texnologiyasining kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash metodi.

Laboratoriya mashg'ulotining borishi. Izoh: talabalar kichik guruhlarga bo'linib, har bir guruh mustaqil ravishda o'quv topshiriqlarini bajaradi.

"Biologiya (zoobiologiya) o'quv fanidan morfologik, fiziologik mazmundaygi laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi" mavzusidagi laboratoriya mashg'ulotining modul dasturi

1-modul. Didaktik maqsad. Zoobiologiya o'quv dasturida belgilangan laboratoriya mashg'ulotlari mazmuni bilan tanishish.

1. Biologiya (zoobiologiya) o'quv dasturida belgilangan morfologik va fiziologik mazmundaygi laboratoriya mashg'ulotlarini aniqlang. Baliqlar sinfi mavzusi mazmundaygi morfologik, anatomik va fiziologik mazmundaygi tushunchalarni aniqlang va tahlil qiling va 1-jadvalni to'ldiring.

BALIQLAR SINFI MAVZUSI MAZMUNIDAGI MORFOLOGIK, ANATOMIK VA FIZIOLOGIK MAZMUNDAGI TUSHUNCHALAR

1-jadval

Baliqlar sinfi mavzulari	Morfologik tushunchalar	Anatomik mazmundaygi tushunchalar	Fiziologik mazmundaygi tushunchalar

2. 1-ilovadagi "Baliqlarning tashqi tuzilishi va harakatlanishini o'rGANISH" mavzusidagi laboratoriya mashg'uloti ishlanmasini o'rganing.

3. 2-ilovada keltirilgan o'quv topshiriqlarini tahlil qiling.

2-modul. Biologiya (zoobiologiya) o'quv fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda foydalilaniladigan jihozlarni aniqlang va har bir jihozlardan foydalanishda rioxal qilinadigan texnik xavfsizlik

qoidalarini o'rganing va amal qiling.

3-modul. Biologiya (zoologiya) o'quv dasturida belgilangan laboratoriya mashg'ulotlari ishlanmasini loyihalashтирish.

1. Biologiya (zoologiya) o'quv dasturida belgilangan laboratoriya mashg'ulotlari mavzusi, didaktik maqsadlari, zarur laboratoriya jihozlarini aniqlang.

2. 1-ilovada berilgan laboratoriya mashg'ulotini tashkil etish va o'tkazish metodikasi bilan tanishing va bajaring.

3. Laboratoriya mashg'ulotida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari nazorati uchun o'quvchilar uchun nostandard o'quv topshiriqlar ishlab chiqing.

1- ilova.

Laboratoriya mashg'uloti.

Mavzu: Baliqlarning tashqi tuzilishini o'rganish.

Maqsad: Baliq tuzilishini o'rganish orqali umurtqali hayvonlarning o'ziga xos xususiyati, ularning suv muhitida yashashga moslashish belgilarini o'rganish, tirik obyektlarni mustaqil kuzatish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Kerakli jihozlar. Tirik yoki formalin eritmasida qotirilgan zog'ora baliq (formalinli eritmadiagi baliqni o'rganishdan oldin bir necha soat oqib turgan sovuq suvda yuviladi), suvli akvarium yoki kengroq idish, qo'l lupasi, shisha tayoqcha.

Ishni bajarish tartibi.

1. Baliqni suvli, kengroq idishga solib, uning gavdasi shakli, tanasi rangiga e'tibor bering. Baliq tanasi rangining qorin va orqa tomondan bir xilda bo'lmasligi sabablarini tushuntirib bering.

2. Gavdasining bosh, tana va dum bo'limlari qo'shilib ketganligi, tanasining suyri shaklda bo'lishiga e'tibor bering, baliqning suvda yashashi uchun tana shakli qanday ahamiyatga ega ekanligini aniqlang.

3. Tirik yoki yangi tutilgan baliq terisi shilimshiq modda bilan qoplanganligi qanday ahamiyatga ega ekanligini aniqlang. Baliq tanasidagi tangachalarning joylashuvini o'rganing. Tangachalarning

oldingi uchi teriga botib kirganligi, keyingi uchi esa terisining ustida turishiga e'tibor bering. Teri ustidagi tananing ikki yoni bo'ylab o'tgan yon chiziqni toping.

4. Baliqning og'zi va ko'zlarining joylashuviga e'tibor bering. Baliq bosh qismining yon tomonlarida joylashgan ko'zlarining tuzilishini o'rganing. Boshining ustida joylashgan bir juft burun teshigini toping. Tanasining ikki yon tomonida boshidan keyinroqda joylashgan jabra qopqoqlarini o'rganing. Jabra qopqoqlarini ko'tarib, jabra yaproqlarini ko'zdan kechiring.

5. Baliq jabrasida gazlar almashinuvি kimyo va fizikaning qaysi fundamental qonunlari asosida amalga oshishini aniqlang.


6. Baliq tanasida suzgichlarining joylashuvi va tuzilishini o'rganing. Ko'krak va qorin, orqa, dum va anal suzgichlarining tuzilishini o'rganing va ularning vazifasini tushuntirib bering.

7. Suvli idish yoki akvariumdagi tirik baliqning harakatlanishini kuzating. Harakatlanayotgan yoki to'xtab turgan baliqning suzgichlari va gavdasining holatini aniqlag. Baliqning jag'lari va jabra qopqoqlarining ochilib-yopilishiga e'tibor bering. Jag' va jabra qopqoqlarining harakatlari o'rtasida qanday aloqa borligini izohlab bering.

8. Akvarium (yoki shisha idish) devorini qalam bilan ohista taqillating. Baliq bunday tashqi ta'sirga qanday javob berishiga e'tibor bering. Akvariumga ozuqa tashlab baliqning xatti-harakati kuzating.

2- ilova.

1- topshiriq.




Tana qismlari

1
2
3
4
5
6
7

Suzgichlar	Suzgichlarning funksiyalari
8	
9	
10	
11	
12	

2-topshiriq.



3-topshiriq.



Bajarilgan ish yuzasidan xulosa yozing.

11 - LABORATORIYA MASHG'ULOTI BIOLOGIYA (ZOOLOGIYA) O'QUV FANIDAN MIKROSKOPDAN FOYDALANISHGA ASOSLANGAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI.

Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi. Zoologiya o'quv fanidan mikroskopdan foydalishga asoslangan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi bilan tanishish.

Mashg'ulot davomida talaba:

1) biologiya (zoobiologiya) o'quv fanidan mikroskopdan

foydalanishga asoslangan laboratoriya mashg'ulotlarini o'ziga xos xususiyatlarini farqlay olishi;

2) biologiya (zoobiologiya) o'quv fanidan mikroskopdan foydalishga asoslangan laboratoriya mashg'uloti orqali o'quvchilarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish orqali bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarish ko'nikmalarini egallashi;

3) biologiya (zoobiologiya) o'quv fanidan mikroskopdan foydalishga asoslangan laboratoriya mashg'ulotini tashkil etishda ta'lif mazmuni, o'qitish metodlari va vositalardan uyg'un ravishda foydalish ko'nikmalarini egallashi lozim.

Zarur jihozlar va qurollar. Biologiya darsligi, o'quv dastur, DTS, laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar.

Laboratoriya mashg'ulotida foydalilanadigan texnologiya. Kichik guruhlarda hamkorlikda ishslash metodi.

Laboratoriya mashg'ulotining borishi.

1. Biologiya (zoobiologiya) o'quv dasturida belgilangan mikroskopdan foydalishga asoslangan laboratoriya mashg'ulotlari mavzularini aniqlang, ularning didaktik maqsadlari, mazmuni bilan tanishing, laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda foydalilanadigan jihozlarni aniqlang, jihozlardan foydalishda riosa qilinadigan texnik xavfsizlik qoidalarini tahlil qiling.

2. 1-ilovadagi "Oddiy amyobaning tuzilishi va harakatlanishi mikroskop yordamida o'rganish" mavzusidagi laboratoriya mashg'uloti ishlanmasini o'rganing.

3. 2-ilovada keltirilgan o'quv topshiriqlarini tahlil qiling.

4. Mavzu bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalari va fanga doir xususiy kompetentsiyalarni nazorat qilish va baholash maqsadida murakkablik darajasi turlicha bo'lgan nostandart o'quv topshiriqlarini ishlab chiqing.

1- ilova.

Laboratoriya mashg'uloti.

Mavzu: Infuzoriya-tufelkaning tuzilishi va harakatlanishi mikroskop yordamida o'rganish.

Maqsad. Tufelka infuzoriyasini mikroskop orqali o'rganish, bir hujayrali hayvonlarning tuzilishi va hayot tarzini, harakatlanishini kuzatish, mustaqil mikropreparat tayyorlash va mikroskop bilan ishslash ko'nikmalarini rivojlantirish, oddiy amyoba, yashil evglena va volvoksning hujayraviy tuzilishini o'zaro taqqoslash.

Kerakli jihozlar. Mikroskop, 2–3 hafta oldindan tayyorlab qo'yilgan pichan ivitmasi, qizil kongo bo'yog'i eritmasi, buyum va qoplog'ich oynalar, paxta tolasi, ensiz kesilgan filtr qog'ozi, yashil metil va sirka kislotaning 1:1 nisbatda tayyorlab olingan suvdagi eritmasi, preparoval to'plam (pintset, tomizg'ich, skalpel, preparoval nina), biologiya xonasi uchun polipropilen o'lchov idishlar to'plami, ko'rgazmali tajriba uchun biologiya o'qituvchisi laboratoriya asbob-anjomlari to'plami (buyum oynasi, qoplagich oyna, filtr qog'ozi tomizgich, Petri kosachasi),

Ishni bajarish tartibi.

1-ish. Tufelkaning tuzilishi, harakatlanishi va ta'sirlanishini kuzatish.

1. Mikroskop ish holatiga keltiriladi. Buning uchun mikroskopni stol chetidan 5–8 sm. uzoqlikda, shtativini o'ziga qaratib joylashtiriladi.

2. Tomizg'ich yordamida tufelka ko'paytirilayotgan pichan ivitmasidan 15–20 tomchi olib, soat oynasiga tomizing va unga biroz qizil kongo bo'yog'i qo'shib, shisha tayoqcha bilan aralashtiring (kongo bo'yog'i qo'shilgan ivitma och qizg'ish rangli bo'lishi lozim).

3. Tomizg'ich yordamida bo'yoqli ivitmadan bir tomchi olib, buyum oynasiga tomizing (bu ishni kongo bo'yog'i bo'Imagan hollarda ham ko'rsatilgan tartibda bajarish mumkin). Tomizilgan suv tomchisini ustidan qoplagich oyna bilan yopiladi. Chetidagi ortiqcha suv filtr qog'ozi yordamida shimdirib olinadi.

4. Tufelkaning harakatini sekinlashtirish uchun tomchiga bir necha dona paxta tolasi tashlang. Tomchining ustini qoplag'ich oyna bilan yoping va uning chetlaridagi suvni filtr qog'oziga ehtiyyotlik bilan shimdirib oling. Ana shu usulda tayyorlangan preparatni dastlab mikroskopning kichik obyektivida, so'ngra katta obyektivida kuzating.

5. Organik zarrachalar yoki paxta tolalari atrofida g'uj bo'lib to'plangan tufelkalardan birini mikroskopning katta obyektivida kuzating. Tufelka tanasining oldingi va keyingi tomonini aniqlang. Tanasining yon tomonida joylashgan og'izoldi chuchurchasini, oldingi va keyingi tomonidagi ikkita qisqaruvchi vakuollarni toping va ularni kuzating. Kiprikchalar bir me'yorda harakatlanib, tufelka tanasi yaqinida va ayniqsa, uning og'iz teshigi atrofida suv oqimini hosil qiladi. Qizil kongo bo'yog'i oziq bilan birga hazm qilish vakuollari ichiga o'tib, ularni qizil rangga bo'yaydi. Mikroskopda tufelka kipriklari harakatini, oziq hazm qilish vakuollarining sitoplazma oqimi bilan harakatlanishini kuzating.

6. Tufelkaning oldingi va keyingi tomonida bittadan qisqaruvchi vakuola joylashgan. Har qaysi vakuola suyuqlikni sitoplazmadan yig'ib oluvchi bir necha uzun va ingichka naychalar, suyuqlik to'plovchi pufakcha va uning ichida to'plangan suyuqlikni tashqariga ajratib chiqaradigan naychasidan iborat. Pufakchalar navbat bilan qisqarib, suyuqlikni tashqariga chiqarib turadi. Bir necha daqiqa davomida vakuol pufagining suv bilan to'lishi va bo'shashini kuzating.

2-ish. Tufelkaning ta'sirlanishini kuzatish.

1. Buyum oynasiga toza suv va infuzoriyalı pichan ivitmasidan bir tomchidan tomizing. Bu ikkala tomchini ingichka kanalcha orqali tutashtiring.

2. Tufelkali pichan ivitmasi tomchisiga bir nechta mayda osh tuzi zarrachalarini tashlang. Mikroskopning kichik obyektivida tufelkalarni osh tuzi tashlangan suvdan toza suv tomchisiga o'tishini kuzating.

3-ish. Tufelkaning kuydiruvchi tanachalarini otib chiqarishini va yadrolarini kuzatish.

1. Buyum oynasiga tufelkali pichan ivitmasidan tomizing. Tomchiga sirka kislota va yashil metil bo'yog'i aralashmasining suvdagi eritmasidan bir tomchi tomizing.

2. Tomchini qoplag'ich oyna bilan yopib, mikroskopning katta obyektivida kuzating. Sirka kislota ta'sir etganda tufelka kuydiruvchi tanachalarini otib chiqarib, halok bo'ladi. Yashil metil bo'yog'i sa

tufelkaning yadrolarini yashil rangga bo'yaydi. Mikroskopning katta obyektivida tufelka tanasi sirtiga otilib chiqqan tanachalarini toping. Bu tanachalar tufelka ustida tartibsiz joylashgan ingichka iplar shaklida ko'rindi.


3. Preparatda loviyasimon katta yadro va uning botiq tomonida joylashgan kichik yadroni toping.

2-ilova


1-topshiriq. Sodda hayvonlarning tuzilishi va hayot kechirish xususiyatlari

Belgi va xossalari	Oddiy amyobada	Yashil evglenada	Volvoks
Yashash tarzi			
Tana o'chami			
Tana shakli			
Xarakat organoidi			
Oziqlanish usuli			
Ko'payish usuli			

2-topshiriq.



Organik zarrachalar atrofida to'plangan infuzoriyalar harakatini izohlang.



Rasmga izoh yozing. Umumiy va xususiy organoidlarni aniqlang.

Bajarilgan ish yuzasidan xulosa yozing.

12 - LABORATORIYA MASHG'ULOTI TIRIK OBYEKTLARDAN FOYDALANISHGA ASOSLANGAN LABORATORIYA MASHG'ULOT-LARINI TASHKIL ETISH METODIKASI.

Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi. Zoologiya o'quv fanidan tirik obyektlardan foydalanishga asoslangan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi bilan tanishish;

Mashg'ulot davomida talaba:

- 1) tirik obyektlardan foydalanishga asoslangan laboratoriya mashg'ulotlarini o'ziga xos xususiyatlarini farqlay olishi;
- 2) tirik obyektlardan foydalanishga asoslangan laboratoriya mashg'uloti orqali o'quvchilarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish orqali bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarish ko'nikmalarini egallashi;
- 3) laboratoriya mashg'ulotini tashkil etishda ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari va vositalardan uyg'un ravishda foydalanish ko'nikmalarini egallashi lozim.

Zarur jihozlar va qurollar. Biologiya darsligi, o'quv dastur, DTS, laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar.

Laboratoriya mashg'ulotida foydalaniladigan texnologiya. Kichik guruhlarda hamkorlikda ishslash metodi.

Laboratoriya mashg'ulotining borishi.

- I. Biologiya (zoobiologiya) o'quv dasturida belgilangan tirik ob'ektlardan foydalanishga asoslangan laboratoriya mashg'ulotlari mavzularini aniqlang, ularning didaktik maqsadlari, mazmuni bilan tanishing, laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda foydalaniladigan jihozlarni aniqlang, jihozlardan foydalanishda rivoja qilinadigan texnik xavfsizlik qoidalarini tahlil qiling.

- II. 1-ilovadagi "Yomg'ir chuvalchangining tashqi tuzilishi, harakatlanishi va refleks hosil qilishi" mavzusidagi laboratoriya

mashg'uloti ishlanmasini o'rganing va «Halqali chuvalchanglar» mavzusi yuzasidan quyidagi savollarga javob bering.

1. Yomg'ir chuvalchangning tana tuzilishi va harakatlanishida yashash muhitiga moslashganlik belgilarini aniqlang.

2. Halqali chuvalchanglarda moddalar almashinuvi yassi chuvalchanglarga nisbatan jadal borishi ularning tuzilishi bilan bog'liqligini tushuntiring.

3. Halqali chuvalchanglarda qon aylanish sistemasining paydo bo'lishi ularning hayotiy jarayonlarida qanday aks etadi?

III. 2-ilovada keltirilgan o'quv topshiriqlarini tahlil qiling.

IV. Zoologiya o'quv dasturida belgilangan tirik ob'ektlardan foydalanishga asoslangan laboratoriya mashg'uloti ishlanmasini loyihalashtiring va guruhingiz a'zolari bilan hamkorlikda namoyish qiling.

V. Mavzu yuzasidan o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari va fanga doir xususiy kompetentsiyalarni nazorat qilish va baholash maqsadida murakkablik darajasi turlicha bo'lgan nostandart o'quv topshiriqlarini ishlab chiqing.

1- ilova.

Laboratoriya mashg'uloti.

Yomg'ir chuvalchangning tashqi tuzilishi, harakatlanishi va refleks hosil qilishi

Maqsad. Yomg'ir chuvalchangini kuzatish orqali chuvalchanglarning tana tuzilishi, tana qismlari, yashash muhitiga moslashganligi, harakatlanishi hamda tashqi ta'sirlarga javob reaksiyalarini o'rganish, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Kerakli jihozlar. Tirik yirik yomg'ir chuvalchangi, yomg'ir chuvalchangini solish uchun nam tuproqli vannacha, piyoz, qo'l lupasi, chizg'ich, karton qog'oz, entomologiya ninachalari yoki uchi o'tkirlangan qalam.

1. Tirik yomg'ir chuvalchangini olib diqqat bilan kuzating. Uning tana tuzilishi, shakli, rangi va kattaligiga e'tibor bering.

2. Tanasining oldingi konussimon ingichkalashgan va keyingi birmuncha to'mtoq tomonini aniqlang.

3. Chuvalchangning qalinlashgan, oqimtir tusga ega segmentlardan iborat bo'lgan belbog' qismi, tanasining orqa qismida joylashgan segmentlariga e'tibor qaratiladi.

4. Chuvalchang terisining quruq yoki namligi aniqlanadi. Tuproqda yashash uchun bunday terining ahamiyati muhokama qilinadi

5. Barmog'ingizni chuvalchangning qorin tomoni bo'ylab orqadan oldinga, keyin oldindan orqaga yuriting. Bunda chuvalchangning tuklari barmog'ingizga tegishini sezasiz. Tukchalarining qaysi tomonga yo'nalganini aniqlang va buning mohiyatini izohlang.

6. Lupa yordamida segmentlar va ularda joylashgan tukchalarining tuzilishi aniqlang.

7. Tana halqalarini lupa yordamida sanab chiqing, uning turli qismidagi halqalarining katta-kichikligini aniqlang.

8. Tananing qoramtil do'ng orqa va oqish yassi qorin tomonini hamda yirik orqa va qorin qon tomirlarini toping va ularning yo'nalishini aniqlang.

9. Chuvalchangni oyna ustiga va silliq bo'lman quruq qog'oz ustiga qo'ying. Uning oyna ustida qiyin harakatlanishi sababini tushuntiring. Yomg'ir chuvalchangi qog'oz ustida harakatlanganida uning tuklari qog'ozga ishqalanishi tufayli shitirlagan tovush chiqishini tinglang.


10. Chuvalchang tanasining turli qismlariga shisha tayoqcha tekkizib, chuvalchangning ta'sirlanishini kuzating.

11. Chuvalchangning oldingi qismiga bir bo'lak piyoz yaqinlashtiring. Natijasini izohlanadi.


12. Chizg'ich bilan chuvalchang tanasining uzunligini har xil holatda o'chab ko'ring.

2-ilova

1-topshiriq.



2-topshiriq. Yomg'ir chuvalchangi tana qismlariga mos raqamlarni yozing.



Tana qismlari	Tyr	Funksiyasi
Og'iz teshigi		
Jig'ildon		
Qizilo'ngach		
Halqum		
Ichak		
Oshqozon		
Qorin nerv zanjiri		
Halqum atrofi nerv halqasi		

Bajarilgan ish yuzasidan xulosa yasang.

13 - LABORATORIYA MASHG'ULOTI BIOLOGIYA (ODAM VA UNING SALOMATLIGI) O'QUV FANIDAN ANATOMIK MAZMUNDAGI LABORATORIYA MASHG'ULOT-LARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi. Odam va uning salomatligi o'quv fanidan anatomik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi bilan tanishish;

Mashg'ulot davomida talaba:

1) biologiya (odam va uning salomatligi) o'quv fanidan anatomik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlarini, fiziologik, anatomik, gigienik tushunchalarni farqlay olishi;

2) odam fiziologiyasini o'rganishga asoslangan laboratoriya mashg'uloti orqali o'quvchilarning kuzatish, tajriba o'tkazish, kuzatish natijalarini rasmiylashtirish va tahlil qilish, o'tkazilgan kuzatish va tajribalar asosida sxemalar, chizmalar, jadvallar tuzish kabi mustaqil ishlarini samarali tashkil etish orqali bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarish ko'nikmalarini egallashi;

3) laboratoriya mashg'ulotini tashkil etishda ta'lif mazmuni, o'qitish metodlari va vositalardan uyg'un ravishda foydalanish ko'nikmalarini egallashi lozim.

Zarur jihozlar va qurollar. Biologiya darsligi, o'quv dastur, DTS, laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar.

Laboratoriya mashg'ulotida foydalilaniladigan texnologiya. Modulli ta'lif texnologiyasining kichik guruhlarda hamkorlikda ishslash metodi.

Laboratoriya mashg'ulotining borishi. Izoh: talabalar kichik guruhlarga bo'linib, har bir guruh mustaqil ravishda mavzu tanlaydi.

Biologiya (odam va uning salomatligi) o'quv fanidan anatomik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi" mavzusidagi laboratoriya mashg'uloti dasturi

1-modul. Biologiya (odam va uning salomatligi) o'quv fanidan anatomik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlari mazmuni bilan tanishish.

1. O'quv dasturida belgilangan Biologiya (odam va uning salomatligi) o'quv fanidan anatomik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlari mavzularini aniqlang, ularning didaktik maqsadlari, mazmuni bilan tanishing.

2. Laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda foydalilaniladigan jihozlarini aniqlang, jihozlardan foydalanishda rioya qilinadigan

texnik xavfsizlik qoidalarini tahlil qiling.

2-modul. Biologiya (odam va uning salomatligi) o'quv fanidan anatomik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish va rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar bilan tanishish.

1. 1-ilovada keltirilgan laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish va rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar namunasini tahlil qiling.

2. Guruhingiz a'zolari bilan mustaqil ravishda odam va uning salomatligi o'quv fanidan anatomik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish va rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqing.

3-modul. Biologiya (odam va uning salomatligi) o'quv fanidan quyidagi mavzularda laboratoriya mashg'uloti ishlanmasini loyihalashtirish.

1. «Epiteliy, qoplovchi, biriktiruvchi, muskul va nerv to'qimalarining tuzilishini o'rghanish», «Odam suyaklarining xilma xilligi bilan tanishish», «Tayanch-xarakatlanish sistemasi shikastlanganda birinchi yordam berish», «Odam qonining shaklli elementlarini o'rghanish», «Siydik ayirish a'zolarining tuzilishini o'rghanish» mavzularda laboratoriya mashg'uloti ishlanmasini loyihalashtiring va guruhingiz a'zolari bilan hamkorlikda namoyish qiling

2. Yuqoridagi mavzular yuzasidan o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari va fanga doir xususiy kompetentsiyalarni nazorat qilish va baholash maqsadida murakkablik darajasi turlicha bo'lgan nostandart o'quv topshiriqlarini ishlab chiqing.

1- ilova.

Laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish va rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar (namuna).

1. Laboratoriya mashg'ulotining mavzusi va maqsadini diqqat bilan o'qing.

2. Laboratoriya mashg'uloti uchun zarur asbob-uskunalar va materiallarning mavjudligini tekshiring.

3. Ishning borish ketma-ketligi bilan tanishing.

4. Daftarga ishning bajariladigan sanasi va ish mavzusi, ishning borish tartibini yozing.

5. Belgilangan tartib bo'yicha belgilangan vazifalarni bajaring, qo'yilgan savollarga javob bering.

6. Laboratoriya mashg'uloti natijalarini daftarga yozing.
7. Laboratoriya mashg'uloti yuzasidan xulosa chiqaring.

Laboratoriya mashg'uloti.

Mavzu. Qonning shaklli elementlarini o'rghanish.

O'tilgan mavzuni takrorlash

Qon – organizm ichki muhitining bir qismi bo'lib, 2 qismdan: plazmadan (55%-60%) va shaklli elementlardan (40%-45%) tashkil topgan.

Plazma qonning suyuq qismi bo'lib, uning tarkibida 90-92% suv, 7-8% oqsillar, 0,9% tuzlar, 0,12%-glukoza, 0,8% yog'lar bo'ladi. Qon plazmasi odam tanasi hujayralarining oziqlanishida, ulardagi barcha hayotiy jarayonlar normal o'tishida muhim rol o'ynaydi. Qonning shakli elementlarga eritrotsitlar, leykotsitlar va trombotsitlar kiradi.

Eritrotsitlar – qizil qon tanachalari bo'lib, ular yadrosiz, 1 mm^3 qonda 4-6 mln ta bo'ladi, suyak ko'miklarida hosil bo'lib 120 kun yashaydi. Jigar va taloqda parchalanadi. Eritrotsitning asosiy qismi gemoglobin (murakkab oqsil) dan iborat. Gemoglobin kislorod va karbonat angidridni tashiydi, shuning uchun eritrotsitlar organizmda transport vazifasini bajaradi.

Leykotsitlar – oq qon tanachalari yadroli bo'lib, 1 mm^3 qonda 6-8 mingta bo'ladi, suyak ko'miklarida, limfa tugunlarida, taloqda hosil bo'lib, 8-12 kun yashaydi. Leykotsitlar organizmda himoya vazifasini bajaradi.

Trombotsitlar rangsiz, yadrosiz qon plastinkalari bo'lib, suyak ko'miklarida – qizil iligda hosil bo'ladi. 1 mm^3 qonda 300-400 mingta bo'lib, 2-5 kun yashaydi. Trombotsit organizmda qonning ivishini taminlaydi. Ularning tarkibida seratonin moddasi bo'lib, u qon taminlaydi.

tomirlarini toraytiradi va qonning ivishini tezlashtiradi

Maqsad. Odam va baqa qonining tuzilishini mikroskop ostida ko'rib o'rghanish, qonning shaklli elementlarining tuzilishini o'rghanish.

Jihozlar. Mikroskop, odam va baqa qonidan tayyorlangan doimiy mikropreparatlar.

Ishni bajarish tartibi.

1. O'qituvchi qonning shaklli elementlari ifodalangan rasmlardan foydalanib qisqacha tushuncha beradi.
2. Mikroskop ish holatiga keltiriladi.
3. Odam qonidan tayyorlangan doimiy mikropreparat mikroskopning buyum stolchasiga joylashtiriladi va ko'rildi.
4. Baqa qonidan tayyorlangan doimiy mikropreparat mikroskopning buyum stolchasiga joylashtiriladi va ko'rildi.
5. O'quvchilar odam va baqa qonidan tayyorlangan doimiy mikropreparatlarni ko'rib ular o'rtasidagi o'zaro farqni aniqlaydilar va quyidagi Venn diagrammasini to'ldiradilar.

Odam eritrotsitlari	O'xshashligi	Baqa eritrotsitlari

6. Mikroskop ostida ko'rilgan odam va baqa qoni shaklli elementlari rasmini daftarga chizib va jadvaldagi rasm bilan taqqoslaydilar.

7. Eritrotsit, leykotsit, trombotsitlarni o'zaro taqqoslaydilar va quyidagi jadvalni to'ldiradilar.

Qon hujayrasi	Eritrotsit	Leykotsit	Trombotsit
Qaerda hosil bo'ladi			
Funksiyasi			
Shakli, tuzilishi, turlari			
Yashash muddati			
Qaerda parchalanadi			
Yetish masligi ogibatlari			

8. O'quvchilarga yakka tartibda mustaqil ishlash uchun topshiriq varaqalari beriladi va quyidagi savollarga javoblar olinadi.

Nazorat uchun savollar

1. Qonning shaklli elementlariga nimalar kiradi?
2. Qon plazmasining tarkibida qanday moddalar bo'ladi?
3. Odam qonidagi eritrotsitlar bilan hayvon qonidagi eritrotsitlar o'rtasida qanday farq bor?
4. Eritrotsitlar organizmda qanday funksiyalarni bajaradi?
5. Leykotsitlarning qanday turlari bor va ular organizmda qanday funksiyani bajaradi?
6. Qonning ivishi qanday omillarga bog'liq?
7. Odam organizmidagi qon guruhlari bir-biridan nimasini bilan farqlanadi?

Bajarilgan ish yuzasidan xulosa yasang.

14 - LABORATORIYA MASHG'ULOTI

BIOLOGIYA (ODAM VA UNING SALOMATLIGI) O'QUV FANIDAN FIZIOLOGIK MAZMUNDAGI LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi. Odam va uning salomatligi o'quv fanidan fiziologik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi bilan tanishish;

Mashg'ulot davomida talaba:

- 1) odam va uning salomatligi o'quv fanidan fiziologik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlarini, fiziologik, anatomik, gigienik tushunchalarni farqlay olishi;
- 2) odam fiziologiyasini o'rghanishga asoslangan laboratoriya mashg'uloti orqali o'quvchilarning mustaqil ishlarini samarali

tashkil etish orqali bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarish ko'nikmalarini egallashi;

3) laboratoriya mashg'ulotini tashkil etishda ta'lif mazmuni, o'qitish metodlari va vositalaridan uyg'un ravishda foydalanish ko'nikmalarini egallashi lozim.

Zarur jihozlar va qurollar. Biologiya darsligi, o'quv dastur, DTS, laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar.

Laboratoriya mashg'ulotida foydalaniladigan texnologiya. Kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash metodi.

Laboratoriya mashg'ulotining borishi.

I. O'quv dasturida belgilangan odam va uning salomatligi o'quv fanidan fiziologik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlari mavzularini aniqlang, ularning didaktik maqsadlari, mazmuni bilan tanishing, har bir laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda foydalaniladigan jihozlarini aniqlang, jihozlardan foydalanishda rioya qilinadigan texnik xavfsizlik qoidalarini tahlil qiling.

II. Biologiya (odam va uning salomatligi) darslidigidi «Jismoniy mashqlarning yurak-qon tomirlar sistemasiga ta'sirini o'rGANISH» mavzusidagi laboratoriya mashg'uloti ishlanmasini o'rGANING va «Qon aylanish sistemasi» mavzusi yuzasidan quyidagi savollarga javob bering.

1. Agar yurak 1 minutda 70 marta qisqarib, har bir qisqarganda qon tomirlariga $38,5 \text{ m}^3$ qon chiqarilsa, bir sutka davomida yurak qancha qonni tomirlarga haydaydi?

2. Yurak muskullari bosim ostida qonni qon tomirlariga haydab chiqaradi. Nima sababdan yurak muskullari bo'shashganida qon tomirlaridagi qon yurakka qaytib tushmaydi?

3. Yurak kishi hayoti davomida charchamasdan to'xtovsiz ishlab turadigan nasos hisoblanadi. Nima sababdan yurak charchamaydi?

4. Yurak qorinchasi devori muskullarining qisqarishi va arteriyalar devorining elastikligi qonni qon tomirlarida oqishini taminlaydi. Lekin venalar devori elastik emas, muskullari esa yaxshi rivojlanmagan. U holda qonni vena tomirlari orqali yurakka oqib kelishi qaysi omillar bilan bog'liq?

5. Arteriya qon tomirlari vena qon tomirlariga nisbatan organizmda ancha chuqr joylashganligi organizm uchun qanday ahamiyatga ega?

6. Nima sababdan arteriyalardan qon ketishini to'xtatish uchun qovuzloq jarohatlangan joyga emas, undan yuqoriroqqa qo'yiladi?

III. 2-ilovada keltirilgan o'quv topshiriqlarini tahlil qiling.

IV. Biologiya (odam va uning salomatligi) o'quv fanidan fiziologik mazmundagi laboratoriya mashg'uloti ishlanmasini loyihalashtiring va guruhingiz a'zolari bilan hamkorlikda namoyish qiling.

V. Mavzu yuzasidan o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari va fanga doir xususiy kompetentsiyalarni nazorat qilish va baholash maqsadida murakkablik darajasi turlicha bo'lgan nostandard o'quv topshiriqlarini ishlab chiqing. nazorati uchun o'quvchilar uchun nostandard o'quv topshiriqlar ishlab chiqing.

1- ilova.

Laboratoriya mashg'uloti.

JISMONIY MASHQNING YURAK-QON TOMIRLAR SISTEMASIGA TASIRINI O'RGANISH

Maqsad. Odamning arterial qon bosimi va tomir urishi – pulsni aniqlash usullari bilan tanishish. Tinch holatda va jismoniy mashqlardan keyingi holatda odam pulsini va qon bosimini aniqlash va ular o'rtaсидаги farqni kuzatish, odam pulsini va qon bosimini aniqlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Jihozlar. Sekundomer, fonendoskop, tonometr.

Ishning borishi.

I. Qon bosimini tonometr yordamida o'lishash.

1. Tonometrning rezinali manjeti qo'lning tirsak bo'g'imidan yuqori qismiga o'raladi. So'ng tonometrning rezina ballonchasi yordamida manjet ichiga havo yuboriladi. Manjet havo bilan to'lib, bilak arteriyasini qisadi va qonning pastki tomon oqishini to'xtatadi, simob ustuni 180-200 mm ga ko'tariladi va tirsak arteriyasida puls

sezilmay qoladi.

2. Fonendoskopining bir uchini quloqqa o'rnatib, ikkinchi uchini tirsak bo'g'imi chuqurchasiga qo'yiladi va diqqat bilan eshitib turiladi, hech narsa eshitilmaganligiga ishonch hosil qilgandan so'ng, asbob balloonchasidagi vint sekinlik bilan bo'shatiladi. Manjetdan havo sekin-asta chiqariladi va fonendoskop orqali bilak arteriyasini eshitib turiladi.

3. Arteriya qon tomirida yurakning qisqarish tovushi eshitilishi bilan shtativning simob ustuniga qaraladi. Shtatiy ko'rsatgan raqami maksimal arterial bosim hisoblanadi. Arteriya qon tomiri urishini eshitish davom ettiriladi va unda yurak qisqarishi tovushi yo'qolishi bilanoq simob ustuniga qaraladi, shtativ ko'rsatgan raqam minimal arterial bosim bo'ladi.

II. Tomir urishini aniqlash.

1. Tajriba o'tkazish uchun 2-3 o'quvchi ajratiladi. Ular 5 minut partada tinch o'tirib, dam olgandan keyin pulsni sekundomer yordamida sanaladi va arterial bosimi o'chanadi. Olingan natijalar har bir o'quvchi uchun alohida qayd etiladi.

2. So'ngra o'quvchilar navbat bilan belgilangan jismoniy mashqlar bajaradilar, masalan, 30 sekundda 20 marta o'tirib turadilar. Mashq tugashi bilan puls sanaladi, arterial qon bosimi o'chanadi. Olingin natija dastlabki natijalar yoniga yozib qo'yiladi.

3. O'quvchilar uch daqiqa dam olgandan keyin puls va qon bosimi qayta aniqlab, avvalgi natijalar bilan taqqoslanadi. So'nggi natija dastlabki natijaga teng bo'lishi lozim.

Laboratoriya mashg'uloti natijasida olingan ko'rsatkichlar quyidagi jadvalga kiritiladi va xulosalar daftarga yozib olinadi.

	Puls	Qon bosimi
Tinch holatda		
Jismoniy mashqdan so'ng		
Dam olgandan so'ng		

15 - LABORATORIYA MASHG'ULOTI

BIOLOGIYANI O'QITISHDA FANLARARO

INTEGRATSIYANI AMALGA OSHIRISH METODIKASI.

Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi. Fanlararo integratsiyani amalga oshirish metodikasi bilan tanishish.

Mashg'ulot davomida talaba:

1) fanlararo integratsiyaga asoslangan mavzularni aniqlashi, tushunchalarni farqlay olishi;

2) fanlararo integratsiyaning didaktik funksiyalari, fanlararo integratsiyadan o'qitish jarayonida samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlashlari;

3) fanlararo integratsiyani amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari, fanlararo integratsiyani amalga oshirish vositalari, usullari, shakllarini bilishlari;

4) tabiiy o'quv fanlari o'rganadigan hodisalarining o'zaro bog'liqligini anglash, biologiyani o'qitish jarayonida fizik, kimyoviy hodisalar, jarayonlar va qonuniyatlardan foydalanish orqali o'quvchilarda biokimyoviy, biofizik tushunchalarni shakllantirishga va tabiiy fanlarni integrallashni izchil amalga oshirish orqali o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga erishish usullarini egallashlari;

5) o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlarini majmuaviy qo'llashni talab etuvchi topshiriqlar tizimini ishlab chiqishlari zarur.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan tabiiy fanlar fizika, kimyo biologiya va geografiya o'z mazmunida tabiatdagi anorganik va tirik tabiat tarkibiy qismlari o'rtasidagi obyektiv bog'lanishlarini aks ettiradi. Har bir tabiiy fan o'z mazmunida tabiatdagi o'zaro aloqadorlik, uzviylikka muvofiq holda o'rganilsa, o'quvchilarda tabiat va uning rivojlanishi, tabiatda sodir bo'ladigan fizik, kimyoviy va biologik jarayonlar, biosfera, moddalarning davra bo'ylab aylanishi, bir so'z bilan aytganda, tabiat dialektikasini yaxlit o'rganish imkonini vujudga keladi.

Didaktik adabiyotlar tahlili o'qitishni tashkil etishda fanlararo o'ziga xos xususiyatlari mavjudligini ko'rsatdi. Jadvaldan ko'rinish

turibdiki, o'qitishda fanlararo bog'lanishlar mazmuni va mohiyatiga ko'ra fanlararo, fan tarmoqlariaro, boblar va mavzulararo bo'lishi mumkin.

O'qitishda foydalanishga ko'ra: avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalardan foydalanish, bir vaqtida o'rganilayotgan o'quv materialidan foydalanish, kelgusida o'rganiladigan tushunchalar bilan bog'lanishlarni vujudga keltirish mumkin.

Xarakteriga ko'ra gorizontal ya'ni, bir sinfda o'rganilayotgan o'quv fanlari o'rtasida fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish mumkin, yoki vertikal har xil sinflarda o'rganilgan o'quv fanlari o'rtasida fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish mumkin.

Shuningdek, darsda amalga oshirilayotgan fanlararo bog'lanishlar o'rganiladigan mavzuning mazmuniga bog'liq bo'lsa, sinxron, kelgusidagi vazifalarni ko'zda tutgan bo'lsa asinxron bo'lishi mumkin.

O'qituvchi o'rganiladigan mavzuning mazmuniga bog'liq holda ushbu bog'lanishlarning turini ajratishi lozim.

Didaktik adabiyotlarda fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirishga imkon beradigan metod sifatida mantiqiy metod ko'rsatilgan va mazkur metodning tahlil, sintez, taqqoslash, sabab-oqibat bog'lanishlari, induktsiya, deduktsiya, umumlashtirishdan foydalanish tavsiya etilgan.

Fanlararo bog'lanishlarning o'ziga xos xususiyatlarining aniqlanishi biologiya o'quv fanida amalga oshiriladigan fanlararo bog'lanishlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va metodikaning bugungi rivojlanish darajasiga muayyan o'zgartirishlar kiritilishini taqozo etadi.

Biologiyani o'qitishda o'quvchilarining o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi kutilmagan vaziyatda qo'llash orqali fanga doir xususiy kompetentsiyalarni tarkib toptirishda fanlararo bog'lanish muhim o'rinn tutadi.

Biologiya o'quv fani mazmuni e'tiborga olingan holda fanlararo bog'lanish (integratsiya) aniq fanlar (matematika, informatika), tabiiy fanlar (fizika, kimyo, geografiya, ekologiya) bilan amalga oshirish

tavsiya etiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiyani o'qitishda fanlar integratsiyasining quyidagi turlaridan foydalanildi:

-tushunchaga oid integratsiyada umumiy tushunchalar mazmunni ochib beradigan mavzular qamrab olinadi;

-nazariyaga oid integratsiyada – fizika, kimyo, biologiyadagi nazariyalar umumiy holatda o'rganiladi;

-muammoli integratsiyada fanlararo muammolar qamrab olinadi va hal etish yo'llari ishlab chiqiladi;

-faoliyatga oid integratsiyada muammoni hal etish yuzasidan munozara o'tkazish, kichik guruhlarda ishlash, fanlararo tadbirlar rejasini tuzish, loyihamalar tayyorlash kabilalar ko'zda tutiladi;

-amaliy integratsiyada ahamiyatga molik bo'lgan jarayonlar asosida texnik mahsulotlarni yaratish nazarda tutiladi.

Tabiiy fanlarning jadal rivojlanishi, ular o'rtasida integrallashgan fanlarning vujudga kelishi, uzluksiz ta'lim tizimi bosqichlarida o'qitiladigan biologiya fani mazmunini ham integrallashni taqozo etmoqda. Buning uchun yuqorida qayd etilgan fanlar rivojidagi so'nggi yutuqlar, ularning fan va texnika, xalq xo'jaligi va inson hayotidagi ahamiyatini anglash zarur.

Biologiya o'qituvchisi o'qitishda fanlararo bog'lanishni amalga oshirish ta'lim-tarbiya jarayonining muhim didaktik sharti ekanligini anglashi lozim.

Fanlararo bog'lanishni amalga oshirishning quyidagi ahamiyati mavjud:


1. O'quvchilarining aniq va tabiiy fanlardan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarbi biologiyadan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarbi bilan mantiqiy bog'liqligi ta'minlanadi.

2. O'quvchilarining fan asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishi ortadi va aqliy rivojlanish jarayoni tezlashadi.

3. Tabiiy fanlarni o'qitishda fanlararo bog'lanishni bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirish orqali o'quvchilarining ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga imkon yaratiladi.

FANLARARO BOG'LANISHNING O'ZIGA XOS

XUSUSIYATLARI



1-rasm

O'qituvchi mashg'ulotlar davomida o'rganiladigan mavzuning mazmunidagi tushunchalarni o'quvchilar ongiga kimyo, fizika, matematika, geografiya, shuningdek, biologiya o'quv fanlarining turli tarmoqlaridan o'zlashtirgan bilimlariga tayangan holda yetkazishi lozim. Biologiyani o'qitishda o'rganilayotgan mavzuning mazmuni va manbaiga ko'ra fanlararo bog'lanishni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Biologiya fani tarmoqlari ichidagi fanlararo bog'lanish.
2. Tabiiy fanlar bilan fanlararo bog'lanish.
3. Aniq fanlar bilan fanlararo bog'lanish.

Biologiya fani tarmoqlari ichidagi fanlararo bog'lanishni amalga oshirishda o'rganilayotgan obyektga doir, tushunchaga doir, muammoli, amaliy integratsiyalar muhim o'rinn tutadi.

Biologiyani o'qitishda obyektga doir integratsiyada tirik organizmlarning tuzilishiga doir molekula, hujayra, to'qima, organ,

organizm, tur, biogeotsenoz va biosfera darajalari asos qilib olingan.

Umumiy o'rta ta'lif maktablarida sinflar kesimida biologiya o'quv fanlarida tirik organizmlar o'rganiladi va organizm (mikroorganizm, o'simlik, hayvon, odam) biologik sistema, ekologik sistemalar va organik olam evolyutsiyasi yo'nalishida umumlashtirish, tizimlashtirish orqali o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini tarkib toptirish va rivojlantirish imkoniyati vujudga keladi.

Tushunchaga oid integratsiyada umumbiologik tushunchalar (hujayra tirik organizmlarning tuzilish, funksional va rivojlanish birligi, modda va energiya almashinuvi, ko'payish va rivojlanish, organizm va tashqi muhit, irlsiyat va o'zgaruvchanlik, organik olam evolyutsiyasi) mazmunni oshib beradigan mavzular qamrab olinadi. Biologiyani o'qitishda umumbiologik tushunchalar aniqlangan bo'lib, mazkur tushunchalar barcha o'quv kurslarida rivojlantiriladi.

Muammoli integratsiyada fan ichidagi muammolar qamrab olinadi va hal etish yo'llari ishlab chiqildi. Mazkur integratsiyada biologiya fani ichidagi tushunchalardan o'quv muammolari shakllantiriladi. Ular jumlasiga keys stadi topshiriqlari misol bo'la oladi.

Faoliyatga oid integratsiyada o'quv muammolarini hal etish yuzasidan munozara o'tkazish, kichik guruhlarda ishlash, loyihalar tayyorlash kabilar ko'zda tutiladi. Biologiya darslari innovatsion texnologiyalar asosida loyihalanadi va o'quvchilarning o'quv bilish faoliyati kichik guruhlarda ishlash asosida tashkil etiladi. Shu jarayonda o'quvchilar o'rtasida hamkorlik va o'zaro yordam vujudga kelishiga zamin tayyorlananadi.

Amaliy integratsiyada o'quvchilar o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalarni yangi kutilmagan vaziyatda qo'llashga imkon yaratiladi. Masalan, o'quvchilarning matematikadan o'zlashtirgan hisoblashga doir bilim, ko'nikma, malakalarini biologik jarayonlarga tatbiq etish ko'zlangan natijani beradi.


Kuzda baliq 6 400 ta tuxum qo'ydi, keyingi yilning bahorida ko'lga 1280 ta baliq tuxumdan chiqdi va 128 ta baliq dengizga ko'chdi. Oradan ikki yarim yil o'tgach faqat 4ta baliq ko'payish

uchun ko‘lga keldi. Baliq hayotida nobud bo‘lishiga olib keladigan omillar va ularning nobud bo‘lish ehtimolligini % larda hisoblang.

Mazkur masala o‘quvchilarning biologiya va matematikadan o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma, malaka, tayanch va fanga doir xususiy kompetentsiyalarni uyg‘unlashtirishni talab etganligi sababli ijodiy muhit vujudga keladi va o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish, ahamiyatga molik jarayonlar assosida umumlashgan xulosalar chiqarish va amaliyatga tatbiq etish nazarda tutiladi.


Biologiyani o‘qitishda fizikaning dinamik qonunlaridan Nyuton qonuni, butun olam tortishish qonunidan foydalanish tavsiya etiladi. Biologiya o‘qituvchisi fizika qonuniyatlarini biologik jarayonlarga tatbiq etish didaktik tarqatma material tayyorlashi lozim.

O‘simglik ildizining suv va mineral tuzlarni shimish jarayoni, sabab-oqibat bog‘lanishlarini hayotiy tajriba va fanlar integratsiyasi asosida umumlashtirish maqsadida quyidagicha topshiriq tayyorlash tavsiya etiladi.




Tirik organizmlarning tuzilish, qurilish va funksional birligi bo‘lgan hujayraning tuzilishi, unda boradigan hayotiy jarayonlar, moddalarning qabul qilinishi va ajratilish jarayoni, mazkur jarayonda sodir bo‘ladigan sabab-oqibat bog‘lanishlarini hayotiy tajriba va fanlar integratsiyasi asosida umumlashtirish maqsadida quyidagicha topshiriq tayyorlash tavsiya etiladi.

O‘quvchilar mazkur topshiriqni bajarishda kimyo o‘quv fanidan o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini biologik jarayonlarni tushuntirish va vitagen (hayotiy) tajribalarni imkonli vujudga keladi.



Biologiya (Odam va uning salomatligi)ni o‘qitishda, xususan ovqat hazm qilish organlarida organik birikmalar (aminakislota, yog‘ kislotasi, glitsirin, glyukoza) va anorganik modda (suv va mineral tuz)larning qon va limfaga so‘rilish jarayonini fizika va kimyo qonunlaridan foydalanib tushuntirish va vitagen (hayotiy) tajribalar ovqat hazm qilish organining surunkali va yuqumli kasalliklarining oldini olish yuzasidan xulosalashda quyidagi didaktik vositadan foydalanish tavsiya etiladi.



Fizika fanining termodinamika sohasidagi energiyaning saqlanish va aylanish qonuni va kimyoning atom molekulyar nazariyasidan biologik sistemalarda boradigan modda va energiya almashinuvini o‘rganishda o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga erishish lozim.

Biologiyani o‘qitishda fanlararo va fan ichidagi integratsiyani muvaffaqiyatlari amalga oshirish o‘qituvchining aniq fanlar matematika, informatika, tabiiy fanlar fizika, kimyo, geografiya fan asoslarini chuqur va mustahkam o‘zlashtirganlik darajasiga bog‘liq.

Biologiya o‘quv fanlarini o‘qitishda umumlashtirilgan darslar va iqtidorli o‘quvchilar ishlash jarayonida fanlar integratsiyasiga doir savol-topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

1. Poykiloterm (sovujonli) organizmlarda modda va energiya almashinuvini fizik qonunlar asosida tushuntiring.
2. Gomoyoterm (issiqxonli) organizmlarning termoregulyasiyasini fizik qonunlar asosida tushuntiring.
3. Organizmlarning anabioz holatiga o'tishi qaysi fizik qonunlarga asoslanadi?
4. Mezazoy erasida muzliklarning bosib kelishi tirik organizmlar hayotiga qanday tahdid solganligini tushuntiring.
5. Tabiatda fizik (abiotik omillar) o'zgarishlar tirik organizmlar hayotiy jarayonlarida qanday o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keladi?

Biologiyani o'qitishda kimyo fani bilan fanlararo bog'lanishni amalga oshirishda massa va energiyaning saqlanish qonunidan foydalanimli lozim.

1. Tirik organizmlar hujayrasida sodir bo'ladigan oqsillar denaturatsiyasini kimyoviy bog'lar nuqtai nazaridan tushuntiring.
2. Tabiiy tanlanish natijasida biologik regressga uchragan organizmlarda gen mutatsiyalari vujudga kelishining asosiya sabablarini ko'rsating.
3. Oqsil molekulalarida aminokislotalarning o'rinni almashinib qolishining asosiya sabablarini tushuntiring.
4. Gomoyoterm organizmlarning nafas olishi va gaz almashinuvini kimyo fani nuqtai nazaridan tushuntiring.
5. Organizm hujayralarida sodir bo'ladigan plazmoliz va deplazmoliz jarayonini "Kimyo" fani qonunlardan foydalanimli tushuntiring.

Fizika, geografiya va kimyo fanlariga oid integratsiya, jumladan, yerda hayotning paydo bo'lishi nazariyasi bilan quyosh sistemasi nazariyasi o'rtasidagi aloqadorlikni aniqlashda, tirik organizmlarda kechadigan hayotiy jarayonlar: nafas olish, qon aylanish, modda va energiya almashinuvini o'rganilganda fizika va kimyo qonuniyatlaridan foydalanimli tavsija etiladi.

Zarur jihozlar va qurollar. Biologiya darsligi, o'quv dastur, DTS, laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar.

Laboratoriya mashg'ulotida foydalanimli labotriya texnologiya. Modulli ta'lif texnologiyasining kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash metodi.

Laboratoriya mashg'ulotining borishi. Izoh: talabalar kichik guruhlarga bo'linib, har bir guruh mustaqil ravishda mavzu tanlaydi.

"Biologiya o'quv fanidan fanlararo integratsiyaga asoslangan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi" mavzusidagi laboratoriya mashg'uloti dasturi

1-modul. Odam va uning salomatligi o'quv fanidan fanlararo integratsiyaga asoslangan laboratoriya mashg'ulotlari mazmuni bilan tanishish.

1.O'quv dasturida belgilangan odam va uning salomatligi o'quv fanidan fanlararo integratsiyaga asoslangan laboratoriya mashg'ulotlari mavzularini aniqlang, ularning didaktik maqsadlari, mazmuni bilan tanishing.

2.Fanlararo integratsiyaga asoslangan laboratoriya mashg'ulotlarining afzalliklarini aytung.

2-modul. Odam va uning salomatligi o'quv fanidan fanlararo integratsiyaga asoslangan laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish va rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar bilan tanishish.

1. Biologiya va fizika fani integratsiyasiga asoslangan laboratoriya mashg'ulotlarini aniqlash, ushbu laboratoriya mashg'ulotlarining o'ziga xos jihatlarini o'rganing.

2. Biologiya va kimyo fani integratsiyasiga asoslangan laboratoriya mashg'ulotlarini aniqlash, ushbu laboratoriya mashg'ulotlarining o'ziga xos jihatlarini o'rganing.

3. Biologiya va informatika fani integratsiyasiga asoslangan laboratoriya mashg'ulotlarini aniqlash, ushbu laboratoriya mashg'ulotlarining o'ziga xos jihatlarini o'rganing.

3-modul. Odam va uning salomatligi o'quv fanidan fanlararo integratsiyaga asoslangan mavzularda laboratoriya mashg'uloti ishlansmasini loyihalashtirish.

1. Fizika, kimyo, informatika fanlari bilan integratsiyalashgan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish tartibini ishlab chiqing.

2. O‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalari va fanga doir xususiy kompetentsiyalarni nazorat qilish va baholash maqsadida mazmuniga fizika, kimyo, informatika fanlari bilan integratsiya singdirilgan nostandard o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqing.

Bajarilgan ish yuzasidan xulosa yozing.

16 - LABORATORIYA MASHG‘ULOTI BIOLOGIYA O‘QUV FANIDAN VALEOLOGIK MAZMUNDAGI LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Laboratoriya mashg‘ulotining maqsadi. Biologiya o‘quv fanidan valeologik mazmundagi laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasi bilan tanishish;

Mashg‘ulot davomida talaba:

1) biologiya o‘quv fanidan valeologik mazmundagi laboratoriya mashg‘ulotlarining o‘ziga xos xususiyatlarni, fiziologik, anatomik, gigienik tushunchalarni farqlay olishi;

2) valeologik tushunchalar singdirilgan laboratoriya mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilarning kuzatish, tajriba o‘tkazish, kuzatish natijalarini rasmiylashtirish va tahlil qilish, o‘tkazilgan kuzatish va tajribalar asosida sxemalar, chizmalar, jadvallar tuzish kabi mustaqil ishlarini samarali tashkil etish orqali bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarish ko‘nikmalarini egallashi;

3) laboratoriya mashg‘ulotini tashkil etishda ta’lim mazmuni, o‘qitish metodlari va vositalardan uyg‘un ravishda foydalanish ko‘nikmalarini egallashi lozim.

Zarur jihozlar va qurollar. Biologiya darsligi, o‘quv dastur, DTS, laboratoriya mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun zarur jihozlar.

Laboratoriya mashg‘ulotida foydalaniladigan texnologiya. Modulli ta’lim texnologiyasining kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash metodi.

Laboratoriya mashg‘ulotining borishi. Izoh: talabalar kichik guruhlarga bo‘linib, har bir guruh mustaqil ravishda mavzu tanlaydi.

“Biologiya o‘quv fanidan valeologik mazmundagi laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasi” mavzusidagi laboratoriya mashg‘uloti dasturi

1-modul. Biologiya o‘quv fanidan valeologik mazmundagi laboratoriya mashg‘ulotlari mazmuni bilan tanishish.

1. Biologiya o‘quv fanidan valeologik tushunchalar va ularning mazmun-mohiyatini o‘rganing va quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Odam va uning salomatligi o‘quv fanidan laboratoriya mashg‘ulotlari mavzulari	Morfologik tushunchalar	Anatomik mazmundagi tushunchalar	Fiziologik mazmundagi tushunchalar	Valeologik mazmundagi tushunchalar

2. O‘quv dasturida belgilangan odam va uning salomatligi o‘quv fanidan valeologik mazmundagi laboratoriya mashg‘ulotlari mavzularini aniqlang, ularning didaktik maqsadlari, mazmuni bilan tanishing.

2-modul. Laboratoriya mashg‘ulotlari klassifikatsiyasini tahlil qilish.

1. 1-ilovada keltirilgan laboratoriya mashg‘ulotlari klassifikatsiyasi va ularga xos xususiyatlarni tahlil qiling.

2. Guruhingiz a‘zolari bilan mustaqil ravishda odam va uning salomatligi o‘quv fanidan valeologik mazmundagi laboratoriya mashg‘ulotlarni o‘tkazish va rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqing.

3-modul. biologiya o‘quv fanidan valeologik mazmundagi laboratoriya mashg‘uloti ishlanmasini loyihalashtirish.

1. «Tayanch-harakatlanish sistemasi», «Qon aylanish sistemasi», «Nafas olish sistemasi», «Ovqat hazm qilish sistemasi» mavzulari bo‘yicha valeologik mazmundagi laboratoriya mashg‘uloti

ishlanmasini loyihalashtiring va guruhingiz a'zolari bilan hamkorlikda namoyish qiling.

2. Yuqoridagi mavzular yuzasidan o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari va fanga doirxususiy kompetentsiyalarni nazorat qilish va baholash maqsadida murakkablik darajasi turlicha bo'lган nostandart o'quv topshiriqlarini ishlab chiqing.

1- ilova.

Laboratoriya mashg'ulotlari mashg'ulotlari klassifikatsiyasi

Laboratoriya mashg'ulotlari klassifikatsiyasi		Xususiyatlari
Didaktik maqsadiga ko'ra	Namoyishli	
O'qitish shakliga ko'ra	Tadqiqiy individual guruhi frontal	
Mazmuniga ko'ra	morfologik anatomik fiziologik gigienik valeologik ekologik sitologik genetik evolyutsion	
Bilish faoliyati xarakteriga ko'ra	reproduktiv qisman izlanuvchan ijodiy	

Bajarilgan ishlar yuzasidan xulosa yasang.

17 - LABORATORIYA MASHG'ULOTI BIOLOGIYA O'QUV FANIDAN VAQTINCHALIK PREPERATLAR TAYYORLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI.

Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi. Biologiya o'quv fanidan vaqtinchalik preperatlar tayyorlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi bilan tanishish;

Mashg'ulot davomida talaba:

1) biologiya o'quv fanidan o'quvchilarda vaqtinchalik preperatlar tayyorlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulotlari mazmunini bilishi;

2) o'simlik, hayvon hujayralardan vaqtinchalik preparat tayyorlash texnologiyasini, vaqtinchalik preparat tayyorlashda riosa etiladigan xavfsizlik qoidalarini bilishi;

3) o'simlik, hayvon hujayralardan vaqtinchalik preparat tayyorlash va ularni mikroskop yordamida o'rganish, natijalarni rasmiylashtirish va tahlil qilish kabi mustaqil ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarish ko'nikmalarini egallashi zarur.

Zarur jihozlar va qurollar. Biologiya darsligi, o'quv dastur, DTS, laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar.

Laboratoriya mashg'ulotida foydalaniладиган texnologiya. Modulli ta'lim texnologiyasining kichik guruhlarda hamkorlikda ishslash metodi.

Laboratoriya mashg'ulotining borishi. Izoh: talabalar kichik guruhlarga bo'linib, har bir guruh mustaqil ravishda mavzu tanlaydi.



"Biologiya o'quv fanidan vaqtinchalik preparat tayyorlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi" mavzusidagi laboratoriya mashg'uloti dasturi


1-modul. Biologiya o'quv fanidan vaqtinchalik preparat tayyorlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulotlari mazmuni bilan tanishish.

1. Biologiya o'quv fanidan vaqtinchalik preparat tayyorlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulotlarini aniqlang va quyidagi jadvalni to'ldiring.

Sitologiya o'quv fanidan vaqtinchalik preparat tayyorlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulotlari	O'quvchilarda shakllantiriladigan tushunchalar.

2. Vaqtinchalik preparat tayyorlash uchun zarur jihozlar, mazkur jihozlardan qanday maqsadda foydalanilishi va vaqtinchalik preparat tayyorlash tartibini yozing.





2-modul. «O'simlik va hayvon hujayralaridan vaqtinchalik preparatlarni tayyorlash va mikroskop ostida ko'rib o'rganish» mavzusidagi laboratoriya mashg'uloti loyihasini tahlil qilish.

1. 1-ilovada keltirilgan laboratoriya mashg'ulotlari loyihasini tahlil qiling.

2. Guruhingiz a'zolari bilan mustaqil ravishda sitologiya o'quv fanidan vaqtinchalik preparatlarni tayyorlashga qaratilgan laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish va rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqing.

3. «O'simlik va hayvon hujayralaridan vaqtinchalik preparatlarni tayyorlash va mikroskop ostida ko'rib o'rganish» mavzusidagi laboratoriya mashg'ulotini guruhingiz a'zolari bilan hamkorlikda namoyish qiling

4. «O'simlik va hayvon hujayralaridan vaqtinchalik preparatlarni tayyorlash va mikroskop ostida ko'rib o'rganish» mavzusidagi laboratoriya mashg'uloti uchun o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari va fanga doir xususiy kompetentsiyalarni nazorat qilish va baholash maqsadida murakkablik darajasi turlicha bo'lgan nostandart o'quv topshiriqlarini ishlab chiqing.

Laboratoriya mashg'uloti

Mavzu. O'simlik hujayrasidan vaqtinchalik preparatlarni tayyorlash va mikroskop ostida ko'rib o'rganish.

Maqsad. O'simlik va hayvon hujayralaridan tayyorlangan vaqtinchalik mikropreparatlar orqali hujayra tuzilishi bilan tanishish, o'simlik va hayvon hujayrasi tuzilishidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash, o'quvchilarda mikroskop bilan mustaqil ishslash ko'nikmalarini shakllantirish,

Jihozlar. Mikroskop, biologiya o'qituvchisining laboratoriya asbob-anjommlari to'plami (pinset, tomizgich, qoplagich va buyum oynasi, filtr qog'izi), preparoval to'plam (skalpel, pintset, preparoval igna), polipropilen o'Ichov idishlari to'plami, g'o'zaning tukli urug'i, pomidor mevasi, yo'sin, suvgaga solingan baqa.

Ishni bajarish tartibi

Birinchi guruh uchun topshiriq.

Yo'sin bargidan preparat tayyorlash.

1. Buyum oynasiga tomizg'ich yordamida bir tomchi suv tomiziladi.

2. Yo'sin o'simligi yashil bargidan olib, buyum oynasidagi suv tomchisiga joylashtiriladi va qoplagich oyna bilan yopiladi, chetidagi ortiqcha suv filtr qog'izi yordamida shimdirlib olinadi

3. Tayyorlangan vaqtinchalik mikropreparat mikroskop ostida ko'rilib. Yo'sin hujayrasi yupqa, po'sti rangsiz, sitoplazmasi bir necha xloroplastlardan va yadrodan iborat ekanligi ko'rindi.

4. Mikroskopda ko'rilgan hujayraning rasmi chiziladi va uning qismlari belgilanadi.

Ikkinci guruh uchun topshiriq.

Pomidor etidan preparat tayyorlash.

1. Pishgan pomidor etidan igna yordamida bir bo'lak ajratib olinib, buyum oynasidagi suv tomchisiga qo'yiladi, ustiga qoplagich oyna yopiladi va chetidagi ortiqcha suv filtr qog'izi yordamida shimdirlilib olinadi.

2. Tayyorlangan preparat mikroskop ostida ko'rilib.

Preparatdan hujayraning qobig'i, sitoplazmasi, yadro va vakuolasi topiladi.

3. Kuzatilganlarning rasmi chizib olinadi, hujayra qismlari alohida belgilanadi.

4. Pomidor etidan igna yordamida bir bo'lak ajratib olinib, buyum oynasidagi suv tomchisiga qo'yiladi va qoplagich oynasiz yopmasdan mikroskop ostida ko'rildi.

Uchinchi guruh uchun topshiriq.

Chigit po'stidan preparat tayyorlash.

1. Namlangan chigitning po'stidan bir bo'lagi ajratiladi va buyum oynasidagi suv tomchisiga qo'yilib, qoplagich oyna bilan yopiladi va chetidagi ortiqcha suv filtr qog'ozi yordamida shimdirlilib olinadi.

2. Tayyorlangan preparat mikroskop ostida ko'rildi, hujayra qismlari aniqlanadi va chizib olinadi, hujayra tarkibiy qismlarining nomlari yoziladi.

To'rtinchi guruh uchun topshiriq.

Baqa epiteliy to'qimasidan preparat tayyorlash.

1. Hayvon hujayrasini o'rganish uchun baqani suv solingan shisha idishda 1-2 kun saqlanadi (bankadagi suv baqani ko'marko'mmas darajada bo'lishi kerak).

2. Bankadagi suv yuzida yupqa parda parchalari hosil bo'ladi. Uni Petri kosachasi olib, hujayra yadrosi ko'rinishi uchun binafsha rang siyoh bilan bo'yaladi.

3. Bo'yagan baqa terisi epiteliy to'qima pardasidan bir qismi pintset bilan buyum oynasidagi suv tomchisiga qo'yiladi va qoplagich oyna bilan yopiladi, chetidagi ortiqcha suv filtr qog'ozi yordamida shimdirlib olinadi.

4. Vaqtinchalik tayyorlangan mikropreparat mikroskop ostida ko'rildi va uning hujayralari ko'p qirrali, zikh joylashganligi, sitoplazmasi va yadrosi ko'rildi.

18 - LABORATORIYA MASHG'ULOTI BIOLOGIYA O'QUV FANIDAN FIZIOLOGIK JARAYONLARNI KUZATISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi. Biologiya o'quv fanidan fiziologik jarayonlarni kuzatish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi bilan tanishish;

Mashg'ulot davomida talaba:

1) biologiya o'quv fanidan fiziologik jarayonlarni o'rganishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulotlarining mazmuni, hujayrada kechadigan fiziologik jarayonlar mohiyatini farqlay olishi;

2) o'quvchilarda hujayrada kechadigan fiziologik jarayonlarni kuzatish, ular ustida tajriba o'tkazish, kuzatish natijalarini rasmiylashtirish va tahlil qilish, o'tkazilgan kuzatish va tajribalar asosida sxemalar, chizmalar, jadvallar tuzish kabi mustaqil ishlarini samarali tashkil etish orqali bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarish ko'nikmalarini egallashi;

3) laboratoriya mashg'ulotini tashkil etishda ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari va vositalardan uyg'un ravishda foydalanish ko'nikmalarini egallashi lozim.

Zarur jihozlar va qurollar. Biologiya darsligi, o'quv dastur, DTS, laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar.

Laboratoriya mashg'ulotida foydalilaniladigan texnologiya. Modulli ta'lim texnologiyasining kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash metodi.

Laboratoriya mashg'ulotining borishi. Izoh: talabalar kichik guruhlarga bo'linib, har bir guruh mustaqil ravishda mavzu tanlaydi.

"Biologiya o'quv fanidan fiziologik jarayonlarni kuzatish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi" mavzusidagi laboratoriya mashg'uloti dasturi

1-modul. Biologiya o‘quv fanidan fiziologik jarayonlarni o‘rganishga qaratilgan laboratoriya mashg‘ulotlari mazmuni bilan tanishish.

1. Biologiya o‘quv fanidan fiziologik jarayonlarni o‘rganishga qaratilgan laboratoriya mashg‘ulotlarini aniqlang va quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Sitologiya o‘quv fanidan fiziologik jarayonlarni o‘rganishga qaratilgan laboratoriya mashg‘ulotlari	O‘quvchilarda tushunchalar	shakllantiriladigan

2. Biologiya fanidan o‘quv dasturida belgilangan fiziologik jarayonlarni o‘rganishga qaratilgan laboratoriya mashg‘ulotlari mavzularini aniqlang, ularning didaktik maqsadlari, mazmuni bilan tanishing va quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Biologiya o‘quv fanidan fiziologik jarayonlarni o‘rganishga qaratilgan laboratoriya mashg‘ulotlari	O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetentsiyalar	O‘quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetentsiyalar

2-modul. «O‘simlik hujayrasida plazmoliz va deplazmoliz jarayonini kuzatish» mavzusidagi laboratoriya mashg‘uloti loyihasini tahlil qilish.

1. 1-ilovada keltirilgan laboratoriya mashg‘ulotlari loyihasini tahlil qiling.

2. Guruhingiz a’zolari bilan mustaqil ravishda sitologiya o‘quv fanidan fiziologik mazmundagi laboratoriya mashg‘ulotlarni o‘tkazish va rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqing.

3. «O‘simlik hujayrasida plazmoliz va deplazmoliz jarayonini kuzatish» mavzusidagi laboratoriya mashg‘ulotini guruhingiz a’zolari bilan hamkorlikda namoyish qiling

4. «O‘simlik hujayrasida plazmoliz va deplazmoliz jarayonini kuzatish» mavzusidagi laboratoriya mashg‘uloti uchun o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalari va fanga

doir xususiy kompetentsiyalarni nazorat qilish va baholash maqsadida murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan nostandart o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqing.

1- ilova.

Laboratoriya mashg‘uloti: O‘simlik hujayrasida plazmoliz va deplazmoliz jarayonini kuzatish

Maqsad. Fiziologik eritmalar bilan tanishish va izotonik, gipertonik, gipotonik eritmalarning o‘simlik hujayralariga ta’sirini hamda osmos jarayonni kuzatishdan iborat.

Jihozlar. Mikroskop, biologiya xonalari uchun laboratoriya asbob-anjomlari to‘plami (filtr qog‘obi, tomizg‘ich, buyum va qoplagich oynalari, petri kosachasi), biologiyadan tajribalar o‘tkazish uchun kimyoiy reaktivlar to‘plami, preparoval to‘plam (skalpel, pintset, preparoval igna), polipropilenli o‘lchov idishlari to‘plami, gipertonik, gipotonik va izotonik Nal eritmasi, qizil rangli piyozbosh.

Ishni bajarish tartibi:

1. Har bir o‘quvchi stoliga laboratoriya mashg‘uloti uchun kerakli bo‘lgan barcha jihozlar tarqatiladi.

2. O‘quvchi skalpel yordamida qizil rangli piyozbosh po‘stidan yupqa kesib olib, buyum oynasiga qo‘yadi va ustiga bir tomchi suv tomizib qoplagich oyna bilan yopadi.

3. Tayyorlangan vaqtinchalik mikropreparat mikroskopning kichik obyektivida ko‘riladi. Mikroskopda hujayralar bir tekis bo‘yalgan va tarang turgan holatida ko‘rinadi.

4. Vaqtinchalik mikropreparatning, qoplagich oynasi bir chetiga Nal ning 1% li eritmasidan bir tomchi tomiziladi va sitoplazma hujayra po‘stidan asta-sekin ajralishi – plazmoliz hodisasi kuzatiladi.

5. Biroz vaqt o‘tgach, qoplagich oynasi bir chetiga bir tomchi suv tomizilib, ikkinchi tomonidan dastlab tomizilgan 1% li Nal eritmasi filtr qog‘obi orqali shimdirib olinadi.

6. Suvning hujayraga qayta shimilishi natijasida uning sitoplazmasi sathi ortib, hujayra devoriga tarqaladi, ya’ni hujayra normal holatga o‘tadi. Bunday jarayon deplazmoliz holati deyiladi.

Nazorat uchun savollar

1. Hujayra membranasining tuzilishini ta'riflang.
2. Hujayra membranasidan moddalar qanday usulda o'tadi?
3. Membranadan moddalarning aktiv va passiv o'tishini farqlab bering.
4. Osmos jarayonini tushuntirib bering.

19 - LABORATORIYH MASHG'ULOTI BIOLOGIYA O'QUV FANIDAN MASALALAR YECHISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI.

Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi. Biologiya o'quv fanidan masalalar yechish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulolarini tashkil etish metodikasi bilan tanishish;

Mashg'ulot davomida talaba:

1) biologiya o'quv fanidan masalalar yechish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulotlarining mazmuni anglashi;

2) o'quvchilarning biologiya o'quv fanidan DNK, RNK tuzilishi, genetik kod, oqsil biosintezi, energiya almashinuvni jarayonlarini o'rghanish, natijalarini rasmiylashtirish va tahlil qilish, o'tkazilgan kuzatish va tajribalar asosida sxemalar, chizmalar, jadvallar tuzish kabi mustaqil ishlarini samarali tashkil etish orqali bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarish ko'nikmalarini egallashi;

3) biologiya o'qitishda masala va mashqlardan foydalanish uchun zarur bo'lgan metodik bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi;

4) biologiyaning didaktik maqsadlari, mazmuni, o'quvchilar bilimiga qo'yilgan talablarni e'tiborga olgan holda masala va mashqlar tuzishi va ulardan o'z o'rnida foydalanish ko'nikmasini egallagan bo'lishi lozim.

Zarur jihozlar va qurollar. Biologiya darsligi, o'quv dastur, DTS, laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar.

Laboratoriya mashg'ulotida foydalilanidigan texnologiya.

Modulli ta'lif texnologiyasining kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash metodi.

Laboratoriya mashg'ulotining borishi. Izoh: talabalar kichik guruhlarga bo'linib, har bir guruh mustaqil ravishda mavzu yuzasidan ishlaydi.

"Biologiya o'quv fanidan masalalar yechish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi" mavzusidagi laboratoriya mashg'ulot dasturi

1. Biologiya o'quv fanidan masala turlari bilan tanishing va o'quvchilarda shakllantiriladigan tushunchalarni yozing.

No	Biologiya o'quv fanidan masala turlari	Masala turi bilan bog'liq tushunchalar
1	DNKdagi nukleotidlarning foizini aniqlashga doir masalalar	
2	DNKdagi nukleotidlarning foizini aniqlashga doir masalalar	
3	DNK va RNKning uzunligini aniqlashga doir masalalar	
4	Protein tarkibidagi aminokislotalar soni, oqsilning massasini aniqlashga doir masalalar	
5	Genetik kodlar jadvali bilan ishlashga doir masalalar	
6	Mitor va meyoz paytida hujayraning genetik tarkibidagi o'zgarishlarni aniqlashga doir masalalar	
7	Hujayrada energetik almashinuvga doir masalalar	

2. Biologiya o'quv fanidan masalalarni yechish uchun o'quvchilar bilishi zarur qonuniyatlarni aniqlang.

No	Biologiya o'quv fanidan masala turlari	Masalalarni yechish uchun o'quvchilar bilishi zarur qonuniyatlar

1	DNKdagi nukleotidlarning foizini aniqlashga doir masalalar	
2	DNKdagi nukleotidlarni o'rtasidagi vodorod bog'lar sonini aniqlashga doir masalalar	
3	DNK va RNKning uzunligini aniqlashga doir masalalar	
4	Protein tarkibidagi aminokislotalar soni, oqsilning massasini aniqlashga doir masalalar	
5	Genetik kodlar jadvali bilan ishlashga doir masalalar	
6	Mitoz va meyoz paytida hujayraning genetik tarkibidagi o'zgarishlarni aniqlashga doir masalalar	
7	Hujayrada energetik almashinuvga doir masalalar	

3. Ilovada berilgan "Umumbiologik qonuniyatlarga doir masala va mashqlar yechish" mavzusidagi laboratoriya mashg'uloti bilan tanishing.

4. Biologiya o'quv fanidan har bir masala turiga namunaviy masalalar tuzing.

1-ilova.

Laboratoriya mashg'uloti.

Mavzu. Umumbiologik qonuniyatlarga doir masala va mashqlar yechish

Maqsad. Hayotning molekula va hujayra darajasidagi umumbiologik qonuniyatlarga doir masalalar yechish orqali biologik ob'ektlarda boradigan jarayonlarni kuzatish, tajribalar o'tkazish va xulosa qilish kompetensiyasini shakllantirish.

Jihozlar. Hayotning molekula va hujayra darajasidagi umumbiologik qonuniyatlarni aks ettiruvchi rangli rasmlar, slaydlar.

Ish tartibi.

I. D NK va RNK ning tuzilishiga doir masalalar yechish.

II. Oqsil biosinteziga doir masalalar yechish.

III. Hujayrada energiya almashinuviga doir masalalar yechish.

IV. Hujayra tirik organizmlarning tuzilish, funksional,

rivojlanish va irsiy birligi deganda nimani tushunasiz?

V. Xulosa.

I. D NK va RNK ning tuzilishiga doir quyida berilgan masalalarni yeching.

1. D NK molekulasi 6000 nukleotiddan iborat. Shu D NK molekulasining uzunligini aniqlang.

2. D NK molekulasi 3000 nukleotiddan iborat, shundan 650 tasini sitozinli nukleotidlardan tashkil etadi. Shu D NK molekulasining uzunligini va boshqa nukleotidlardan sonini aniqlang. Shu D NK molekulasining uzunligini aniqlang.

3) Bir zanjirida GTATGGATAGTTAAT nukleotidlardan ketma-ketligi bo'lgan D NK molekulasidagi vodorod bog'lar sonini aniqlang.

4) Tekshirishlar natijasida i-RNK tarkibida 34% guanin, 18% uratsil, 28% sitozin, 20% adenin borligini aniqlandi. Mazkur i-RNK uchun matritsa bo'lgan D NK tarkibidagi nukleotidlarning % larini aniqlang.

5. D NK molekulasining uzunligi 850 nm ga teng. D NK molekulasidagi nukleotidlardan sonini aniqlan.

II. Oqsil biosinteziga doir quyida berilgan masalalarni yeching.

1. D NK ning berilgan zanjiri asosida genetik kod jadvalidan foydalananib jadvalni to'ldiring.

D NKning 1-zanjiri	A	T	G	T	T	T	A	A	T	G	Ts	G	T	T	A
D NKning 2-zanjiri															
i - RNK															
antikodon															
aminokislota															

2. GTATGGATAGTTAAT nukleotidlar ketma-ketligidan iborat DNK molekulasi asosida sintezlangan i-RNK molekulasidagi nukleotidlar ketma-ketligi va oqsildagi aminokislotalar sonini aniqlang.

3. Oqsil molekulasida aminokislotalar quyidagi tartibda joylashgan: ser – glu – asp – tri – fen – ley – ala. Genetik kod jadvalidan foydalanib ushbu aminokislotalar ketma-ketligiga mos i-RNK molekulasidagi nukleotidlar ketma-ketligini aniqlang.

4. i-RNK molekulasida UGAAGUGUUUAAGAU tartibida nukleotidlar ketma-ketligi berilgan. Genetik kod jadvalidan foydalanib ushbu nukleotidlar ketma-ketligiga mos aminokislotalar ketma-ketligini aniqlang.

5. 450 nukleotid juftligidan iborat DNK bo‘lagi asosida sintezlangan i-RNKdagi nukleotidlar soni va oqsildagi aminokislotalar soni hamda oqsilning massasini aniqlang.

6. Oqsilning massasi 36000 ga teng bo‘lsa, shu oqsilga mos i-RNK va DNKdagi nukleotidlar sonini aniqlang.

III. Hujayrada energiya almashinuviga doir quyida berilgan masalalarni yeching.

1) 675 g glyukoza fermentlar ishtirokida aerob sharoitida bosqichma - bosqich parchalansa qancha energiya hosil bo‘ladi?

2) Glikoliz jarayonida 4500 g glyukoza parchalangan bo‘lsa, hujayrada qancha sut kislota hosil bo‘ladi?

3) Muskullarda 7 mol glyukoza parchalandi. Shundan 3 mol glyukoza kislorod ishtirokida, 4 mol glyukoza kislorod ishtirokisiz parchalandi. Qancha SO₂, N₂O va sut kislota hosil bo‘ladi.

4) Anaerob nafas olish jarayonida sitoplazmada 14 molekula sut kislota hosil bo‘ldi. Parchalangan glyukozaning miqdorini aniqlang.

5) Dissimilyatsiya jarayonida 7 mol glyukoza parchalangan. Agar 2 mol glyukoza to‘liq parchalangan bo‘lsa, qancha (mol) ATP sintezlangan?

20 - LABORATORIYA MASHG‘ULOTI GENETIKADAN MASALALAR YECHISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Laboratoriya mashg‘ulotining maqsadi. Genetikadan masalalar yechish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasi bilan tanishish;

Mashg‘ulot davomida talaba:

1) genetikadan masalalar yechish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan laboratoriya mashg‘ulotlarining mazmuni anglashi va “Genetika asoslari”ni o‘qitishda foydalaniladigan masala va mashqlarning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunishi;

2) o‘quvchilarda masala va mashqlar yechish ko‘nikmasini rivojlantirish bilan bir qatorda o‘quvchilarni masala tuzishga o‘rgatish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

3) masala va mashqlar orqali o‘quvchilarning bilimlarni mustahkamlash, aniqlashtirish, umumlashtirish va tizimga solish, mantiqiy va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodlarini egallashi;

4) genetik simvollardan to‘g‘ri foydalanish, genetik atamalarning mohiyatini anglash, genetik masalalarni yechish bosqichlarini va natijalarini rasmiylashtirish va tahlil qilish orqali o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarish ko‘nikmalarini egallashi;

5) biologiya o‘qitishda masala va mashqlardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan metodik bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi;

6) genetikaning didaktik maqsadlari, mazmuni, o‘quvchilar bilimiga qo‘yilgan talablarni e’tiborga olgan holda masala va mashqlar tuzish ko‘nikmasini egallagan bo‘lishi lozim.

Zarur jihozlar va qurollar. Biologiya darsligi, o‘quv dastur, DTS, laboratoriya mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun zarur jihozlar.

Laboratoriya mashg‘ulotining borishi. Izoh: talabalar kichik guruhlarga bo‘linib, har bir guruh mustaqil ravishda mavzu yuzasidan ishlaydi.

1. Genetikadan o'quvchilar bilishi lozim bo'lgan tushunchalar ro'yxatini shakllantiring va ularning mohiyatini aniqlang.

Nº	Tushunchalar	Tushunchalarning mohiyati
1		
2		
3		

2. Genetikadan o'quvchilar bilishi lozim bo'lgan qonuniyatlarini va ularning mohiyatini aniqlang.

Nº	Qonuniyatlar	Qonuniyatlarning mohiyati
1		
2		
3		

3. Genetik masalalarni yechish algoritmini o'rganing. Mazkur algoritmga qanday qo'shimcha ravishda nimalarni kiritishni taklif qilasiz?

Nº	Genetik masalalarni yechish algoritmi	Qo'shimchalar
1	Masala shartlarining qisqacha yozish	
2	Dominant va retsessiv genlarni lotin harflari bilan belgilash	
3	Irsiylanish tipini aniqlash	
4	Chatishirish sxemasini tuzish: masala shartiga ko'ra chatishirilayotgan organizmlarning fenotip va genotiplarini yozish	
5	Gametalarni aniqlash	
6	Pennet katakchasini tuzish	
7	Masala sharti asosida Pennet katakchasini tahlil qilish	
8	Masalaning javobini yozish	

4. Quyidagi mashg'ulotni tahlil qiling.

Mavzu: DIDURAGAY VA POLIDURAGAY CHATISHTIRISHGA DOIR MASALALAR YECHISH

Mashg'ulot maqsadi. Diduragay va poliduragay chatishirish qonuniyatlariga doir masalalar yechish.

Ishning borishi.

1-topshiriq. Jadvalda berilgan organizmlar hosil qiladigan gametalarni jadvalga yozing.

Organizm genotipi	Gametalar	Organizm genotipi	Gametalar
AA		AaBbDd	
Aa		AABBDD	
BB		aabbdd	
AABB		AaBbDd	

2-topshiriq. Diduragay chatishirishda to'liq dominantlik qonuniyatlariga doir masalalar yechish.

1-masala: No'xatning uzun poyali (dominant), oq (retsessiv) gultojbargli navi kalta poyali, qizil gultojbargli navi chatishirilganda F1 da 80 ta o'simliklarning hammasi uzun poyali, qizil gultojbargli bo'ladi. F2 da olingen 480 ta o'simlikdan nechasi uzun poyali, oq gultojbargli bo'ladi?

Berilgan:		
Fenotip	Gen	Genotip
Uzun poya	A	AA, Aa
Kalta poya	a	aa
Qizil gultojbarg	B	BB, Bb
Oq gultojbarg	b	bb
Otaning genotipi		?
Onaning genotipi		?

Yechish:

P	fenotip	Uzun oq	Kalta qizil	
	genotip	♀ AAbb	♂ aaBB	
	gameta	Ab		aB
F_1	fenotip	Uzun, qizil		
	genotip	AaBb		
F_2	♂	AB	Ab	aB
	♀	AABB	AABb	AaBB
		uzun qizil	uzun qizil	uzun qizil
	AB	AAbb	AaBb	Aabb
		uzun qizil	uzun oq	uzun qizil
	Ab	AaBB	AaBb	aaBb
		uzun qizil	uzun qizil	uzun qizil
	aB	AaBb	aaBb	aabb
		uzun qizil	uzun oq	uzun qizil
Javob:	Fenotip bo'yicha nisbat: 9 : 3 : 3 : 1			
	Genotip bo'yicha nisbat: 1:2:2:4:1:2:1:2:1			

Nazariy jihatdan F_2 duragaylarining $\frac{3}{16}$ qismi uzun poyali, oq gultojbargli bo'lsa, 22 480 ta o'simliklardan nechasi uzun poyali, oq gultojbargli bo'lishini aniqlash zarur.

16 ta -----3 ta uzun poya, oq

480 ta ----- X

$$X = (480 \times 3) : 16$$

$$X = 1440 : 16$$

$$X = 90$$

Javob: F_2 avlodda olingan 480 ta o'simlikning 90 tasi uzun poyali, oq gultojbargli bo'ladi.

2-masala: Pomidor mevasining yumaloq shakli (A) noksimon shakli (a) ustidan, qizil rangi (B) sariq rangi (b) ustidan dominantlik qiladi. Tajribada birinchi belgisi bo'yicha geterozigota, ikkinchi belgisi bo'yicha retsessiv gomozigota genotipga ega bo'lgan pomidor bilan chatishtirildi. Hosil bo'lgan duragaylarning genotip va fenotipini bilan chatishtirildi. Hosil bo'lgan duragaylarning genotip va fenotipini

toping..

3-masala: Itlar yungining qora rangi — jigarrang ustidan, kalta yungi — uzun yungdan to'liq dominantlik qiladi. Ikkala juft genlar har xil autosoma xromosomalarda joylashgan. Ovchi qora va kalta yungli itlarni ko'paytirish maqsadida xuddi shunday fenotipli itlarni chatishtirgan. Lekin ularning avlodidagi kuchukchalarining ma'lum qismigina qora, kalta yungli bo'lgan. Qolganlari esa qora, uzun yungli yoki jigarrang, uzun yungli bo'lgan. Chatishtirish uchun olingan itlarning genotiplarini aniqlang. Ovchi itlari gomozigota qora, kalta junli ekanligini tekshirish uchun qanday chatishtirish o'tkazish lozim?

3-topshiriq. Diduragay chatishtirishda chala dominantlik qonuniyatlariga doir masalalar yechish.

1-masala: Odamlarda qo'yko'zlik ko'KKO'ZLIK ustidan to'liq dominantlik qiladi. Sochning jingalak bo'lishi silliq bo'lishi ustidan chala dominantlik qilgani uchun geterozigota hollarda soch to'lqinsimon bo'ladi. Qo'yko'z, to'lqinsimon sochli qiz ko'KKO'Z, jingalak sochli yigitga turmushga chiqdi. Ulardan tug'iladigan bolalarning fenotipi qanday bo'lishini aniqlang.

2-masala. G'o'zada moyasining uzun bo'lishi kalta poya ustidan to'liq dominantlik qiladi, tolaning malla rangi oq rangi ustidan chala dominantlik qiladi, tolaning novvot rangda bo'lishi oraliq xarakterga ega. Digeterozitota g'o'zalar o'zaro chatishtirilganda avolodda 640 ta o'simlik olingan bo'lsa, kalta poyali malla tolali va kalta poyali oq tolali g'o'zalarning o'zaro genotip bo'yicha nisbatini aniqlang.

Laboratoriya mashg'uloti davomidagi o'quv faoliyatizingizni 5 balli tizimda baholang.

Yo'l qo'yilgan kamchilik va xatolaringizni aniqlang.

21 - LABORATORIYA MASHG'ULOTI

EKOLOGIK TUSHUNCHA VA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi. Ekologik tushunchalar va ekologik madaniyatni shakllantirish, o'quvchilarda tabiatga nisbatan ongli munosabatni tarkib toptirishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi bilan tanishish;

Mashg'ulot davomida talaba:

1) ekologik tushunchalar va qonuniyatlarni bilishi, ularning mazmunini anglashi;

2) ekologik madaniyatga jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan ekologik ta'lif, ekologik ong va ekologik faoliyatning birligi sifatida qarashi;

3) o'quvchilarda ekologik bilim, tabiatga oqilona munosabatni rivojlantirish, tabiat va jamiyatning barqarorligini ta'minlovchi omillarni izlashga asoslangan ekologik dunyoqarashni shakllantirish orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarish metodlarini bilishi va qo'llay olishi;

4) ekologik bilimlarni amaliyotga joriy etish, ularni amaliyotda qo'llay olish imkonini beruvchi amaliy topshiriqlar yaratish ko'nikmalarini egallagan bo'lishi lozim.

Zarur jihozlar va qurollar. Biologiya darsligi, o'quv dastur, DTS, laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar.

Laboratoriya mashg'ulotining borishi. Izoh: talabalar kichik guruhlarga bo'linib, har bir guruh mustaqil ravishda mavzu yuzasidan ishlaydi.

1. biologiya o'quv fani dasturlarida berilgan ekologik tushunchalar va ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulotlarini aniqlang.

2. Laboratoriya mashg'ulotlari mazmuni, maqsadi bilan

tanishing.

3. Mazkur laboratoriya mashg'ulotlarida o'quvchilarda shakllantiriladigan tushunchalar va ularning mohiyatini aniqlang.

4. Quyidagi jadvalni to'ldiring.

Nº	Laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari	Sinf	O'quvchilarda shakllantiriladigan tushunchalar va ularning mohiyati
1			
2			

5. 1-ilovadagi laboratoriya mashg'ulot mazmunini tahlil qiling.

6. Laboratoriya mashg'uloti bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalari va fanga doir xususiy kompetentsiyalarni nazorat qilish va baholash maqsadida murakkablik darajasi turlicha bo'lgan nostandard o'quv topshiriqlarini ishlab chiqing.

1-ilova

LABORATORIYA MASHG'ULOTI. BIOTSENOZNING EKOLOGIK STRUKTURASINI O'RGANISHNING AMALIY AHAMIYATI.

Mashg'ulot maqsadi. Biotsenozning ekologik strukturasini o'rghanishning amaliy ahamiyatini aniqlash.

Ishning borishi.

1-topshiriq. Populyatsiyalar soni o'zgarishi shabablarini tushuntiring va misollar keltiring.

Populyatsiyalar o'zgarishi	Sabab	Misol
Tabiiy populyatsiyalar davriy o'zgarishi		
Tabiiy populyatsiyalar nodavriy o'zgarishi		

2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1) Populyatsiya zichligini boshqaruv mexanizmlarini yozing.

2) Populyatsiyaning jinsiy tarkibini yosh tarkibi, tug'iluvchanlik kabi ko'rsatkichlarini aniqlashning qanday ahamiyati bor?

3) Biotsenozdagi suksessiya jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni tushuntiring.

3-topshiriq. G'izollarning ikkita populyatsiyasi har xil

yashash muhitida yashagani uchun bu holat ularning yosh tarkibiga ta'sir ko'rsatgan. Birinchi populyatsiyada 160 ta yuvenil yoshdagi, 90 ta pubertat yoshdagi va 50 ta qari organizmlar bo'lgan. Ikkinci populyatsiyada 80 ta yuvenil, 160 ta pubertat yoshdagi va 100 ta qari organizmlar bo'lgan. Bu populyatsiyalarning kelajagini bashorat qiling. Har bir populyatsiyaning yashab qolishi uchun odamlar qanday choralarini qo'llashlari lozimligini ko'rsatib bering.

4-topshiriq. Bakteriyalar populyatsiyasining boshlang'ich soni 4 ta bakteriya, har 1 soatda ikkiga bo'linib ko'payadi. Agar o'lim ko'rsatkichi 0 ga teng bo'lsa, bir sutkada bakteriyalar soni qancha bo'ladi?

5-topshiriq. Hayvonlarning etologik (xulq-atvor) strukturasini haqida 3 tadan fikr yozing.



22 - LABORATORIYA MASHG'ULOTI

TABIATDA KUZATISHLAR OLIB BORISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi. Tabiatda kuzatishlar olib borish tajribalar o'tkazish va xulosa qilish kompetentsiyasini shakllantirishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi bilan tanishish;

Mashg'ulot davomida talaba:

1) tabiatda kuzatishlar olib borish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulotlarining mazmuni va mohiyatini anglashi;

2) o'simlik va hayvonlar hayotiy jarayonlarini kuzatish, ular ustida oddiy tajribalar o'tkazish ko'nikma va malakalariga ega

bo'lishi;

3) tabiatda kuzatishlar olib borish ko'nikmalarini shakllantirish orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarish metodlarini bilishi va qo'llay olishi;

4) o'simlik va hayvonlar hayotiy jarayonlarini kuzatish, ular ustida oddiy tajribalar o'tkazish, ekologik bilimlarni amaliyotda qo'llay olish imkonini beruvchi amaliy topshiriqlar yaratish ko'nikmalarini egallagan bo'lishi lozim.

Zarur jihozlar va qurollar. Biologiya darsligi, o'quv dastur, DTS, laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar.

Laboratoriya mashg'ulotining borishi. Izoh: talabalar kichik guruhlarga bo'linib, har bir guruh mustaqil ravishda mavzu yuzasidan ishlaydi.

1. Biologiya o'quv fani dasturlarida berilgan o'simlik va hayvonlar hayotiy jarayonlarini kuzatish, ular ustida oddiy tajribalar o'tkazish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulotlarini aniqlang.

2. Laboratoriya mashg'ulotlari mazmuni, maqsadi bilan tanishing.

3. Mazkur laboratoriya mashg'ulotlarida o'quvchilarda shakllantiriladigan tushunchalar va ularning mohiyatini aniqlang.

4. Quyidagi jadvalni to'ldiring.

No	Laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari	Sinf	O'quvchilarda shakllantiriladigan tushunchalar va ularning mohiyati
1			
2			

5. 1-ilovadagi laboratoriya mashg'uloti mazmunini tahlil qiling.

6. Laboratoriya mashg'uloti bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalari va fanga doir xususiy kompetentsiyalarni nazorat qilish va baholash maqsadida murakkablik darajasi turlicha bo'lgan standart o'quv topshiriqlarini ishlab chiqing.

1-ilova

ABIOTIK OMILLARNING TIRIK ORGANIZMLARGA TA'SIRINI O'RGANISH.

Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi. Muhit omillari: yorug'lik, namlik, tuproq tarkibinin tirik organizmlarga ta'sir qilishini aniqlash, tirik organizmlarga abiotik omillarning ta'sirlarini tahlil qilish.

Kerakli jihozlar. Yorongul yoki koleus o'simliklarining (yoki boshqa xona o'simliklari) novdalari, gultuvaklar.

Ishning borishi. Ushbu tajriba biologiya xonasida laboratoriya mashg'uloti o'tkaziladigan kundan bir yarim oy avval qo'yildi va o'quvchilarning kuzatishi tashkil etiladi.

1. Bir tup xona o'simligidan bir xil ko'lamdag'i to'rt dona uchtdan bo'g'imi bo'lgan yon novdalarini kesib oling. Yuqori bo'g'imdag'i bargni qoldirib, pastki bo'g'imdagi barglarni kesib tashlang. Novdalarni ildiz chiqarguncha suvg'a solib qo'ying. Ildizlar 2 sm ga yetgach, 1- va 2-novdalarni oddiy tuproq solingan gultuvaklarga, 3- va 4-novdalarni sa chirindiga boy tuproq solingan gultuvaklarga eking. 1- va 3-gultuvaklardagi o'simliklarni janubga qaragan derazalarga qo'ying. 2- va 4-gultuvaklardagi o'simliklarni derazadan 3-4 metr uzoqqa joylashtiring. Birinchi uch kunlikda barcha o'simliklarni ko'p miqdorda sug'oring. Keyinchalik 1- va 3-gultuvaklardagi o'simliklar yetarli miqdorda sug'oring, 2- va 4-gultuvaklardagi o'simliklarni normadan kamroq sug'oring. O'simliklarning o'sishi va rivojlanishi ustida kuzatish olib boring. Kuzatish natijalarini har hafta jadvalga yozib boring.

Jadval. Abiotik omillarning o'simlik o'sishi va rivojlanishiga ta'siri.

Kuzatilgan natijalar		Tajriba variantlari			
		1-novda	2-novda	3-novda	4-novda
O'simlik o'sgan muhit sharoiti					
O'simlikning bo'yisi	1-hafta				
	2-hafta				
Barglar soni	1-hafta				
	2-hafta				
Barglarning o'lchami	1-hafta				
	2-hafta				

Barglarning rangi	1-hafta				
	2-hafta				

3. Besh haftadan so'ng o'tkazilgan tajriba yuzasidan xulosa chiqaring.


4. Quyidagi savollarga javob bering.

- 1) Muhit sharoiti qanday abiotik omillar bilan farqlanadi?
- 2) Tuproq, relyef, shamol kabi omillar namlik va haroratning taqsimlanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Misollar keltiring.
- 3) Tuproqning sho'rlanishi, kislorodga boyligi ekosistemaning holatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

4) Quyidagi omillarni uch toifaga – abiotik, biotik, antropogen omillarga ajrating: yirtqichlilik, o'rmonni kesish, havonin namligi, hav harorati, parazitizm, yorug'lik, binolar qurish, atmosfera bosimi, zavodlardan karbonat angidrid gazining havoga chiqarilishi, suvning sho'rliги.

5) Qulay mikroiqlim yaratish orqali inson turli harorat sharoitlarida, Antarktidaning sovuq qish sharoitida, kosmosning qahraton sovug'ida ham yashab, ishlay oladi. Harorat inson uchun chekllovchi omil bo'la olmaydi degan xulosa chiqarish mumkinmi?

6) Berilgan ekologik omillarni klasterda ifodalang.



1. Tuproq omillari.
2. Bakteriyalar.
3. Iqlim omillari.
4. Insonning biogeotsenoza bevosita ta'siri.
5. Zamburug'lar.
6. Topografik omillar.
7. O'simliklar.
8. Insonning biogeotsenoza bilvosita ta'siri.
9. Fizik omillar.

10. Hayvonlar.

Laboratoriya mashg'uloti davomidagi o'quv faoliyatizingizni 5 balli tizimda baholang.

Yo'l qo'yilgan kamchilik va xatolaringizni aniqlang.

23 - LABORATORIYH MASHG'ULOTI

EKOLOGIK MASALALAR YECHISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi. O'quvchilarning ekologik masalalar yechish, ekologik bilimlarini amaliyotga qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi bilan tanishish;

Mashg'ulot davomida talaba:

1) ekologik masalalar yechish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulotlarining mazmuni va mohiyatini anglashi;

2) ekologik masalalar yechish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi;

3) ekologik masalalar yechish ko'nikma va malakalarini shakllantirish orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarish metodlarini bilishi va qo'llay olishi;

4) biogeotsenoza tirk organizmlarning o'zaro munosabatlari, biotsenozing ekologik strukturasi, ekosistemaning trofik strukturasi, oziq zanjiri va oziq to'ri tuzish, ekologik bilimlarni amaliyotda qo'llay olish imkonini beruvchi amaliy topshiriqlar yaratish ko'nikmalarini egallagan bo'lishi lozim.

Zarur jihozlar va qurollar. Biologiya darsligi, o'quv dastur, DTS, laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar.

Laboratoriya mashg'ulotining borishi. Izoh: talabalar kichik guruhlarga bo'linib, har bir guruh mustaqil ravishda mavzu yuzasidan

ishlaydi.

1. Biologiya o'quv fani dasturlarida berilgan biogeotsenoza tirk organizmlarning o'zaro munosabatlari, biotsenozing ekologik strukturasi, ekosistemaning trofik strukturasi, oziq zanjiri va oziq to'ri tuzish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulotlarini aniqlang.

2. Laboratoriya mashg'ulotlari mazmuni, maqsadi bilan tanishing (1-ilova).

3. Mazkur laboratoriya mashg'ulotlarida o'quvchilarda shakllantiriladigan tushunchalar va ularning mohiyatini aniqlang.

4. Quyidagi jadvalni to'ldiring.

Nº	Laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari	Sinf	O'quvchilarda shakllantiriladigan tushunchalar va ularning mohiyati
2			

5. 1-ilovadagi laboratoriya mashg'uloti mazmunini tahlil qiling.

6. Laboratoriya mashg'uloti bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalari va fanga doir xususiy kompetentsiyalarni nazorat qilish va baholash maqsadida murakkablik darajasi turlicha bo'lgan nostandart o'quv topshiriqlarini ishlab chiqing.

1-ilova

OZIQ ZANJIRI VA OZIQ TO'RI TUZISH.

Mashg'ulot maqsadi. Ekosistemaning trofik strukturasi: produtsentlar, konsumentlar, redutsentlarning funksiyalari, oziq zanjiri va oziq to'ri tuzish bo'yicha masalalar yechish.

Ishning borishi.

1-topshiriq. 1. Quyidagi berilgan organizmlar ishtirotida o'tloq tipidagi oziq zanjirini tuzing: tog' terak, qizilishton, chittak, laylak, oq qayin, kapalak qurti, kalxat.

2-topshiriq. Quyidagi berilgan organizmlar ishtirotida detrit

tipidagi oziq zanjirini tuzing: ilon, nobud bo'lgan qush, tuproq bakteriyalari, pashsha lichinkalari, baqa, mog'or zamburug'lari, mineral moddalar.

3-topshiriq. Oziq zanjiri turlari va ularning bo'g'inlari orasidagi muvofiqlikni aniqlang. Oziq zanjirlari: A. O'tloq tipidagi oziq zanjiri. B. Detrit tipidagi oziq zanjiri.

1) quyon; 2) ko'l baqasi; 3) mog'or zamburug'lari; 4) ninachi; 5) tuproq bakteriyalari; 6) terak; 7) spirogira; 8) sazan; 9) yomg'ir chuvalchangi; 10) xongul; 11) eshakqurt; 12) o'limtikxo'r qo'ng'iz; 13) o'tlar; 14) suvsar; 15) qirg'iy.

4-masala. Produtsentning biomassasi – 700000 kg, qarchig'ayning biomassasi – 7 kg. Qarchig'ay qaysi tartib konsument bo'la oladi?

5-masala. O'simlik – quyon – tulkidan iborat oziq zanjirida o'simlik biomassasi 100 t. Agar bir tulkinining massasi 10 kg bo'lsa, tulkilarni populatsiyasidagi individlar sonini aniqlang.

6-masala. 2- va 4-tartib konsumentlarning umumiyligi biomassasi 1010 kg. 1-tartib konsumentlarning umumiyligi biomassasini aniqlang.

7-masala. Ekologik piramida qoidasidan foydalananib, dengiz ekosistemasida vazni 300 kg keladigan bitta tulen uchun oziq zanjirida qancha fitoplankton, mayda baliq, yirtqich baliq kerak bo'lishini aniqlang.

8-masala. Oziq zanjiri fitoplankton – baliqlar – baliqchi qushdan iborat. Baliqchi qushning massasi 1 kg (quruq moddaning ulushi 40%)ga teng. Bir yil davomida 2000 kg fitoplankton quruq massasi hosil bo'ladigan dengizda nechta baliqchi qush oziqlanishi mumkin?

Laboratoriya mashg'uloti davomidagi o'quv faoliyatizingizni 5 balli tizimda baholang. Yo'l qo'yilgan kamchilik va xatolaringizni aniqlang.

24 - LABORATORIYA MASHG'ULOTI

ORGANIK OLAM TURLI SISTEMATIK GURUHLARI O'RTASIDAGI FILOGENETIK BOG'LANISHLARNI O'RGANISHGA QARATILGAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi. O'simlik va hayvonot dunyosining turli sistematik guruhlari o'rtasidagi filogenetik munosabatlarni o'rganishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi bilan tanishish;

Mashg'ulot davomida talaba:

1) o'simlik va hayvonot dunyosining turli sistematik guruhlari o'rtasidagi filogenetik bog'lanshlardagi qonuniyatlarni anglagan holda laboratoriya mashg'ulotining maqsadi va borish tartibini aniqlashtirishi;

2) o'quvchilarda molekulyarbiologiya, sitologiya, embriologiya, solishtirma anatomiya, paleontologiya fanlari dalillari orqali turli sistematik guruhlar o'rtasidagi filogenetik bog'lanshlarni aniqlash ko'nikma va malakalarini shakllantira olishi;

3) o'simliklar va hayvonlar organlari sistemalari filogenezidaro'y bergan evolyutsion o'zgarishlarni ta'riflash, tushuntirish va izohlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarish metodlarini bilishi va qo'llay olishi lozim.

Zarur jihozlar va qurollar. Biologiya darsligi, o'quv dastur, DTS, laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar.

Laboratoriya mashg'ulotining borishi. Izoh: talabalar kichik guruhlarga bo'linib, har bir guruh mustaqil ravishda mavzu yuzasidan ishlaydi.

1. Biologiya o'quv fani dasturidan o'simlik va hayvonot dunyosi sistematikasi, evolyutsiya dalillari, organik olam filogenezinining organizmlar individual rivojlanishi – ontogenet bilan aloqadorligi, o'simliklar va hayvonlar evolyutsiyasini o'rganishga qaratilgan

mavzularni aniqlang va ushbu mavzular mazmunini tahlil qiling.

2. Mazkur mavzularni o'qitishda o'quvchilarda shakllantiriladigan tushunchalar va ularning mohiyatini aniqlang.
3. 1-ilovadagi laboratoriya mashg'uloti mazmunini tahlil qiling.
4. O'simlik va hayvonot dunyosining turli sistematik guruhlari o'rtasidagi filogenetik bog'lanishlardagi qonuniyatlar bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalari va fanga doir xususiy kompetentsiyalarni nazorat qilish va baholash maqsadida murakkablik darajasi turlicha bo'lgan standart o'quv topshiriqlarini ishlab chiqing.

1-ilova

HAYVONOT DUNYOSINING TURLI SISTEMATIK GURUHLARI O'RTASIDAGI FILOGENETIK MUNOSABATLARNI O'RGANISH

Mashg'ulot maqsadi. Hayvonot dunyosining turli sistematik guruhlari o'rtasidagi filogenetik munosabatlarni aniqlash orqali hayvonlar evolyutsiyasini o'rganish.

Ishning borishi.

1- topshiriq. Jadvalda berilgan hayvonlarning ajdodlarini aniqlang.

Nº	Hayvonlar	Ajdodi
1	Bo'shilqichlilar tipi	
2	Yassi chuvalchanglar tipi	
3	To'garak chuvalchanglar tipi	
4	Halqali chuvalchanglar tipi	
5	Kam tukli halqali chuvalchanglar sinfi	
6	Zuluklar sinfi	
7	Mollyuskalar tipi	
8	Bo'g'imoyoqlilar tipi	
9	Qisqichbaqsimonlar sinfi	
10	O'rgimchaksimonlar sinfi	

2-topshiriq. Organizmlar uchun xos bo'lgan aromorfoz va idioadaptatsiyalarni ko'rsating.

Organizmlar	Aromorfozlar	Idioadaptatsiyalar
Baliqlar		
Suvda hamda quruqda yashovchilar		
Sudralib yuruvchilar		
Qushlar		
Sutemizuvchilar		

3-topshiriq. Organizmlar uchun xos bo'lgan aromorfoz va idioadaptatsiyalarni ko'rsating.

Organizmlar	Aromorfozlar	Idioadaptatsiyalar
Yo'sinlar		
Qirqquloqlar		
Qirqbo'g'imir		
Ochiq urug'tilar		
Yopiq urug'tilar		

4-topshiriq. Jadvalda berilgan sistematik guruhlarning Yerda paydo bo'lgan era va davrlarni yozing.

	Organizmlar	Era	Davr
1	Bo'shilqichlilar tipi		
2	Yassi chuvalchanglar tipi		
3	To'garak chuvalchanglar tipi		
4	Halqali chuvalchanglar tipi		
5	Kam tukli halqali chuvalchanglar sinfi		
6	Zuluklar sinfi		
7	Mollyuskalar tipi		
8	Bo'g'imoyoqlilar tipi		
9	Qisqichbaqsimonlar sinfi		
10	O'rgimchaksimonlar sinfi		

5-topshiriq. Jadvalda berilgan sistematik guruhlarning Yerda paydo bo‘lgan era va davrlarni yozing.

Organizmalar	Era	Davr
1. Suvo‘tlar		
2. Yo‘sinlar		
3. Qirqquloqlar		
4. Qirqbo‘g‘imlar		
5. Ochiq urug‘lilar		
6. Yopiq urug‘lilar		

Laboratoriya mashg‘uloti davomidagi o‘quv faoliyatingizni 5 balli tizimda baholang. Yo‘l qo‘yilgan kamchilik va xatolaringizni aniqlang.

25 - LABORATORIYA MASHG‘ULOTI VIRTUAL LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Laboratoriya mashg‘ulotining maqsadi. Virtual laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasi bilan tanishish;

Mashg‘ulot davomida talaba:

1) virtual laboratoriyalarni yaratishning maqsadlari, vazifalari, virtual laboratoriylarning imkoniyatlarini o‘rganishi;

2) virtual laboratoriylarning tarkibiy qismlarini aniqlashi;

3) virtual laboratoriylar yordamida o‘quvchilarning kuzatish hamda tajriba o‘tkazish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish orqali o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarish metodlarini bilishi va qo‘llay olishi lozim.

Zarur jihozlar va qurollar. Biologiya darsligi, o‘quv dastur, DTS.

Laboratoriya mashg‘ulotining borishi. Izoh: talabalar kichik guruhlarga bo‘linib, har bir guruh mustaqil ravishda mavzu yuzasidan ishlaydi.

1. Virtual laboratoriyalarni yaratishning maqsadlari, vazifalari, virtual laboratoriylarning imkoniyatlarini o‘rganing.

2. Virtual laboratoriylarning tarkibiy qismlari (kontent, stsenariy, modellar)ni aniq ma’lumotlarini o‘rganing.

3. Tabiiy ob‘ektlar bilan o‘tkaziladigan an‘anaviy laboratoriya va virtual laboratoriya mashg‘ulotlarini qiyosiy taqqoslang.

4. Tabiiy ob‘ektlar bilan o‘tkaziladigan laboratoriya va virtual laboratoriya mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilarda tarkib toptiriladigan ko‘nikma va malakalarni aniqlang.

5. O‘rganilgan an‘anaviy laboratoriya va virtual laboratoriya mashg‘ulotlari yuzasidan ma’lumotlarni quyidagi jadvalda ifodalang.

q\s	Qiyoslanadigan jihatlar	An‘anaviy laboratoriya mashg‘uloti	Virtual laboratoriya
1.	Didaktik maqsadlar		
2.	Mavzu va uning mazmuni		
3.	O‘quvchilarda tarkib toptiriladigan ko‘nikma va malakalar		
4.	O‘quv jihozlari va tarqatma materiallar		
5.	O‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish		
6.	Nazorat va o‘z-o‘zini nazoratni amalga oshirish shakli		
7.	Mashg‘ulot samaradorligi		
8.	O‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini orttirish imkoniyati		
9.	O‘tkazish uchun kerakli sharoit		
10.	Xulosa		

6. Laboratoriya mashg‘uloti yuzasidan xulosa yasang. Fikringizni metodik jihatdan asoslang.

26- LABORATORIYA MASHG‘ULOTI BIOLOGIYANI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI.

Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi: Umumiy o'rta ta'lif maktablarida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish metodikasi bilan tanishish.

Mashg'ulot davomida talaba:

- 1) umumiy o'rta ta'lif maktablarining o'quv fanidan amaliy ko'nikmalarini farqlay olishi;
 - 2) biologiya o'qitishda o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish yo'llarini tarkib toptirish ko'nikmalarga ega bo'lishi;
 - 3) o'quvchilarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish orqali, o'quvchilarda bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarish ko'nikmalarini egallashi;
 - 4) biologiya o'qitishda o'quvchilarda o'quv munozaralari, bahslar, fikrlarni asoslash, o'z-o'zini baholash, o'zaro nazorat qilish orqali bilimlarini amaliyotga qo'llay olish ko'nikmalarini tarkib toptirish ko'nikmalarga ega bo'lishi;
 - 5) biologiya o'quv fanidan mustaqil ishlarini samarali tashkil etish orqali ta'lif mazmuni, metodlari va vositalaridan uyg'un ravishda foydalanish ko'nikmalarga ega bo'lishi;
 - 6) dialog, polilog o'quv muloqotlarini o'rgata olish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
 - 7) o'quvchilar jamoasida ilmiy faoliyatni tashkil etish bosqichlarini o'rgata olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim;
- Laboratoriya mashg'ulotida foydalaniladigan jihozlar va qurollar.** Biologiya darsliklari, dastur, DTS, amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar.
- Laboratoriya mashg'ulotida foydalaniladigan pedagogik texnologiya.** Muammoli ta'lif texnologiyasining kichik guruhlarda hamkorlikda ishslash metodi va mustaqil ishslash metodlari.

Laboratoriya mashg'ulotining borishi.

Tashkiliy qism.

1. Talabalarni laboratoriya mashg'ulotining maqsadi, borishi, mustaqil bajariladigan o'quv topshiriqlari bilan tanishtirish. Izoh: talabalar kichik guruhlarga bo'linib, har bir guruh mustaqil ravishda mavzu tanlaydi.

2. Laboratoriya mashg'ulotlarni tashkil qilish orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish yo'llarini tarkib toptirish ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim.

3. Mustaqil ishlarini samarali tashkil etish orqali, o'quvchilarda bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarish ko'nikmalarni hosil qilish.

4. Mustaqil ishlarini tashkil qilish orqali o'quvchilar jamoasida ilmiy faoliyatni tashkil etish bosqichlarini o'rgata olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim.

Biologik ta'lif mazmunining tarkib toptirish uchun avvalo o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini tarkib toptirish lozim. Fikr inson faoliyati, uning o'z kuchi, qudrati va bilimini tashkil etuvchi ma'nnaviy-insoniylar sifatidir. Fikr rivoji ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lganligi uchun, biologiyani o'qitish jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur.

Biologiyani o'qitishda o'qituvchi o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun avvalo:

1) o'quvchilarning darsda mustaqil ishslashlari uchun o'quv topshiriqlarini tuzishi, biologik ob'ektlar, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarni o'rganish maqsadida tajriba va kuzatish o'tkazish yuzasidan ko'rsatmalar tayyorlashi;

2) o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning mustaqil ta'limi uchun qo'shimcha adabiyotlar va multimedialarni tanlashi lozim.

O'quvchilarning mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun, ta'lif-tarbiya jarayonining asosini o'quvchilarning o'quv topshiriqlarini bajarish orqali vujudga keltiriladigan mustaqil faoliyat tashkil etadi.

O'quvchilarning aqliy rivojlanishiga zamin tayyorlab, bu jarayonda tanqidiy va ijodiy fikr yuritishni shakllantirish ustuvor yo'nalish sanaladi. Fikr yuritishning bu ikki tipi bir-birini to'ldiradi va taqozo etadi.

O'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil qilish orqali

o'quvchilar jamoasida tanqidiy fikr yuritish shaxsning voqeasi va hodisalar haqidagi munosabati va fikrini vujudga keltirib, uning tarkibiga quyidagilar kiradi:


1. Tahliliy fikr yuritish (axborotni tahlil qilish, zarur faktlarni tanlash, taqqoslash, faktlar va hodisalarni chog'ishtirish). O'quvchilarda tahliliy fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish uchun biologiya o'qituvchisi har bir darsda avval o'rganilayotgan ob'ektlar bilan o'rganilgan ob'ekt o'rtaсидаги bog'lanishlarni aniqlaydigan topshiriqlarni berishi kerak.

Jumladan, «Daryo qisqichbaqasining ichki tuzilishi» mavzusini o'rganganda o'quvchilarni kichik guruhlarga ajratib, ularga o'quv topshiriqlari bilan bir qatorda quyidagi jadvalni to'ldirish tavsiya etiladi:

Organlar sistemasi	Oq planariya	Yomg'ir chuvalchangi	Suv shillig'i	Daryo qisqichbaqasi
Tana bo'shlig'i Hazm qilishi Qon aylanishi. Nafas olishi Ayirishi. Nerv sistemasi Sezgi organlari Ko'payishi				

O'quvchilar darslikda berilgan o'quv axborotini tahlil qiladi, organlar sistemasi haqidagi faktlarni tanlaydi, ularni avvalgi ob'ektlar bilan taqqoslab, xulosa chiqaradi. Demak, daryo qichqichbaqasining ichki tuzilishini tahlil qilib, avval o'rganilgan oq planariya, yomg'ir chuvalchangi, suv shillig'i bilan taqqoslab o'rganadi. O'quv materiallarining bu tarzda o'rganilishi o'quvchilarda tahliliy fikr yuritish ko'nikmalarining tarkib toptirishga zamin tayyorlaydi.

Topshiriqning didaktik maqsadi: Organizmlarning tuzilishi o'rtaсидаги bog'lanishlarni aniqlash.



2. Bog'lanishli (assotsiativ) fikr yuritish (avval o'rganilgan bilimlar, faktlar orasidagi bog'lanishlarni aniqlash, tanish ob'ekt va hodisalarning yangi xususiyatlari va sifatlarini topish).

Bog'lanishli fikr yuritish o'quvchilarning avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini kutilmagan, noodatiy vaziyatlarda qo'llab yangi bilim va ko'nimalarni o'zlashtirishlariga zamin tayyorlaydi.

O'qituvchi «Organik olam evolyutsiyasining yo'nalishlari» mavzusini o'rganishda o'quvchilarning biologiya va zoologiya o'quv fanlaridan o'zlashtirgan bilimlarini faollashtirish maqsadida ularga o'quv topshiriqlari bilan birga quyidagi jadvalni to'ldirish tavsiya etadi.

1. Qirqulloqlar, ochiq urug'lilar va yopiq urug'lilarning tuzilishini taqqoslang. Ularning tuzilishidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlang

Taqqoslanadigan			
Jihatlar			
Hayotiy shakli			

Ildizi			
Poyasi			
Bargi			
Ko'payish organlari			

2. Suvda hamda quruqlikda yashovchilar, sudralib yuruvchilar va qushlarning tuzilishini taqqoslang. Ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlang.

Taqqoslanadigan jihatlar			
Tana qoplami Xazm qilishi Qon aylanishi Yuragi. Nafas olishi. Ayirishi. Nerv sistemasi. Sezgi organlari. Ko'payishi.			

2. Nima sababdan qushlarning hayvonot olamida hukmronligini aniqlang.

O'quvchilar ushbu topshiriqlarni bajarib bo'lganlaridan so'ng, o'qituvchi biologik progress, aramorfoz, idioadaptatsiya, umumiy degeneratsiya haqida ma'lumot beradi va o'quvchilarga misol keltirishni tavsija etadi. O'quvchilar o'zlari to'ldirgan jadvaldan foydalanib yopiq urug'lilar va qushlardagi aramorfozlarni aniqlaydi. Shu tarzda o'quvchilarda bog'lanishli fikr yuritish ko'nikmalar shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

3.Mustaqil fikr yuritish (muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, farazlarni ilgari surish, avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi vaziyatlarda qo'llab, yangi bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, o'z fikrini dalillash).

Mustaqil fikr yuritish shaxs hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli biologiyani o'qitishning barcha shakllarida, o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga ahamiyat berish zarur.

Mustaqil fikr yuritish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- 1.Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish.
- 2.Farazlarni ilgari surish.
- 3.Avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi vaziyatlarda qo'llab, yangi bilim, ko'nikma va malakalarni egallash.
- 4.O'z fikrini dalillash.
- 5.Javobning to'g'rilingini tekshirib ko'rish.

O'quvchilarda mustaqil fikr yuritishni rivojlantirish uchun o'qituvchi har bir mavzuni o'rganishda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishi va o'quvchilarning bilish faoliyatini muammoli vaziyatlarni hal qilishga yo'llashi lozim.

Masalan, «Bir urug' pallalilar. Loladoshlar oilasi» mavzusini o'rganishda muammoli vaziyat vujudga keltirilib, o'quvchilarning ikki pallalilar sinfi oilalarini o'rganishda o'zlashtirgan bilimlarini yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llashiga imkon yaratishi lozim.

4.Mantiqiy fikr yuritish (muammoni hal etishning ichki va tashqi mantiqini hisobga olgan holda mantiqan dalillash, usullarning mantiqan ketma-ketligini aniqlash). Mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:


1. Muammoli vaziyatni anglash, uni hal etish yo'llarini aniqlash.
2. Muammoni hal etishning ichki va tashqi mantiqini hisobga olgan holda mantiqan dalillash.
3. Muammoni hal etish usullarining mantiqan ketma-ketligini aniqlash.
4. O'z javoblarining to'g'rilingini dallillash va javobning to'g'rilingini tekshirib ko'rish.

5.Tizimli fikr yuritish (o'rganilgan ob'ektni qismlarga ajratish, uning yaxlitligini, o'zaro bog'liqligini aniqlash va tavsiflash ko'nikmasi).

Tizimli fikr yuritish o'quvchilarning o'rganilayotgan ob'ektni qismlarga ajratish, uning yaxlitligini, o'zaro bog'liqligini aniqlash va tavsiflash ko'nikmalarini rivojlantirishga asoslanadi.

O'qituvchi o'quvchilarda tizimli fikr yuritishni rivojlantirish uchun muayyan mavzularda o'quvchilarning mustaqil ishlarni tashkil etishi va tegishli o'quv topshiriqlarini tuzishi lozim. Jumladan, «Hujayraning tuzilishi va funksiyasi» mavzusida o'quvchilarga quyidagi o'quv topshiriqlarini tavsiya etish maqsadga muvofiq.

Topshiriqning didaktik maqsadi: Hujayraning tuzilishi va funksiyalarini o'rganish orqali, hujayraning yaxlit tizim ekanligi, organoidlarning tuzilishi va funksiyasi, ular o'rtaсидаги bog'lanishlarni aniqlash.

Hujayra organoidlari	Tuzilishi	Funksiyasi
		
		
		
		

Shunday qilib, tanqidiy fikr yuritish tahliliy, bog'lanishli, mustaqil, mantiqiy, tizimli fikr yuritishni mujassamlashtirib ular o'rtaсида ichki va tashqi, muayyan va nisbiy bog'lanishlar mavjud.

O'quvchilarda, mustaqil ishlarni rivojlantirishda o'qituvchi yuqorida qayd etilgan tahliliy fikr yuritishning tarkibiy qismlaridan, xususan, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalaridan foydalanishi mumkin. Shuni qayd etish kerakki, o'quvchilarda nomlari zikr etilgan fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirmay turib mustaqil ishslash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish mumkin emas.

O'quvchilar mustaqil ishlarning asosini tashkil etadigan xususiyatlar:

1. Tanish ob'ektlarning yangi xususiyatlari va vazifalarini topishi;
2. Tanish vaziyatlardagi muammolarni mustaqil ravishda hal etish;
3. Bilim va ko'nikmalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llash orqali muammoni hal etish;
4. O'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda ijodiy qo'llashga o'rganishi mumkin.

O'quvchilarda mustaqil ishslash ko'nikmalarini rivojlantirishning muhim sharti, o'quvchilarning o'z fikrlarini dalillash va asoslash sanaladi. Shu sababli, o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini asosan, o'quv munozaralari va bahslar orqali rivojlantiriladi.

O'quv munozaralari va bahslarni tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

1. O'quv munozaralari va bahslarni keltirib chiqaradigan o'quv topshiriqlari bilan tanishish.
2. O'quv topshiriqlaridagi muammolarni hal etish yo'llarini belgilash;
3. Axborot manbai yoki darsliklardagi o'quv materialini o'rganish, tahlil qilish va undagi asosiy g'oyani ajratish;
4. Muammolarni hal etish bo'yicha javoblarni tayyorlash;
5. Javoblarni ko'rgazmali vositalar yordamida dalillash;
6. Javoblarning to'g'riligini tekshirib ko'rish, o'z-o'zini nazorat

qilish, o'zaro nazoratni amalga oshirish

O'quv munozaralarining ikki turi mayjud, agar ikki o'quvchi o'zaro hamkorlikda yoki o'quvchining kompyuter bilan muloqoti tashkil etilsa, bu dialog tarzdagi munozara, agar munozara o'quvchilarning kichik guruhlardagi mustaqil ishi asosida tashkil etilsa polilog tarzdagi muloqot sanaladi.

O'qituvchi darsda o'rganiladigan mavzuning didaktik maqsadidan kelib chiqqan holda qay tarzdagi munozarani tashkil etishni nazarda tutib tegishli o'quv topshiriqlarni tayyorlaydi. Har qanday o'quv munozaralari ilmiy faoliyatni asosida tashkil etiladi. Ijodiy izlanishlar quyidagi bosqichlarda tashkil etilishi maqsadga muvofiq:

1. Ilmiy faoliyat maqsadini aniqlash, mazkur maqsadiga muvofiq mustaqil ishlarni tashkil etish, guruh a'zolari o'rtasida fikr va axborot almashinuvini amalga oshirish;
2. Olingen natijalarni tasavvur qilish va uni loyihalash;
3. Maqsadni amalga oshganligi va olingen natijani tahlil qilish;
4. Zarur hollarda tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

TALABALARING BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH UCHUN O'QUV TOPSHIRIQLARI

1.O'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantirish yo'llarini o'rganing.

2.Biologiyani o'qitishda o'quv munozaralari, bahslar o'tkazish usullarini o'rganing.

3.O'quvchilarda o'quv munozaralari va bahslarda ishtirok etish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarini shakllantirish yo'llarini o'rganing.

4. O'quvchilarda fikrlarini asoslash, o'z-o'zini baholash, o'zaro nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish yo'llarini o'rganing.

5. Biologiyani o'qitishda dialog, polilog o'quv muloqotlarini o'tkazish yo'llarini o'rganing.

6. O'quvchilar jamoasida ilmiy faoliyatni tashkil etish bosqichlarini aniqlang.

7. Bir urug' pallali o'simliklar, loladoshlar oilasining o'ziga xos xususiyatlari, oilaning yovvoyi va madaniy vakillarining ahamiyatini o'rganish.

Nº	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan materiallar yuzasidan o'quv topshiriqlari	Topshiriqni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar
1.	Darslikdagi matnni diqqat bilan o'qib quyidagi savollarga javob toping va topshiriqlarni bajaring: Bir urug' pallali o'simliklarning o'ziga xos xususiyatlari va unga qaysi ojolar mansubligini aniqlang.	O'quvchilar guruhiga bilan hamkorlikda ishlang.
2.	Loladoshlar oilasi vakillarining gul tuzilishi va formulasini o'rganing.	
3.	Loloning gulini olma guli bilan taqpos-lang. O'xshashlik va farqlarini aniqlang.	
4.	Loloning tuzilishini na'matakning tuzilishi bilan taqposlang va quyidagi jadvalni to'ldiring.	O'quvchilar bilan o'tkaziladigan savol-javobda faol ishtiroy eting.

Taqposlanadigan jihatlar		
Hayotiy shakli		
Ildizi, poyasi, bargi		
Gul formulasi		
Gulqo'rg'oni		
Changlanish turi		
Mevasi		

27 - LABORATORIYA MASHG'ULOTI

BIOLOGIYADAN YOSH BIOOGLAR TO'GARAK MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi: Talabalarni umumiy o'rta ta'lif muktabalarining biologiya o'quv fanini o'qitishda to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi bilan tanishish;

Mashg'ulot davomida talaba:

- Umumiy o'rta ta'lif muktabalarining biologiya o'quv fanidan amaliy ko'nikmalarini farqlay olish;
- biologiya o'qitishda to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish orqali amaliy ko'nikmalarini tarkib toptirish usullarini tanlay olish;
- to'garak mashg'ulotlarini ta'lif-tarbiya jarayonida tutgan o'rni aniqlay olish;
- biologiyadan to'garak mashg'ulotlarining maqsad va vazifalari orqali amaliy ko'nikmalarini tarkib toptirish usullarini tanlay olish;
- biologiyadan „Yosh biologlar to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish;
- to'garak mashg'ulotlarini o'tkazishga tayyorgarlik ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Laboratoriya mashg'ulotida foydalaniladigan jihozlar va qurollar: biologiya darsliklari, dastur, DTS, to'garak mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur jihozlar

Laboratoriya mashg'ulotida foydalaniladigan pedagogik texnologiya: Muammoli ta'lif texnologiyasining kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash metodi.

Laboratoriya mashg'ulotining borishi:

Tashkiliy qism.

1. Talabalarni laboratoriya mashg'ulotining maqsadi, borishi, mustaqil bajariladigan o'quv topshiriqlari bilan tanishtirish. Izoh: talabalar kichik guruhlarga bo'linib, har bir guruh mustaqil ravishda mavzu tanlaydi.

2. Talabalar to'garak mashg'ulotlarining ta'lif-tarbiya

jarayonida tutgan o'rni va ishlarni tashkil qilishni o'rganadi.

3. Talabalar to'garak mashg'ulotlarining maqsad va vazifalari orqali amaliy ko'nikmalarini tarkib toptirish usullarini tanlay olishni o'rganadi;

4. Talabalar to'garak mashg'ulotlarining o'tkazish orqali amaliy ko'nikmalarini tarkib toptirish usullarini tanlay olishi;

5. Talabalarning to'garak mashg'ulotlariga tayyorgarligi orqali amaliy ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim;

Biologiya fanidan to'garak ishi davomida o'quvchilar nazariy va amaliy xarakterdag'i muammolarni hal qilishadi, keng kognitiv amaliy faoliyat olib borishadi. To'garak ishi maktab o'quvchilarining biologik bilimlarini kengaytiradi, tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'simliklar va hayvonlarni kuzatish, tahlil qilish, olingan dalillarni umumlashtirish va olingan bilimlarni to'ldirishga imkon beradi. To'garak a'zolarining vazifasi o'qituvchiga laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni tayyorlashda yordam berish; ommaviy biologik tadbirdarda ishtiroy etish; tabiat ob'ektlarini, yovvoyi tabiat burchagini boyitishdan iborat.

To'garakning umumiy yo'nalishini biologiya o'qituvchisi olib boradi va to'garakning turli guruhlari tabiatni o'rganishda faol ishtiroy etadilar. O'qituvchi va guruh rahbarlari to'garak ishlarni rejalashtiradilar, o'quv yiliga ish rejasini tuzadilar. Haftada bir marta yig'iladi. Ishchi guruh mavzulari bilan bog'liq nazariy va amaliy masalalarni muhokama qiladi.

To'garak ishlarni tashkil etish jarayonida amalga oshiriladigan ishlar doirasida to'garak rahbari:

- to'garak ishlarni tashkil etishi;
- to'garak ishlari maqsadi, mazmuni va vazifalarini belgilashi;
- to'garak turlari, dastur mazmuni belgilashi;
- fanini o'zlashtirish natijasida to'garak ishlarning umumta'lif fanlari bilan aloqasini aniqlashi;
- to'garak ishlari mazmunining ishlab chiqarish bilan bog'liqligi aniqlashi;

- mehnat ta'limi va to'garak ishlaringin uzviyligini ta'minlashi;
- to'garak ishlariining rivojlanish istiqbollari belgilashi;
- to'garak mashg'ulotlarni xavfsizlik qoidalarini ishlab chiqishi;
- to'garak ishlarida yuritiladigan hujjatlarini rejalashtirishi;
- sodda modellashtirishga oid ishlarni bajarishi;
- sodda konstrukturlik ishlarini bajarishi;
- to'garak ishlari darslarini tashkil etish bilan bog'liq barcha hujjatlarni tayyorlashi;
- o'quvchilar bilimini rag'batlantirishi;
- mashg'ulotlarda mahalliy, tabiiy materiallardan foydalanishi;
- mashg'ulotlarni tahlil qilishi;
- mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazish ko'nkmalariga ega bo'lishi lozim.

To'garak dasturi biologiya fanlari bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlarni qamrab oladi va umumta'lim maktabining asosiy o'quv dasturiga qo'shimcha hisoblanadi. Dasturning yangiligi va dolzarbli amaliy faoliyatga tayanib, atrof-muhitning xususiyatlarini hisobga olgan holda biologik va ekologik bilimlarni to'ldirish va chuqurlashtirishga qaratilgan turli xil ishlarni birlashtirishdan iborat. To'garak mashg'ulotlari davomida o'quvchilar tabiat haqidagi bilimlarini kengaytirish, biologiya sohasidagi qobiliyatlarini namoyish etishga imkoniyatiga ega bo'lishadi. O'quvchilarning qiziqishlari ko'pincha juda tor, o'simliklarni yig'ish, individual hayvonlarga havaskorona munosabat bilan chegaralanadi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarning qiziqishini kengaytirish, ilmni sevadigan, tabiatni o'rganishni biladigan bilimli insonni tarbiyalashdir.

Biologiyadan to'garak mashg'ulotlari davomida o'quvchilar bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazadilar, darslarda olingan bilimlarni sezilarli darajada kengaytiradilar, tushunadilar va chuqurlashtiradilar. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida biologik hodisalarni

kuzatish va eksperimenidan foydalanish, tajribalar o'tkazish, o'simliklarni o'stirish, hayvonlarga g'amxo'rlik qilish va qo'shimcha adabiyotlarni o'qish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

"Yosh biologlar" to'garagi darsdan tashqari ishlarning asosiy shaklidir. To'garak mashg'ulotlari yil bo'yi va hatto bir necha yil davomida ularni mutazam ravishda mifik maktab o'quvchilarini birlashtiradi. To'garak tarkibi barqaror va bir xil sinfdagi yoki parallel sinf o'quvchilarini, shuningdek o'quv yillarda farq qiladigan o'quvchilarini o'z ichiga olishi mumkin. Ko'pincha o'quvchilar o'zlarining qiziqishlariga ko'ra bir davrada birlashadilar

Odatda maktablarda 5-11-sinf o'quvchilar uchun to'garaklar mavjud (masalan, "Tabiatni sevuvchilar", "Yosh biologlar", "Anatomiya klubi" va boshqalar). To'garak a'zolari soni 25 kishi. To'garakda mavjud qiziqishlarga muvofiq ishchi guruhlar tuzilishi mumkin. Masalan: fenologlar, zoologlar, botaniklar, floristlar, ornitologlar, tuproqshunoslar, etnograflar va boshqalar. To'garakning umumiy rahbarligini biologiya o'qituvchisi amalgalashadi va o'quv yili uchun ish rejasi tuziladi. To'garakning yig'ilishlarning birida to'garak nizomi to'garak a'zolari tomonidan ishlab chiqilib qabul qilinadi. O'quvchilarning yoshiga va soniga qarab "Yosh biologlar" to'garagini bo'lish mumkin.

To'garak ishi doirasida o'quvchilarning ilmiy-tadqiqot va loyihibiy faoliyati tashkillashtirilishi mumkin. Yuqoridaqilardan kelib chiqqan holda biologiyada darsdan tashqari mashg'ulotlarning to'rtta turini ajratib ko'rsatish to'g'ri bo'лади:

- 1) individual;
- 2) guruh (vaqtinchalik guruhlar);
- 3) guruh doirasi;
- 4) jamoaviy.

Sinfdan tashqari ishlarning individual shakli biologiya fanini yaxshi ko'radigan individual o'quvchilarning ehtiyojlarini qondiradi. O'qituvchi ularga ommabop ilmiy adabiyotlarni tavsiya qiladi, tabiatda kuzatuvlar o'tkazishni, uydakor qurollar tayyorlashni taklif qiladi. O'qituvchi ular uchun ijodiy maqsadlar qo'ysa, ushbu darsdan

tashqari ishlarni to‘g‘ri yo‘naltirsa va o‘quvchilarni maktab o‘quv dasturining qat‘iy doirasiga jalg qilmasa, maktab o‘quvchilarining qiziquvchanligi qondirilishi mumkin. Bunday o‘quvchilar uchun o‘qituvchi uyda tajriba o‘tkazish bo‘yicha ko‘rsatmalar beradi. Shaxsiy darsdan tashqari mashg‘ulotlar - bu uydagи va maktabdan tashqari ishlarning ixtiyoriy turi hisoblanadi.

TALABALARING BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH UCHUN O‘QUV TOPSHIRIQLARI

1. To‘garak mashg‘ulotlarining ta’lim-tarbiya jarayonida tutgan o‘rni aniqlang.

	Ta’lim jarayonida tutgan o‘rni	Tarbiya jarayonida tutgan o‘rni
“Yosh biologlar” to‘g‘aragi		

2. To‘garak mashg‘ulotlarining maqsad va vazifalarini aniqlang.
3. To‘garak mashg‘ulotlarining o‘tkazish metodikasini gapirib bering.
4. To‘garak mashg‘ulotlarining o‘tkazish vaqtida foydalanish lozim bo‘lgan ko‘rsatmalarning mohiyatini gapirib bering.
5. O‘quvchining mashg‘ulotlariga tayyorgarligini o‘rganing.
6. To‘garaklarning o‘qitishning boshqa shakllari bilan uzviy bog‘liqligini o‘rganing.
7. “Yosh biologlar” to‘garaginiq ish rejasi tuzing.

28- 29 - LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARI

BIOLOGIYA DARSALARIDA FOYDALANILADIGAN KO‘RGAZMALI VA DIDAKTIK VOSITALAR. BIOLOGIYA DARSALARIDA MULTIMEDIA, O‘QUV KINOFILMLARI, NAZORAT DASTURLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Laboratoriya mashg‘ulotining maqsadi: biologiya o‘qitishda o‘quvchilarda ko‘rgazmali va didaktik vositalar, multimedia, o‘quv

kinofilmlari, nazorat dasturlaridan foydalanish metodikasi bilan tanishish;

Mashg‘ulot davomida talaba:

- biologiya o‘quv fanidan ko‘rgazmali va didaktik vositalarlari farqlay olishi;
- biologiya o‘qitishda o‘quvchilarda ko‘rgazmali va didaktik vositalar, multimedia, o‘quv kinofilmlari, nazorat dasturlaridan foydalanishni tarkib toptirish orqali o‘quvchilarining mustaqil ishlarni samarali tashkil etish, o‘quvchilarda bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarish ko‘nikmalarini egallashi;
- biologiya o‘qitishda ko‘rgazmali va didaktik vositalar, multimedia, o‘quv kinofilmlari, nazorat dasturlaridan foydalanish ko‘nikmalarini egallashi lozim.

Laboratoriya mashg‘ulotida foydalaniladigan jihozlar va qurollar: biologiya darsliklari, dastur, DTS, ko‘rgazmali va didaktik vositalar, multimedia, o‘quv kinofilmlari, nazorat dasturlari.

Laboratoriya mashg‘ulotida foydalaniladigan texnologiya: Modulli ta’lim texnologiyasining kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash metodi.

Laboratoriya mashg‘ulotining borishi:

Izoh: talabalar kichik guruhlarga bo‘linib, har bir guruh mustaqil ravishda mavzu tanlaydi.

1. Biologiya o‘quv fanidan ko‘rgazmali va didaktik vositalarlari farqlay oladi;

2. Biologiya o‘qitishda o‘quvchilarda ko‘rgazmali va didaktik vositalar, multimedia, o‘quv kinofilmlari, nazorat dasturlaridan foydalanishni tarkib toptirish orqali o‘quvchilarining mustaqil ishlarni samarali tashkil etish, o‘quvchilarda bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarish ko‘nikmalarini egallyadi;

3. Biologiya o‘qitishda ko‘rgazmali va didaktik vositalar, multimedia, o‘quv kinofilmlari, nazorat dasturlaridan foydalanish ko‘nikmalarini egallyadi.

Laboratoriya mashg‘ulotini yakunlash.

O‘qitish vositalari - ta’lim-tarbiya jarayonining maqsadi va

vazifalari, o'rganiladigan mavzu mazmuniga muvofiq, o'qituvchi tomonidan mazkur jarayonning samaradorligini orttirish maqsadida qo'llaniladigan vositalar sanaladi.

O'qituvchi darsda o'rganiladigan mavzu mazmunini to'la yoritadigan o'qitish vositalarini unga muvofiq esa, o'qitish metodlarini tanlaydi, shu asosda darsda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi va boshqaradi.

O'rganiladigan mavzu mazmunini bevosita idrok qilish mumkin bo'lgan narsalar asosida olib boriladigan ta'lim ko'rgazmali ta'lim deb ataladi.

Ko'rgazmali ta'lim uzoq tarixga ega, chunki tabiatshunoslikni o'qitishning dastlabki davrida ko'rgazma vositalaridan faqat tabiiy materiallardan foydalanilganligi sizga ma'lum. O'qitish vositalari mamlakatda ta'limni tubdan isloh qilish printsiplari, fan-texnika, ishlab chiqarish rivojlangan sari ularning turlari ham ko'payib bordi. Demak, ta'lim muassasalarida o'qitish vositalarining turlari ham muayyan darajada o'zgarib, yangilanib boradi, yangi avlod o'qitish vositalari vujudga keladi.

O'qitish vositalarining yangi avlod guruhiga: kompyuter texnologiyasining ta'lim beruvchi, modellashtirilgan va nazorat dasturlari, slaydlar, multimedialarni kiritish mumkin.

O'quvchining asosiy vazifasi o'rganiladigan mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda eng yuqori samara beradigan o'qitish vositalarini tanlashi, buning uchun o'qitish vositalarining yangi avlodining turlari, ular bilan ishslash metodikasini egallagan bo'lishi darkor. O'qitish vositalarining ta'lim-tarbiya jarayonida quyidagi ahamiyati mavjud:

- o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirish
- moddiy olamni bilish
- olamni o'rganish metodlarini egallash
- kuzatish va tajriba qo'yish orqali ilmiy-tadqiqot olib borishiga zamin tayyorlaydi.

O'quvchilarda tushunchalarni shakllantirish jarayonining

samaradorligini orttirishda mazkur jarayonning barcha bosqichlari: o'quv materialini sezgi organlari orqali qabul qilish, idrok etish, tasavvur qilish, esda saqlash, amalda qo'llash va natijalarni tekshirishda foydalanish ko'zlangan natijani beradi.

O'quvchilarda ko'nikmalarni tarkib toptirish bosqichlarida o'qitish vositalari ham mazmun, ham ish quroli sifatida maydonga chiqadi.

Biologiyani o'qitishda o'qitish vositalari o'quvchilarning yangi bilimlar-ni egallashlarida, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, tizimga solish va umumlashtirishda – bilim manbai va bilimlarni o'zlashtirish omilidir. Shu sababli, o'qituvchi biologiyani o'qitishda foydalaniladigan o'qitish vositalari va ularning sistemasini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

Biologiyani o'qitish jarayonida tabiiy ko'rgazmali vositalar yetakchi o'rinni egallaydi va dars davomida tabiiy holda o'simliklar, hayvonlar, zamburug'lar, prokariot organizmlardan keng foydalanish tabiiy bir hol. Biologiyani o'qitishda faqat tabiiy ko'rgazma vositalaridan foydalanish ko'zlangan natijani bermaydi, shu sababli o'qitishda tasviriy ko'zgazmali vositalardan ham foydalaniladi.

O'rganilayotgan mavzu mazmunini yoritishga xizmat qiladigan ko'rgazmali vositalar yetarli bo'lgan taqdirdagina o'quvchi tabiatdagি narsa va hodisalarni o'zaro taqqoslashi, ulardagи o'xhashlik va tafovutlarni aniqlay olishi mumkin. Buning uchun o'qituvchi tarqatma didaktik materiallar tayyorlashi zarur.

Ko'rgazma vositalari yordamida o'quvchi o'rganilgan o'quv materialini analiz, sintez qilishi, abstraktsiyalash, konkretlashtirish, tizimga solish, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi aqliy operatsiyalarni amalga oshirishi mumkin.

O'qituvchi har bir o'qitish vositasining ta'lim-tarbiya jarayonidpa tutgan o'rni, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitish vositalarini tanlaydi.

Biologiya o'quv fanini o'qitish, o'quvchilarning o'smirlik davriga to'g'ri keladi. O'smirlik davrida bolalarni bilish faoliyatida ko'rgazmali vosita ustunlik qiladi. Shu sababli, o'qituvchi darsda

tabiiy, tasviriy, verbal ko'rgazma vositalarini uyg'unlashtirishi zarur.

Tabiiy ko'rgazma vositalari-mikropreparatlar, tirik yoki fiksirlangan o'simlik, hayvonlar ularning ayrim bo'laklari, kollektsiyalar tuluplar, gerbariylar, biosistemalar (to'qay, tog' oldi, yaylov cho'l) bo'lib, ular bilan o'quvchilar bevosita darsda yoki ekskursiya mobaynida tanishadilar. Tabiiy ko'rgazmali vositalar faqat ko'rish orqali emas, balki eshitish, xid, ta'm bilish organlari yordamida idrok qilinadi. Tabiiy ko'rgazmali vositalar o'rniga tasviriy ko'rgazmali vositalar ba'zan chunonchi hujayra, organizm ekosistemalar tuzilishi, moddalarning davriy aylanishiga oid tablitsalar, sxemalar, moddalar, foto suratlardan foydalaniladi. Kompyuter, multimedialar, tasviriy ko'rgazmali vositalarning alohida guruhi sanaladi.

Og'zaki yoki verbal vositalar – bular darsliklar, ilmiy-ommabop kitoblar, o'qituvchining so'zi, televideniya yoki kinokadrlardagi diktor matni, kompyuter dasturlari (videokadrlar, modellar), testlar, didaktik kartochkalardir.

Tabiiy yoki tasviriy vositalarni o'quvchi tomonidan idrok qilinishi, ular ustida kuzatish, o'tkazish yoki faoliyat harakati yordamida amalga oshadi.

O'quv materialini idrok etishda o'quvchining qanchalik ko'p sezgi organlari ishtirot etsa, uni o'zlashtirish shunchalik puxta bo'ladi.

Umumiy o'rtta ta'lim o'quv yurtlarida biologiyani o'qitishning barcha bosqichlarida ko'rgazmalilik ta'lim berish vositasi ekanligini unutmaslik kerak. Lekin «ko'rgazmalilik» atamasiga tabaqalashgan holda yondoshish kerak, chunki u har xil pedagogik tushunchalarni o'zida ifoda qiladi. Masalan, «ko'rgazmalilik printsipi», «ko'rgazmalilik o'qitish vositasi», «ko'rgazmali qurol» tushunchalarni farqlash kerak.

Ko'rgazmalilik printsipi deyilganda biologiyani o'qitish jarayonida o'qituvchi amal qiladigan didaktik printsip tushuniladi. Ko'rgazmalilik bir vaqtning o'zida sezish, mantiq, konkret, abstrak yo'li bilan bilishni o'zida birlashtirib abstrak tafakkurni rivojlanishiga yordam beradi va ko'p hollarda uning tayanchi hisoblanadi.

Ko'rgazmalik o'qitish vositasi sifatida o'quvchilardan statistik

va dinamik obrazlar hosil qilishga qaratilgan bo'ladi. Ko'rgazmali o'kitish vositasi o'z mazmuniga ko'ra ko'rgazmali qurol tushunchasiga yaqin, lekin hajmiga ko'ra unga nisbatan keng. Masalan barglarning suv bug'latishiga oid tajriba yoki teleko'rsatuvi, jadval ko'rgazma vositasi bo'lib hisoblanadi, lekin ko'rgazmali qurol sanalmaydi.

Ko'rgazmali qurol bu darsda o'qituvchi tomonidan qo'llanilgan konkret narsadir. U kollektiya, gerbariya, tirik o'simlik, hayvon, tablitsa, rasm, sxemalar shuningdek, mulyajlar diafilmlar, tarqatma material, didaktik kartochkalar shaklida bo'ladi.

O'rganilayotgan narsa va xodisalarning biologik mazmunini ifoda qiluvchi ko'rgazma quollar, o'qitishning asosiy vositalari, har xil asboblar chunonchi probirka, kolba, tarozi va shu kabilar yordamchi vositalar hisoblanadi.

O'qitish samaradorligini oshirishda amaliy mashg'ulot va namoyish qilinadigan tajribalarni o'tkazishga yordam beruvchi xususan mikroskop, lupa, shtativ, reaktivlar asboblar isituvchi asboblar, pintset, preparoval ninalar, o'qitishning texnik vositalari – kodoskoplar, televizorlar, kompyuterlar, ovoz yozuvchi va eshittiruvchi - apparatlar, magnitofonlar ham o'qitish vositalariga kiradi.

Texnik vositalari orasida audiovizual va boshqa tabiiy tasviriy vositalar shu bilan ustunlik qiladiki, ular o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarning barcha bosqichlarini izchillik bilan ko'rsata oladi. Teleko'rsatuvlardan biologiya o'qitishda foydalanish tirik tabiatdag'i voqe, hodisalarni sinda o'rganish sifatini bir necha marta oshirish imkonini beradi. O'qitish jarayonida kompyuterlarni qo'llash o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish va nazorat qilish imkonini tug'diradi.

Ko'rgazmali vositalardan biologiya o'qitishning barcha jarayonlarida, masalan yangi o'quv materialini tushuntirish, mustahkamlash, tushunchalarni shakllantirish, o'quv, amaliy, mehnat ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish, uy vazifasini bajarish, o'quv materilini nazorat qilishda qo'llaniladi.

TALABALARING BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH UCHUN O'QUV TOPSHIRIQLARI

- O'qitish vositalarning qanday ta'lif-tarbiyaviy ahamiyatibor?
- O'qitish vositalari sistemasiga nimalar kiradi?
- O'qitish vositalarining asosiy guruhiga nimalar kirishini aniqlang.
- O'qitish vositalarining yordamchi guruhiga nimalar kirishini aniqlang.
- Ko'rgazma vositalaridan biologiyani o'qitishning qaysi shakllarida foydalaniladi?
- Darsning qaysi bosqichlarida ko'rgazma vositalaridan foydalanishni aniqlang.
- Ko'rgazma vositalarining xillari va tasnifi.

Ko'rgazma vositalarining xillari	Ko'rgazma vositalarining tasnifi
Табиий кўргазмали воситалари	
Tasviriy ko'rgazmali vositalari;	
O'qitishning ovozli ekran vositalari;	

8. Quyida keltirilgan preparatlarga mos ta'riflarni belgilang.
- gerbariylar; 2) ho'l preparatlar; 3) morfologik preparatlar; 4) anatomik preparatlarda; 5) embriologik preparatlarda; 6) vaqtinchalik mikropreparatlar; 7) mulyajlar; 8) kollektsiyalar; 9) osteologik preparatlar.

o'qituvchi yoki o'quvchilar tomonidan bir dars mobaynida tayyorlanadi.	
hayvonlarning yaxlit skeleti yoki ayrim suyaklar to'plami	
o'simlik yoki hayvonning tashqi tuzilishi va organlari aks ettirilgan bo'ladi	
tabiiy ob'ektlarning aniq ko'chirilgan nusxasi	
organizm yoki ba'zi organlarning ichki tuzilishi aks ettiriladi.	
bu quritilgan va to'g'rilangan, qattiq qog'ozga mahkamlangan yaxlit o'simlik yoki uning muayyan organi.	

o'simlik va hayvonning yoki ular oraganlarining maxsus eritma yordamida konservalanishi	
o'simlik, hayvon yoki ular organlarining to'plami	

30 - LABORATORIYA MASHG'ULOTI

4. “Biologiya” (11-sinf) o‘quv dasturidagi mavzulardan birining didaktik ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini aniq belgilang.

Ta’limiy maqsadlari	Tarbiyaviy maqsadlari	Rivojlantiruvchi maqsadlari

42, 43, 44 - LABORATORIYA MASHG‘ULOTI

HAYOTNING POPULYATSIYA, EKOSISTEMA VA BIOSFERA DARAJALARIDAGI UMUMBIOLOGIK QONUNIYATLARGA OID DARSLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Laboratoriya mashg‘ulotining maqsadi: Talabalarni hayotning populyatsiya, ekosistema va biosfera darajalaridagi umumbiologik qonuniyatlarga oid darslarni tashkil etish metodikasi bilan tanishtirish.

Mashg‘ulot davomida talaba:

- talabalarni biologiyani o‘qitishda amaliy mashg‘ulotlarning o‘rnini va ahamiyati, amaliy mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi bilan tanishtirishi;

- umumiyl o‘rtalim maktablari biologiya o‘quv fani DTS va o‘quv dasturida o‘quvchilarda shakllantiriladigan bilim, ko‘nikma va malakalarni ajratishni bilishi;

- umumiyl o‘rtalim maktablari uchun biologiyadan tuzilgan davlat ta’lim standartidagi “Hayotning populyatsiya, ekosistema va biosfera darajalaridagi umumbiologik qonuniyatlari” bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni ajratishni, ular asosida MSNIlar tuzishni bilishi;

- biologiyadan tuzilgan davlat ta’lim standarti mazmunining o‘quv dasturi bilan uzviyligini tushunishi;

- “Hayotning populyatsiya, ekosistema va biosfera darajalaridagi umumbiologik qonuniyatlari” yoritib berish tizimini to‘g‘ri belgilashi,

Nº	O'quvchilarning bilimiga qo'yilgan talablar	Qaysi mavzularda tarkib toptirilgan	Qaysi mavzular rivojlantiriladi
1			
2			

TALABALARNING MUSTAQIL ISH TOPSHIRIG'I

1.“Biologiya (11-sinf)” dan o‘quv dasturida mavzularni o‘rganishga ajratilgan soatlarni boblar bo‘yicha quyidagicha taqsimlash mumkin:

2-jadval

Nº	Boblar	Soat
1.	Kirish	2
2.		
3.		
4.		
5.		
6.		
7.		

2. “Biologiya” (11-sinf) darsligini tahlil qiling.

3-jadval

Nº	Boblar	Rasmlar	Soat
1.			
2.			
3.			

3.Biologiyani o‘qitishda foydalaniladigan istiqbol taqvimejani tuzing.

4-жадвал

Boblar va mavzlar	Laboratoriya mashg‘uloti	Amaliy mashg‘ulot	Eksursiya	Fanlararo bog‘lanish	Soat	Muddat

4. “Biologiya” (11-sinf) o‘quv dasturida didaktik ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini aniq belgilang.

Ta’limiy maqsadlari	Tarbiyaviy maqsadlari	Rivojlantiruvchi maqsadlari

42, 43, 44 - LABORATORIYA MASHG‘ULOTI

HAYOTNING POPULYATSIYA, EKOSISTEMA VA BIOSFERA DARAJALARIDAGI UMUMBIOLOGIK QONUNIYATLARGA OID DARSLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Laboratoriya mashg‘ulotining maqsadi: Talabalarni hayotning populyatsiya, ekosistema va biosfera darajalaridagi umumbiologik qonuniyatlarga oid darslarni tashkil etish metodikasi bilan tanishtirish.

Mashg‘ulot davomida talaba:

- talabalarni biologiyani o‘qitishda amaliy mashg‘ulotlarning o‘rnini va ahamiyati, amaliy mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi bilan tanishtirishi;
- umumiy o‘rtalim makkablari biologiya o‘quv fani DTS va o‘quv dasturida o‘quvchilarda shakllantiriladigan bilim, ko‘nikma va malakalarni ajratishni bilishi;
- umumiy o‘rtalim makkablari uchun biologiyadan tuzilgan davlat ta’lim standartidagi “Hayotning populyatsiya, ekosistema va biosfera darajalaridagi umumbiologik qonuniyatlar” bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni ajratishni, ular asosida MSNIlar tuzishni bilishi;
- biologiyadan tuzilgan davlat ta’lim standarti mazmunining o‘quv dasturi bilan uzviyligini tushunishi;
- “Hayotning populyatsiya, ekosistema va biosfera darajalaridagi umumbiologik qonuniyatlar” yoritib berish tizimini to‘g‘ri belgilashi,

mavzuli-reja tuzish ko'nikmasini egallashi;

• O'quv dasturida "Hayotning populyatsiya, ekosistema va biosfera darajalaridagi umumbiologik qonuniyatlar" mavzusi bo'yicha belgilangan laboratoriya mashg'uloti va ekskursiyalarni o'tkazish, ularda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish yo'llarini belgilashi lozim.

Laboratoriya mashg'ulotida foydalaniladigan jihozlar va qurollar: biologiya darsligi, dastur, DTS, Laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar.

Laboratoriya mashg'ulotida foydalaniladigan pedagogik texnologiya: Modulli ta'lif texnologiyasining kichik guruhlarda ishlashga mo'ljallangan modul dasturi.

Laboratoriya mashg'ulotining borishi:

Tashkiliy qism.

1. Talabalarni amaliy mashg'ulotining maqsadi, borishi, mustaqil bajariladigan o'quv topshiriqlari bilan tanishtirish.

2. Biologiyadan tuzilgan Davlat ta'lif standartining mazmuni va mohiyati bilan tanishtirish.

3. "Hayotning populyatsiya, ekosistema va biosfera darajalaridagi umumbiologik qonuniyatlar" mavzusi bo'yicha belgilangan sinfini o'qitish metodikasini o'rGANISH.

4. "Hayotning populyatsiya, ekosistema va biosfera darajalaridagi umumbiologik qonuniyatlar" mavzusi bo'yicha topshiriqlar tuzishni o'rGANISH.

5. Amaliy mashg'ulotini yakunlash.

"Hayotning populyatsiya, ekosistema va biosfera darajalaridagi umumbiologik qonuniyatlar" mavzularni darslarga taqsimlashni quyidagicha amalga oshiring:

Hayotning populyatsiya darajalaridagi umumbiologik qonuniyatlar.

Tabiatda har bir biologik tur bir-biridan nisbatan alohidalashgan populattsiyalardan tashkil topadi.

Populattsiyalar nisbatan turg'un biologik sistemalar bo'lib,

quyidagi ko'rsatkichlar:

– populattsiya individlari o'rtasida o'zaro chatishish natijasida doimiy

ravishda sodir bo'ladigan genlar almashinuvni natijasi – genofondi;

– turli to'siqlar va tarqalish imkoniyatining cheklanganligi bilan bog'liq

holda boshqa populattsiyalardan alohidalashganligi;

– ko'payish jarayonida ishtirot etadigan yosh individlarning soni;

– genlar dreyfi, mutatsiyalar kabi evolutsiya omillari ta'sirida genlarning

yangi kombinattsiyalarining yuzaga kelishi bilan tafsivlanadi.

Populattsyaning muhim xususiyatlaridan biri o'z-o'zini boshqarishi, ya'ni uzoq muddat individlar sonini bir xilda saqlab turishidir.

1.	Populyatsiya individlarining soni	Mazkur populyatsiyadagi individlarning ma'lum maydonidagi umumiyl sonini aks ettiradi. Populattsiya individlarining soni doim o'zgarib tursada, bu ko'rsatkich yuqori va quyidagi chegarasiga ega.
2.	Populyatsiya zichligi	Maydon yoki hudud birligidagi organizmlar soni yoki biomassa bilan o'chanadi. Masalan, 1 ga da 100 ta daraxt, 1 ga basseyn hududida 10 000 bosh yoki 1000 kg baliq, 1 m ³ suvda 5 million xlorella yashashi mumkin. Zichlik organizmlar soni (miqdor) ga bog'liq bo'lib, ma'lum optimumga ega.

3.	Jinsiy tarkibi	Ko‘pgina turlarda jinsnani aniqlashning genetik mexanizmi jinslarning birlamchi nisbati – avlodda jins bo‘yicha 1:1 nisbatda ajralishni ta’minlaydi. Erkak va urg‘ochi organizmlar yashovchanligining farq qilishi evolutsiya jarayonida shakllangan belgi bo‘lib, shu sababli populatsiyada bunday nisbat har doim ham kuzatilmaydi.
4.	Yosh tarkibi	Turli yoshdagagi organizmlar guruhlarining nisbati sanaladi. Hayvonlarning tabiiy populatsiyalarida uch xil yoshdagagi guruhlar farqlanadi: predreproduktiv, reproduktiv va postreproduktiv.
5.	Tug‘iluvchanlik	Organizmlarning ko‘payishi hisobiga populatsiyada vaqt birligida paydo bo‘lgan organizmlar soni. Tug‘iluvchanlik individlar soni o‘zgarishining muhim demografik xususiyatidir.
6.	O‘lim ko‘rsatkichi	Vaqt birligida nobud bo‘lgan organizmlar soni. Bu demografik jarayonlarning xususiyatlaridan biridir. O‘lim ko‘rsatkichiga qarab populatsiyadagi organizmlar sonining kelajakda o‘zgarishini bashorat qilish mumkin.

TALABALARING BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH UCHUN O‘QUV TOPSHIRIQLARI

O’FE	O‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish uchun o‘quv topshiriqlari	Topshiriqlarni bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar	Baho
------	--	---	------

I- O’FE	Maqsad: Biologiya darsligidan o‘rin olgan “Hayotning Kichik guruh populyatsiya, ekosistema va biosfera darajalaridagi a’zolari bilan umumbiologik qonuniyatlar” mavzularni o‘qitish hamkorlikda metodikasini o‘rganish. Biologiya darsligi, o‘quv dasturi va tarqatma Talabalar bilan materiallarni o‘rganing va quyidagi savollarga javob o‘tkaziladigan savol-javobda faol toping: 1. Biologiya darsligidagi “Hayotning populyatsiya, ekosistema va biosfera darajalaridagi umumbiologik qonuniyatlar” mavzularni ko‘rib chiqing. U qaysi mavzularni o‘z ichiga oladi? 2. O‘quv dasturini tahlil qiling. Mavzularni o‘rganish uchun ajratilgan soatlarni aniqlang. 3. Biologiya darslarining mavzuli rejasini ko‘rib chiqing, laboratoriya mashg‘uloti va ekskursiyalarni aniqlang.	
2-O’FE	Maqsad: “Hayotning populyatsiya, ekosistema va biosfera darajalaridagi umumbiologik qonuniyatlar” mavzularni o‘rganish uchun mavzuli reja tuzish. Berilgan tarqatma materialni o‘rganing va quyidagi ishlangu savollarga javob toping: 1. Biologiyadan tuzilgan mavzuli reja o‘zida nimalarni mujassamlashtiradi? 2. Biologiya mavzuli rejasida “Hayotning populyatsiya, ekosistema va biosfera darajalaridagi umumbiologik qonuniyatlar” mavzularni o‘rganish qaysi chorakka to‘g‘ri keladi? 3. Mazkur mavzuli reja mavzularning ketma-ketligi aniqlang. U darslikka mos keladimi?	
3-O’FE	Maqsad: “Hayotning populyatsiya, ekosistema va biosfera darajalaridagi umumbiologik qonuniyatlar” mavzularni -laboratoriya mashg‘ulotini o‘rganish. Darslikda berilgan laboratoriya mashg‘ulotining ishlangu borishini o‘rganining va quyidagi savollarga javob toping: 1. Biologiya darsligidagi “Hayotning populyatsiya, ekosistema va biosfera darajalaridagi umumbiologik qonuniyatlar” mavzularni laboratoriya mashg‘ulotini o‘tkazish uchun tavsiya etilgan jihozlar, o‘quvchilar uchun berilgan o‘quv topshiriqlarini ko‘rib chiqing. 2. Berilgan topshiriqlar ko‘rib chiqing. Undagi topshiriqlarda DTS talablari to‘liq qamrab olinganmi?	

4-O'FE	Maqsad: Umumlashtiruvchi darsni o'tkazish metodikasi bilan tanishish.	Kichik guruh a'zolari bilan	
	1. Mazkur darsning didaktik maqsadi va darslar hamkorlikda tizimidagi o'rnnini aniqlang. 2. O'quvchilar mustaqil bajaradigan o'quv topshiriklarni tuzing. 3. Darsni o'tkazish uchun tavsiya tayyorlang. 4. Mazkur darsni o'tkazish uchun o'qituvchi qanday ishtirok eting tayyorgarlik ko'rishi lozimligini aniqlang.	hamkorlikda ishlang Talabalar bilan o'tkaziladigan savol-javobda faol ishtirok eting	
5-O'FE	Maqsad: Modul dasturini yakunlash.		
	1. Modul dasturining didaktik maqsadi-ni o'qib chiqing. Siz unga qay darajada erishdingiz?	Baho qo'yiladi	
	2. O'z o'quv faoliyatizingizni tahlil qiling va 5 balli tizimda baholang.		
	3. O'z o'quv faoliyatizingizdan qoniqish hosil qilgan bo'lsangiz, mazkur sinfdan o'r'in olgan birorta mavzu bo'yicha dars ishlanmasini loyihalang.		
	4. Agar o'z o'quv faoliyatizingizdan qoniqish hosil qilmagan bo'lsangiz, modul dasturi yordamida takroran ishlang.		


1-jadval

1.“Biologiya (11-sinf) ” dan tuzilgan DTS tahlili

Nº	O'quvchilarning bilimiga qo'yilgan talablar	Qaysi mavzularda tarkib toptirilgan	Qaysi mavzularda rivojlantiriladi
1			
2			


2.Hayotning ekosistema darajalaridagi umumbiologik qonuniyatlarni sanang.

3. Oziq zanjirini tushuntiring.



$$2000 + 200 + 20 + 2 = 2222 \text{ kg}$$

4.Hayotning biosfera darajalaridagi umumbiologik qonuniyatlar. Biosferada kislorodning davriy aylanishi.



TAJABAI ARNING MUSTAQIL ISH TOPSHIRIG'I

1. Biogeotzenozlarga xos xususiyatlarni yoriting.


Biogeotsenozlarning o‘z-o‘zini yaratish xususiyati

Biogeotsenozlarning barqarorligi	
Biogeotsenozlarning o‘z-o‘zini boshqarishi	
Biogeotsenozlarning rivojlanish xususiyati	

2. Quyidagi tushunchalarga ta’rif bering va misollar keltiring.
Jadvalni to‘ldiring.


Jamoalar	Ta’rif	Misol
Fitotsenoz		
Zootsenoz		
Mikotsenoz		
Mikrobiotsenoz		

3. Yaruslilikni ahamiyatini izohlang.



4. Sonlar piramidasini tushuntiring.

SONLAR PIRAMIDASI



45 - LABORATORIYA MASHG‘ULOTI BIOLOGIYADAN EKSKURSIYA DARSLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Laboratoriya mashg‘ulotining maqsadi: Talabalarni umumiy o‘rta ta’lim maktablarining biologiya o‘quv fanini o‘qitishda ekskursiya darslarni tashkil etish metodikasi bilan tanishish;

Mashg‘ulot davomida talaba:

- Umumiyl o‘rta ta’lim maktablarining biologiya o‘quv fanidan laboratoriya ko‘nikmalarni farqlay olishi;
- Biologiya o‘qitishda ekskursiya darslarni tashkil etish orqali amaliy ko‘nikmalarni tarkib toptirish usullarini tanlay olishi;
- Ekskursiyalarning ta’lim-tarbiya jarayonida tutgan o‘rnini aniqlay olishi;
- Biologik ekskursiyalarning maqsad va vazifalari orqali amaliy ko‘nikmalarni tarkib toptirish usullarini tanlay olishi;
- “Biologiya (10 - sinf)” o‘qitishda ekskursiya darslarni tashkil etish orqali amaliy ko‘nikmalarni tarkib toptirish usullarini tanlay olishi;

olish “Tabiiy va sun’iy ekosistemalar bilan tanishish” mavzusidagi ekskursiya tashkil etishi;

• Ekskursiya o’tkazishga tayyorgarlik ko’nikmalariga ega bo’ladilar.

Laboratoriya mashg’ulotida foydalaniladigan jihozlar va qurollar:

biologiya darsliklari, dastur, DTS, ekskursiyalarning o’tkazish uchun zarur jihozlar, binokl, sachoklar, tok qaychi, qopqoqli shisha bankalar, gerbariy papkasi, eski gazetalar, daftar, ruchka, chizg’ich.

Laboratoriya mashg’ulotida foydalaniladigan pedagogik texnologiya: Muammoli ta’lim texnologiyasining kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash metodi.

Laboratoriya mashg’ulotining borishi:

Tashkiliy qism.

1. Talabalarni laboratoriya mashg’ulotining maqsadi, borishi, mustaqil bajariladigan o’quv topshiriqlari bilan tanishтирish. Izoh: talabalar kichik guruhlarga bo’linib, har bir guruh mustaqil ravishda mavzu tanlaydi.

2. Talabalarni ekskursiyalarning ta’lim-tarbiya jarayonida tutgan o’rni va

ishlarni tashkil qilishni o’rganadi.

3. Talabalar biologik ekskursiyalarning maqsad va vazifalari orqali amaliy ko’nikmalarini tarkib toptirish usullarini tanlay olishni o’rganadi;

4. Talabalarni biologik ekskursiyalarni o’tkazish orqali amaliy ko’nikmalarini tarkib toptirish usullarini tanlay olishi;

5. Talabalarning ekskursiyaga tayyorgarligi orqali amaliy ko’nikmalariga ega bo’lishlari lozim;

Biologik ekskursiyalar – sind yoki muayyan o’quvchilar guruhi bilan o’quv dasturiga muvofiq, o’qituvchi tomonidan maktabdan tashqarida tabiiy muhit yoki sun’iy yaratilgan sharoitda ob’ektlarning yashash muhitiga va unga bog’liq holda o’ziga xos xususiyatlarini o’rganish maqsadida o’tkaziladigan o’quv-tarbiya jarayonining muhim shakli sanaladi.

Ma’lumki, biologiya o’quv fani sifatida o’quvchilarga tabiat,

tabiatning anorganik tarkibiy qismlari, ulardagi o’zgarishlar va tirik organizmlarning o’ziga xos hayotiy jarayonlari, yashash muhitiga moslashishi, ekologik jamoalar, ularda modda va energiya almashinuvining xususiyatlari bilan tanishтирди.

O’qituvchi rahbarligida tabiatdagi mavsumiy o’zgarishlarlarni kuzatish, tirik organizmlarning xilma-xilligi, yashash muhitiga moslashishi, ular o’rtasidagi biotik aloqa formalarini o’rganish o’quvchilarda olamni yaxlit tasavvur qilish, tabiiy jamoalarning tarkibiy qismlari o’rtasidagi aloqadorlik haqidagi bilimlarni shakllantirish, tabiiy muhitda tirik organizmlarning yashash sharoiti bilan tanishish maqsadida ekskursiyalar tashkil etiladi.

Ekskursiyaning turlari.

Umumiy o’rta ta’lim maktablarida ekskursiyalar davomiyligiga ko’ra, bir soatlik, bir kunlik va ko’p kunlik bo’lishi mumkin.

Bir soatga mo’ljallangan ekskursiya – maktab hovlisida yoki o’quv tajriba yer maydonchasida o’tkaziladi.

Bir kunga mo’ljallangan ekskursiya – tabiatga, ishlab chiqarish korxonalariga, fermer xo’jaliklariga, hayvonot yoki biologiya bog’iga, baliqchilik xo’jaligiga yoki parrandachilik xo’jaligiga uyushtiriladigan ekskursiya planini maktab ilmiy bo’lim mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Ko’p kunlik ekskursiya – o’quv yilining oxirida kompleks ekskursiya deb, bunga tarix, geografiya, til adabiyot, jismoniy tarbiya yoki harbiy ta’lim fani o’qituvchilari bilan birgalikda o’tkaziladi. Ko’p kunlik ekskursiya – rejasini pedagogik kengashda tasdiqlanadi.

Ekskursiya biologiyani o’qitishning muhim shakli bo’lib, u quyidagi didaktik maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi:

Tirik organizmlarning tuzilishi va organlarning funksiyalaridagi o’ziga xos xususiyatlarni yashash muhitiga bog’liq holda o’rganilishi o’quvchilar tomonidan biologik qonuniyatlarni “tabiat-inson-jamiyat” munosabatlari nuqtai nazaridan o’rganishga imkon yaratadi.

O’rganilayotgan mavzu mazmuniga bog’liq holda samarali tashkil etilgan ekskursiyalarda o’quvchilarda biologik ob’yektlarning tuzilishi, rivojlanishi va hayotiy faoliyatining o’ziga xos xususiyatlarini chuqurroq anglash, ilmiy dunyoqarashni kengaytirish imkonini beradi.

Tirik organizmlarning jamoalari, ularning tarkibi, oziq zanjiri, energiya sarfi, biosferadagi modda va energiya almashinuvini tasavvur qilishga zamin tayyorlaydi.

O'qitishning asosiy shakli bo'lgan darsda o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni orttirish, ularni amaliyatga qo'llash, tabiatga nisbatan ongli munosabat, kuzatish, o'quv va amaliy mehnat ko'nikmalarini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

O'qitish davomida alohida organizmlar va hodisalar haqida ilk bor shakllangan tushunchalar kengaytiriladi, boshqa tushunchalar bilan birikib, murakkab tushunchalarning hosil bo'lishiga olib keladi.

Tabiat hodisalarini kuzatish olamning moddiyligi, tabiatdagi o'zaro bog'lanish va rivojlanish, tabiiy boyliklarning inson hayoti va xalq xo'jaligida tutgan o'rni, ularni muhofaza qilish tadbirlari bilan tanishtirish orqali Ona Vatanning tabiatga mehr-muxabbat uyg'otish, ekologik, estetik, iqtisodiy va gigienik tarbiya berish imkoniyati vujudga keladi.

Ekskursiya - o'quvchilarning mo'ljal olish, obyektlarni tanish, hodisa-larni kuzatish, ularni taqqoslash, o'xshashlik va farqli tomonlarini aniqlash, umumlashtirish va xulosa chiqarishga o'rgatadi. Qayd etilgan aqliy operatsiyalar ularda mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini tarkib toptirish bilan bir qatorda tabiatning ilmiytadqiqot metodlarini anglash, zarur hollarda ulardan foydalanishga imkon yaratadi.

Biologiyani o'qitish shakllari – dars, darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg'ulotlar uchun kerakli bo'lgan tarqatma va didaktik materiallar, tirik ob'ektlar toplash, kollektsiya va gerbariyalar tayyorlash orqali o'quvchilarda muayyan ko'nikmalar rivojlantiriladi.

Qishloq xo'jaligi fermer xo'jaliklari, seleksiya institutlari va stantsiyalarida o'tkazilgan ekskursiyalar madaniy o'simliklarning navlari va xonaki hayvon zotlari bilan tanishtirish o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirib, kasnga yo'llash imkonini beradi.

Biologiyani o'qitishning muhim shakli bo'lgan ekskursiyalar o'quv dasturi bilan belgilangan bo'ladi. Ekskursiyalarning mavzusi o'quvchilar o'rganayotgan o'quv fani mazmuni va tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarga mantiqiy bog'liq holda belgilanadi.

Ekskursiya mavzularining tahlili, o'kuvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, egallagan bilim zahiralari, o'rganilayotgan o'quv fani mazmuniga bog'liq holda murakkablashib borayotganligini ko'rsatadi.

Quyida ekskursiyalarning mazmuni va ularda o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish bilan tanishib chiqamiz.

"Biologiya (10 - sınıf)" o'quv fani dasturidan o'rin olgan "Tabiiy va sun'iy ekosistemalar bilan tanishish" mavzusidagi ekskursiya quyidagicha tashkil etiladi.

Ekskursiya mavzusi: Tabiiy va sun'iy ekosistemalar bilan tanishish

Ekskursiyaning maqsadi: Tabiiy va sun'iy ekosistemalar, ularda boradigan jarayonlar bilan tanishish orqali o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, tabiiy jamoalarda boradigan jarayonlar, tabiiy va sun'iy ekosistemalar haqidagi bilimlari, mantiqiy fikr yuritish, tabiatda o'zini tutish va kuzatish ko'nikmalarini rivojlantirish, turlarning xilma-xilligi va organizmlarning muhitga moslashganligiga oid bilimlarini mustahkamlash, tabiatga nisbatan ongli munosabatni tarkib toptirish, ekologik tarbiya berish.

Jihozlar: Binokl, sachoklar, tok qaychi, qopqoqli shisha bankalar, gerbariy papkasi, eski gazetalar, daftar, ruchka, chizg'ich.

Ekskursiyaning borishi:

1. O'quvchilarni ekskursiyaning maqsadi, borishi, kuzatiladigan va bajariladigan topshiriqlar bilan tanishtirish.

2. O'quvchilarni kichik guruhlarga ajratish va ularga o'quv topshiriqlarini tavsiya etish.

3. O'quvchilarning kichik guruhlarda mustaqil ishini tashkil etish.

I – topshiriq. Tabiiy ekosistemalardagi turlarning xilma-xillagini o'rganish.

Tirik organizmlarning jamoalari, ularning tarkibi, oziq zanjiri, energiya sarfi, biosferadagi modda va energiya almashinuvini tasavvur qilishga zamin tayyorlaydi.

O'qitishning asosiy shakli bo'lgan darsda o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni orttirish, ularni amaliyatga qo'llash, tabiatga nisbatan ongli munosabat, kuzatish, o'quv va amaliy mehnat ko'nikmalarini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

O'qitish davomida alohida organizmlar va hodisalar haqida ilk bor shakllangan tushunchalar kengaytiriladi, boshqa tushunchalar bilan birikib, murakkab tushunchalarning hosil bo'lishiga olib keladi.

Tabiat hodisalarini kuzatish olamning moddiyligi, tabiatdagi o'zaro bog'lanish va rivojlanish, tabiiy boyliklarning inson hayoti va xalq xo'jaligida tutgan o'rni, ularni muhofaza qilish tadbirlari bilan tanishtirish orqali Ona Vatanning tabiatga mehr-muxabbat uyg'otish, ekologik, estetik, iqtisodiy va gigienik tarbiya berish imkoniyati vujudga keladi.

Ekskursiya - o'quvchilarning mo'ljal olish, obyektlarni tanish, hodisa-larni kuzatish, ularni taqqoslash, o'xshashlik va farqli tomonlarini aniqlash, umumlashtirish va xulosa chiqarishga o'rgatadi. Qayd etilgan aqliy operatsiyalar ularda mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini tarkib toptirish bilan bir qatorda tabiatning ilmiytadqiqot metodlarini anglash, zarur hollarda ulardan foydalanishga imkon yaratadi.

Biologiyani o'qitish shakllari – dars, darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg'ulotlar uchun kerakli bo'lgan tarqatma va didaktik materiallar, tirik ob'ektlar to'plash, kollektsiya va gerbariyalar tayyorlash orqali o'quvchilarda muayyan ko'nikmalar rivojlantiriladi.

Qishloq xo'jaligi fermer xo'jaliklari, seleksiya institutlari va stantsiyalarida o'tkazilgan ekskursiyalar madaniy o'simliklarning navlari va xonaki hayvon zotlari bilan tanishtirish o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirib, kasnga yo'llash imkonini beradi.

Biologiyani o'qitishning muhim shakli bo'lgan ekskursiyalar o'quv dasturi bilan belgilangan bo'ladi. Ekskursiyalarning mavzusi o'quvchilar o'rganayotgan o'quv fani mazmuni va tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarga mantiqiy bog'liq holda belgilanadi.

Ekskursiya mavzularining tahlili, o'kuvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, egallagan bilim zahiralari, o'rganilayotgan o'quv fani mazmuniga bog'liq holda murakkablashib borayotganligini ko'rsatadi.

Quyida ekskursiyalarning mazmuni va ularda o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish bilan tanishib chiqamiz.

"Biologiya (10 - sinf)" o'quv fani dasturidan o'rin olgan "Tabiiy va sun'iy ekosistemalar bilan tanishish" mavzusidagi ekskursiya quyidagicha tashkil etiladi.

Ekskursiya mavzusi: Tabiiy va sun'iy ekosistemalar bilan tanishish

Ekskursiyaning maqsadi: Tabiiy va sun'iy ekosistemalar, ularda boradigan jarayonlar bilan tanishish orqali o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, tabiiy jamoalarda boradigan jarayonlar, tabiiy va sun'iy ekosistemalar haqidagi bilimlari, mantiqiy fikr yuritish, tabiatda o'zini tutish va kuzatish ko'nikmalarini rivojlantirish, turlarning xilma-xilligi va organizmlarning muhitga moslashganligiga oid bilimlarini mustahkamlash, tabiatga nisbatan ongli munosabatni tarkib toptirish, ekologik tarbiya berish.

Jihozlar: Binokl, sachoklar, tok qaychi, qopqoqli shisha bankalar, gerbariy papkasi, eski gazetalar, daftar, ruchka, chizg'ich.

Ekskursiyaning borishi:

1. O'quvchilarni ekskursiyaning maqsadi, borishi, kuzatiladigan va bajariladigan topshiriqlar bilan tanishtirish.
2. O'quvchilarni kichik guruhlarga ajratish va ularga o'quv topshiriq-larini tavsiya etish.
3. O'quvchilarning kichik guruhlarda mustaqil ishini tashkil etish.

I – topshiriq. Tabiiy ekosistemalardagi turlarning xilma-xillagini o'rganish.

Turlar	Oziq zanjirining qismlari			1-jadval
	Produtsentlar	Konsumentlar	Redutsentlar	

2-topshiriq. Ekosistemalarning dominant turlarini aniqlash.
2-jadval

Turning nomi	100m ² da uch rash soni	Yosh va qari individlarning nisbati	Ko'p sonli	Kam sonli

3-topshiriq. Ekosistemalarning o'simliklarning yaruslarini aniqlash.

Yaruslar	O'simlik nomi	O'simliklarning moslashish belgilari	3-jadval

4 – topshiriq. Sun'iy ekosistemalardagi turlarning xilmalligini o'rganish.

Turlar	Oziq zanjirining tarkibiy qismlari			4-jadval
	Produtsentlar	Konsumentlar	Redutsentlar	

5-topshiriq. Tabiiy va sun'iy ekosistemalarning o'xshashlik va farqlarini aniqlash

Ekosistemalar	O'ziga xos xususiyatlari	O'xshashligi	Farqi	5-жадвал
Tabiiy ekosistema				

Sun'iy ekosistema			
-------------------	--	--	--

4. Kichik guruhlarning topshiriqlar yuzasidan axborotini tinglash.

5. Ekskursiya mobaynida kuzatilgan o'simlik va hayvonlardagi yashash uchun kurash xillari, ularning o'ziga xos belgilari bo'yicha hisobot tayyorlash.

1. Ekskursiyani yakunlash.

O'qituvchining ekskursiya o'tkazishga tayyorgarligi:

✓ ekskursiyaning samaradorligi ko'p jihatdan uning tashkil etilishiga bog'liq. Shu sabali o'qituvchi ekskursiyalarga puxta tayyorgarlik ko'rishi va quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim;

✓ biologiyani o'qitishning istiqbol rejasiga muvofiq, uni o'tkazish muddatini belgilash;

✓ ekskursiya o'tkaziladigan joyni aniqlash, mavzuga oid ob'ektlarni topish, marshrutni belgilash;

✓ o'quvchilarning mustaqil kuzatishlar olib borishi uchun ko'rsatmalar, kirish va umumlashtiruvchi suhbatlar uchun matn tuzish;

✓ ekskursiyada foydalaniladigan o'quv-laboratoriya jihozlari, metodlarni aniqlash;

✓ ekskursiya o'tkazishdan bir necha kun avval, mavzu bo'yicha kirish suhbatni o'tkazish, o'quvchilarni kichik guruhlarga ajratish, qo'shimcha adabiyotlarni o'rganish bo'yicha o'kuv topshiriqlarini berishi lozim.

Ekskursiya davomida o'quvchilar amal qilishi lozim bo'lgan tartib-qoidalar bilan tanishtirish, ongli intizomni saqlash, berilgan o'quv topshiriqlarni bajarishda faollikni ko'rsatish, notanish o'simlik va hayvonlardan ehtiyyot bo'lishni uqtirish zarur.

Ekskursiya davomida o'kuvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishda ularni kichik guruhlarga ajratish, kichik guruh uchun o'quvchilardan yetakchi tayinlash, yetakchi zimmasiga guruh

a'zolarining tartib intizomini ta'minlash, o'quv topshiriqlarining bekamu-ko'st bajarilishi, ekskursiya hisobotini rasmiylashtirish uchun javobgarlik yuklanadi. Biologiyadan ekskursiya o'tkazishda o'qituvchilar metodist-olim B.E. Raykov tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar amal qilish lozim. Ushbu tavsiyalarga bugungi kun talabi asosida o'zgartirishlar kiritilgan holda berilmoqda:

- ekskursiya – sayr emas, balki o'quv-tarbiya jarayonining eng muhim qismi, ekskursianing asosiy harakatlantiruvchi kuchi - o'quvchilarning tabiat bilan bevosita muloqoti, ularning mustaqil kuzatishi, kuzatish natijalarini umumlashtirishi va xulosa yasash ekanligini esda tuting;

- ekskursiya o'tkaziladigan joyni mukammal o'rganib chiqing, xavfsizlik qoidalariga javob berishiga ishonch hosil qiling, mavzuga oid rejasini tuzing.

- har doim o'quvchilarning e'tiborini mavzuga qarating, ikkinchi darajali masalalarga chalg'imang;

- ekskursiya davomida o'quvchilar tomonidan o'tkaziladigan kuzatish va o'rganish mumkin bo'lgan obyektlar haqida batafsil hikoya qiling va o'quv topshiriqlarini ularga moslashtiring;

- ekskursiya davomida uzoq tushuntirishlardan saqlaning, muammoli savollar yordamida o'quvchilarni kuzatish va o'rganish natijasida xulosa chiqarish, umumlashtirish, bilimlarni sintezlashga o'rgating;

- o'quvchilarni tinglovchi sifatida emas, balki faol fikr yurituvchi sifatida qabul qiling. Ularning avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi vaziyatlarda qo'llab yangi bilim, ko'nikma va malakalarini egallahlariga imkon yarating;

- o'quvchilarning e'tiborini faqat mavzuga oid 5-10 ta ob'ektlarga qarating, juda ko'p ob'ektlarni o'rganish, ularni sanash maqsadga muvofiq emas. Bir vaqtning o'zida berilgan ma'lumotlarning hammasi ham o'quvchilar yodida qolmaydi;

- ekskursiya davomida ortiqcha materiallar bilan o'quvchilarni charchatib qo'yman, maqsadga muvofiq bo'lgan o'quv topshiriqlarini to'liq va sifatli bajartirishga erishing;

- ekskursiya davomida o'quvchilarning hissiyotini kuchaytirish

maqsadida tabiatni muhofaza qilish, fanlararo bog'lanish, ta'lim-tarbiyaning uzviyligiga e'tiborni qarating, lirik chekinish, ma'naviyat daqiqalarini o'tkazishni rejalshtiring;

- ekskursiya davomida to'plangan materiallar asosida uning mazmunini muammoli savollar yordamida qayta ishlab chiqing. Maqsad, mazmun va xulosa uyg'unligiga erishing;

- ekskursiyani o'tkazishda o'qituvchi o'zining nafaqat kasbiy-pedagogik tayyorgarligiga bog'liq bilim, ko'nikma va malakalari balki, tabiatshunos sifatidagi bilim, ko'nikma va malakalarini namoyon etishi, ya'ni tabiiy ob'ektlarni tanish, aniqlagichlar bilan ishslash, kollektsiya va gerbariyalar tayyorlash va ularni rasmiylashtirish, tabiatdagi tirik organizmlar o'rtasida aloqadorlik, oziq zanjiri tarkibiy qismlarini aniqlashi zarur.

TALABALARING BILIMLARINI NAZORAT QILISH SAVOLLARI

1. Ekskursiyalarning ta'lim-tarbiya jarayonida tutgan o'rni aniqlang.
2. Biologik ekskursiyalarning maqsad va vazifalarini aniqlang.
3. Biologik ekskursiyalarni o'tkazish metodikasini gapirib bering.
4. Ekskursiyani o'tkazish vaqtida foydalanish lozim bo'lgan ko'rsatmalar ning mohiyatini gapirib bering.
5. O'qituvchining ekskursiyaga tayyorgarligini o'rganing.
6. Ekskursiyalarning o'qitishning boshqa shakllari bilan uzviy bog'liqligini o'rganing.

46 - LABORATORIYA MASHG'ULOTI

BIOLOGIYA (6-SINF) DARSLARIDA LOKAL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI.

Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi: Talabalarni Umumiy o'rta ta'limgaktablarining biologiya (6-sinf) dan lokal texnologiyasiga asoslangan darslarni tashkil etish metodikasi bilan tanishish.

Mashg'ulot davomida talaba:

- Umumiy o'rta ta'limgaktablarining biologiya (6-sinf) dan lokal texnologiyasiga asoslangan usullarini tanlay olishi;
- lokal texnologiyasiga asoslangan faoliyatini tashkil etish osqichlari orqali amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish usullarini tanlay olishi;
- lokal texnologiyasiga asoslangan darslarning mazmuni va mohiyati yoritish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- biologiyani o'qitishda foydalaniladigan, lokal ta'limgaktabning turlarini tanlay olishi;
- lokal texnologiyasiga asoslangan darslarning texnologik xaritasini tuza olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim;

Laboratoriya mashg'ulotida foydalaniladigan jihozlar va qurollar: biologiya darsligi, dastur, laboratoriya mashg'uloti o'tkazish uchun zarur jihozlar.

Laboratoriya mashg'ulotida foydalaniladigan pedagogik texnologiya: Lokal ta'limgaktabning texnologiyasi.

Laboratoriya mashg'ulotining borishi:

Tashkiliy qism.

1. Talabalarni laboratoriya mashg'ulotining maqsadi, borishi, mustaqil bajariladigan o'quv topshiriqlari bilan tanishtirish. Izoh: talabalar kichik guruhlarga bo'linib, har bir guruh mustaqil ravishda mavzu tanlaydi.

2. Talabalar lokal ta'limgaktabning texnologiyasiga asoslangan faoliyatini tashkil etish bosqichlari orqali amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish

usullarini tanlay olishini o'rganadi.

3. Talabalar lokal ta'limgaktabning mazmuni va mohiyati yoritish ko'nikmalariga ega bo'lishi amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish usullarini tanlay olishni o'rganadi;

4. Talabalar biologiyani o'qitishda foydalaniladigan, lokal ta'limgaktabning turlarini tanlay olishi orqali amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish usullarini tanlay olishadi;

5. Talabalar lokal ta'limgaktabning texnologik xaritasini tuza olish ko'nikmalariga ega bo'lishadi.

Biologiyani o'rganishda o'quvchilarining bilish faoliyatini faollashtirish uchun o'quvchilarining o'tgan mavzu yuzasidan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, ularni tizimlashtirish, yangi mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalami nazorat qilish va baholash, shuningdek, yangi mavzuni o'rganish jarayonida lokal texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Biologiyani o'qitishda lokal darajadagi pedagogik texnologiyalardan «Keys», «Insert», «Klaster», Venn diagrammasi, «Aqliy hujum», «Kichik guruhlarda ishlash», «Atamalar zanjiri», «Atamalar varag'i», tezkor o'yinlar va o'yin mashqlaming turli shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Biologiyani o'qitishda dastur mazmunidagi evolutsion tushunchalar yetakchilik qilgan, shuningdek, munozarali «O'simliklarning paydo bo'lishi va rivojlanishi», «Hayvonot olamining paydo bo'lishi va rivojlanishi» kabi mavzularni o'qitishda foydalanish mumkin. Ta'limgaktabning jarayonida «Keys» dan foydalanish uchun o'qituvchi:

- dastur mazmunidagi muammoli mavzulami aniqlashi, shu mavzularni o'qitish uchun muammoli savol-topshiriqlar tuzishi;
- dars davomida muammoli savol-topshiriqlaming qiyinchilik darajasiga ko'ra yakka tartibda yoki o'quvchilarining kichik guruhlarda mustaqil ishlarni tashkil etilishini aniqlashi;
- o'quvchilarining bilish faoliyatini mazkur muammolarni hal etish, o'quv munozaralari orqali bahsda qatnashtirish yo'llarini rejalashtirishi;
- muammoli savol-topshiriqlar asosida tashkil etilgan o'quv

munozaralarida yakuniy fikrni vujudga keltirishi lozim.

Dastur mazmunidagi faqat faktik materiallarni o'rganish nazarda tutilgan mavzularda «Insert»dan foydalanish tavsiya etiladi. «Insert» — lokal darajadagi pedagogik texnologiya bo'lib, o'quvchilar tomonidan o'quv materialidagi asosiy g'oya va faktik materiallarni anglashiga zamin yaratish maqsadida qo'llaniladi. O'quvchilarini «Insert» yordamida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ularga o'rganiladigan o'quv materiallari va maxsus jadval tarqatiladi. O'quvchilar har bir jumlanı o'rganib chiqib, maxsus jadvalga muayyan simvollar yordamida belgilash tavsiya etilaди. Agar jumlada berilgan ma'lumot shu kungacha o'zlashtirgan bilimlariga mos kelsa, «Bilaman» - V, agar ma'lumotlar tushunarli va yangi bo'lsa, u holda "Ma'qullayman" +, agar ma'lumotlar o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlariga mos kelmasa, u holda «o'rganish lozim» —, o'quvchilar o'quv materiallarini o'zlashtirishda qiyinchilik his etsa, u holda «Tushunmadim» ? belgisini qo'yadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida Insertdan foydalanishda dastlab har bir o'quvchi yakka tartibda ishlashi va jadvalni to'ldirishi, guruh a'zolari belgilangan muddatda ishlashni yakunlaganlaridan so'ng, fikrlarini taqqoslashi keyin o'qituvchi o'quv materiali asosida tuzilgan savol-topshiriqlari va kichik guruh a'zolarining jadvaldagи belgilari asosida o'quv bahsini tashkil etishi lozim. Insert bilan ishslashning afzallik tomoni avval kichik guruh a'zolari bilan o'zaro o'quv bahsi o'tkazilishi, bahsda o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklarni to'ldirish, bilimidagi bo'shliqlarni to'ldirish yuzasidan o'qituvchi tomonidan berilgan axborot ta'lim samaradorligiga xizmat qiladi. Insertdan foydalanimanda o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi axborot manbayi funksiyasi birmuncha kamayib, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish va nazorat funksiyalari ortadi. Shu sababli, o'qituvchi bu masalalalarni puxta rejulashtirishi va amalga oshirishi lozim.

Biologiyani o'qitishda o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini tizimlashtirish, mustahkamligini ta'minlash maqsadida «Klaster»dan foydalanish muhim o'rinn tutadi. Ushbu lokal texnologiya o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan va o'zlashtiradigan g'oya, nazariya,

qonuniyat hamda tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishini anglash, bir-biriga uziyilagini tushunishga imkon yaratib tahliliy-tanqidiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga zamin tayyorlaydi. Klasterni tuzish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- biologiya kursi mazmunidagi muayyan g'oya doska yoki qog'oz o'rtasiga yoziladi;
- ushbu g'oya bilan bog'liq qonuniyatlar, tushunchalar bir-biriga bog'liq holati ko'rsatkich bilan belgilanadi, so'ngra mazkur qonuniyat va tushunchalarning faktik ma'lumotlari grafik tarzda yoziladi va tarmoq hosil qilinadi;
- avval o'rganilgan mavzu va o'rganiladigan mavzu o'rtasidagi bog'lanishlar haqida xulosa chiqariladi.

Klasterdan foydalanimadigan darslarda o'quvchilar teng sonli kichik guruhlarga ajratilib, ularga o'quv topshirig'ining didaktik maqsadi va bajarilish tartibi tushuntirilgandan so'ng, ular belgilangan vaqt ichida fikrlarini jamlab, o'zları tuzgan Klasterni himoya qilib, fikrlarini dalillashga imkon yaratilanadi, g'oliblar rag'batlantiriladi. Klasterni bitta mavzu yoki bob bo'yicha yaxlit holda tuzish o'quvchilarning tizimli fikr yuritishiga zamin yaratadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida lokal darajada qo'llaniladigan texnologiyalardan biri — Venn diagrammasi bo'lib, Venn diagrammasi o'rganilayotgan mavzudan o'rinn olgan fakt, tushuncha va jarayonlarni tahlil qilish, sintezlash va taqqoslashni talab etadi. Ushbu diagrammadan bir va ikki urug' pallali o'simliklar, ho'l va quruq mevalar, gulli o'simliklarni oilalari, o'simliklarni hayotiy shakllarini tahlil qilish va taqqoslashda foydalanish mumkin.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar tomonidan tushuncha va atamalarni mustahkam o'zlashtirishga zamin tayyorlash muhim o'rinn tutadi, shu sababli o'qituvchi har bir bob va mavzular mazmunidagi tushuncha va atamalarni «Atamalar zanjiri»ga keltirishi kerak. «Atamalar zanjiri» bu atamalar va ularning ta'riflari bo'lib, ulardan o'qituvchi o'tgan mavzuni yakunlash, yangi o'rganilgan mavzu yuzasidan o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash maqsadida darsning bir qismida foydalanganligi sababli, ularni lokal texnologiyalar guruhiga kiritish maqsadga muvofiq. Mazkur

texnologiyadan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishga bir necha usulda yondashish mumkin.

- o'quvchilar kichik guruhlarga ajratilib, guruh a'zolaridan kichik konsultant tayyorlanadi. Kichik konsultant unga berilgan topshiriqdagi atamalar asosida guruh a'zolarini kartochka vositasida baholaydi. Bunda o'quvchilar aytilgan atamalaming izohini aytishi yoki izohga qarab atamani aniqlashi mumkin. Har bir to'g'ri javob uchun kartochka berilganligi sababli, kartochkalar soni ularning to'plagan balini belgilaydi.

- o'quvchilarga bob va mavzular mazmunidagi tushuncha va atamalar ro'yxati beriladi. Ularning mazmuni va mohiyatiga ko'ra o'zaro mantiqiy bog'langan zanjir holiga keltirish talab etiladi. Ushbu yondoshuv ko'p vaqtini talab etsa-da samaradorligi yuqori bo'lib, o'quvchilarning mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

- «Atamalar zanjiri»dan o'tgan mavzuni yakunlash qismida foydalanilganda o'quvchilarning kichik guruh a'zolaridan og'zaki holda atamalarni ketma-ket avvalgilarni takrorlagan holda mazmuni va mohiyatiga ko'ra o'zaro bog'liq holda yangi atama qo'shishi talab etiladi. Guruhning birinchi ishtirokchisi bitta atama bilan boshlagan o'yin yakunida guruh a'zolari soniga teng atamalar zanjiri vujudga keladi. Ikkinchchi bosqichda mazkur atamalarga ta'rif berish va ularni izohlash talab etadi.

Biologiyani o'qitishda tezkor o'yinlar va o'yin mashqlardan ham foydalanish muhim o'rin tutadi. Lokal darajadagi pedagogik texnologiyalar darsning muayyan qismida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirib, ta'lim samaradorligini orttirishga xizmat qiladi.

TALABALARING BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH UCHUN O'QUV TOPSHIRIQLARI

1. Lokal darajadagi texnologiyalarga ta'rif bering.

Lokal darajadagi texnologiyalar	Lokal darajadagi texnologiyalar
---------------------------------	---------------------------------

ta'rifi.	
«Keys»	
«Insert»,	
«Klaster»	
«Atamalar zanjiri»	



2. «Insert» texnologiyasidan foydalanib «Changlanish» mavzusini tushuntiring.

- “V” - men bilgan ma'lumotlarga mos;
- “+” - men uchun yangi ma'lumot;
- “_” - men bilgan ma'lumotlarga zid;
- “?” - men uchun tushunarsiz

3. «Sinkveyn» metodi yordamida jadvalni to'ldiring.

Tushuncha-ot	O'simlik
2 so'zdan iborat sifat	
3 so'zdan iborat fe'l	
4 so'zdan iborat munosabat	
1 so'zdan iborat sinonim	Flora

4. «Venn diagrammasi» yordamida tugunak va piyozboshni solishtiring.

Tugunak	O'xshashligi	Piyozbosh
		

5. “5W1H” metodi. Metodning maqsadi: yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni tizimlashtirishni kuzda tutuvchi metod. (jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi

texnologiyadan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishga bir necha usulda yondashish mumkin.

- o'quvchilar kichik guruhlarga ajratilib, guruh a'zolaridan kichik konsultant tayyorlanadi. Kichik konsultant unga berilgan topshiriqdagi atamalar asosida guruh a'zolarini kartochka vositasida baholaydi. Bunda o'quvchilar aytilgan atamalaming izohini aytishi yoki izohga qarab atamani aniqlashi mumkin. Har bir to'g'ri javob uchun kartochka berilganligi sababli, kartochkalar soni ularning to'plagan balini belgilaydi.

- o'quvchilarga bob va mavzular mazmunidagi tushuncha va atamalar ro'yxati beriladi. Ularning mazmuni va mohiyatiga ko'ra o'zaro mantiqiy bog'langan zanjir holiga keltirish talab etiladi. Ushbu yondoshuv ko'p vaqtini talab etsa-da samaradorligi yuqori bo'lib, o'quvchilarning mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

- «Atamalar zanjiri»dan o'tgan mavzuni yakunlash qismida foydalanylarda o'quvchilarning kichik guruh a'zolaridan og'zaki holda atamalarni ketma-ket avvalgilarni takrorlagan holda mazmuni va mohiyatiga ko'ra o'zaro bog'liq holda yangi atama qo'shishi talab etiladi. Guruhning birinchi ishtirokchisi bitta atama bilan boshlagan o'yin yakunida guruh a'zolari soniga teng atamalar zanjiri vujudga keladi. Ikkinci bosqichda mazkur atamalarga ta'rif berish va ularni izohlash talab etadi.

Biologiyani o'qitishda tezkor o'yinlar va o'yin mashqlardan ham foydalinish muhim o'rinn tutadi. Lokal darajadagi pedagogik texnologiyalar darsning muayyan qismida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirib, ta'lim samaradorligini orttirishga xizmat qiladi.

TALABALAR NING BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH UCHUN O'QUV TOPSHIRIQLARI

1. Lokal darajadagi texnologiyalarga ta'rif bering.

Lokal darajadagi texnologiyalar	Lokal darajadagi texnologiyalar
---------------------------------	---------------------------------

ta'rifi.	
«Keys»	
«Insert»,	
«Klaster»	
«Atamalar zanjiri»	



2. «Insert» texnologiyasidan foydalanib «Changlanish» mavzusini tushuntiring.

- “V” - men bilgan ma'lumotlarga mos;
- “+” - men uchun yangi ma'lumot;
- “-” - men bilgan ma'lumotlarga zid;
- “?” - men uchun tushunarsiz

3. «Sinkveyn» metodi yordamida jadvalni to'ldiring.

Tushuncha-ot	O'simlik
2 so'zdan iborat sifat	
3 so'zdan iborat fe'l	
4 so'zdan iborat munosabat	
1 so'zdan iborat sinonim	Flora

4. «Venn diagrammasi» yordamida tugunak va piyozboshni solishtiring.

Tugunak	O'xshashligi	Piyozbosh
		

5. “5W1H” metodi. Metodning maqsadi: yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni tizimlashtirishni kuzda tutuvchi metod. (jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi

vazifasini belgilaydi)

What?	Nima? (ta'rifi, mazmuni, nima uchun ishlataladi)
Where?	Qaerda (joylashgan, qaerdan olish mumkin)?
What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)
When?	Qachon? (ishlatiladi)
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to'ldiriladi, tahrirlash mumkin)

6. "KWHL" metodi

Know – nimalarni bilaman?

Want – nimani bilishni xohlayman?

How - qanday bilib olsam bo'ladi?

Learn - nimani o'rganib oldim?

Yerda o'simliklar dunyosining paydo bo'lishi mavzusida "KWHL" metodini qo'llang.

Nimalarni bilaman;	Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak:	Qanday qilib bilib va topib olaman:	Nimalarni bilib oldim:

47 - LABORATORIYA MASHG'ULOTI

BIOLOGIYADAN UMUMLASHTIRUVChI VA NAZORAT DARSЛАRNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi: Umumiy o'rta ta'lim maktabalarining biologiya o'quv fanini o'qitishda o'quvchilarda umumlashtiruvchi va nazorat darslarni tashkil etish metodikasi bilan

tanishish;

Mashg'ulot davomida talaba:

- Umumiy o'rta ta'lim maktabalarining biologiya o'quv fanidan amaliy ko'nikmalarni farqlay olishi;
- biologiya o'qitishda o'quvchilarda umumlashtiruvchi darslarni tashkil etish orqali amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish ko'nikmalarga ega bo'lishi;
- nazorat ishlarini samarali tashkil etish orqali o'quvchilarda bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarish ko'nikmalarini egallashi;
- biologiya o'qitishda o'quvchilarda umumlashtiruvchi darslarni tashkil qilish orqali bilimlarini amaliyatga qo'llay olish ko'nikmalarni tarkib toptirish ko'nikmalarga ega bo'lishi;
- biologiya o'quv fanidan umumlashtiruvchi darslarni va nazorat ishlarini samarali tashkil etishda ta'lim mazmuni, metodlari va vositalaridan uyg'un ravishda foydalanish ko'nikmalarga ega bo'lishi;
- biologiya o'quv fanidan umumlashtiruvchi darslarni va nazorat ishlarini samarali tashkil etishda metodlardan foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- o'qitishdagi nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlarini o'rgata olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim.

Laboratoriya mashg'ulotida foydalaniladigan jihozlar va qurollar: biologiya darslkari, dastur, DTS, laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar.

Laboratoriya mashg'ulotida foydalaniladigan pedagogik texnologiya: Muammoli ta'lim texnologiyasining kichik guruhlarda hamkorlikda ishslash metodi.

Laboratoriya mashg'ulotining borishi:

Tashkiliy qism.

1. Talabalarni laboratoriya mashg'ulotining maqsadi, borishi, mustaqil bajariladigan o'quv topshiriqlari bilan tanishtirish. Izoh: talabalar kichik guruhlarga bo'linib, har bir guruh mustaqil ravishda mavzu tanlaydi.

2. Laboratoriya mashg'ulotlarni tashkil qilish orqali umumlashtiruvchi darslarni tashkil etish ko'nikmalarni tarkib toptirish

ko'nikmalariga ega bo'lishadi.

3. Nazorat ishlarini samarali tashkil etish orqali o'quvchilarda bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarish ko'nikmalarini egallashadi.

4. Umumlashtiruvchi darslarni tashkil qilish orqali bilimlarini amaliyotga qo'llay olish ko'nikmalarni tarkib toptirish ko'nikmalarga ega bo'lishadi.

5. O'qitishdagi nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlarini o'rgata olish ko'nikmalariga ega bo'lishadi.

Umumlashtiruvchi darslarning vazifalari keng ko'lamli bo'lib o'quv materialini takrorlash, mustahkamlash va bilimlarni tizimga solishdan iborat.

Ushbu darslarda yaxlit tushunchalar sistemasining alohida tarkibiy qismlarini o'zlashtirganlik darajasini aniqlash, bilimlarni nazorat qilish va baholash jarayonida aniqlangan tipik kamchiliklarga barham berish, o'quvchilarni rag'batlanirish va yangi o'quv maqsadlarini hal etishga safarbar etish imkoniyati mavjud.

Umumlashtiruvchi darslar o'quvchilarning diqqatini dunyoqarashni shakllantirishga asos bo'ladigan asosiy g'oyalarga qaratish, avval o'zlashtirgan o'quv materialini chuqurroq o'zlashtirish, o'zlashtirilgan bilimlarni tizimga solish va umumlashtirish, istiqbolda yangi o'quv materialini o'rganishga zamin tayyorlash kabi didaktik vazifalarni hal etadi.

Umumlashtiruvchi darslar bir yoki bir necha bobni o'rganib bo'lgandan so'ng, o'zlashtirilgan bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirish, tushunchalar o'rtaсидаги o'zaro aloqadorlik, yaxlitlikni amalga oshirish maqsadida muammoli yoki reproduktiv tarzda va turli shakkarda tashkil etiladi.

Umumlashtiruvchi darslar tipiga mansub darslar turi jumlasiga didaktik o'yin texnologiyasiga mansub matbuot konferensiyasi, o'yin mashqlar misol bo'ladi.

Ushbu darslar quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

1. O'quv maqsadlarining qo'yilishi.
2. Bobning asosiy g'oya va tushunchalarini takrorlash.
3. Bob mazmunidagi yetakchi g'oya va tushunchalarni

aniqlash, tayanch tushuncha va bilimlarni tizimga solish, rivojlantirish va chuqurlashtirish.

4. O'zlashtirilishi ancha qiyin va muhim bo'lgan o'quv materialini muhokama qilish.

5. Yakun yasash.

Ushbu darslarning asosiy xususiyati darsning hamma bosqichida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni nazorat qilish va baholash, tizimlashtirish va umumlashtirish amalga oshiriladi.

Dars strukturasi – bu uning yaxlitligi, turli tip va turlarda tashkil etilganda ham asosiy o'quv-tarbiyaviy xususiyatlarini saqlash ta'minlanadigan darsning tarkibiy qismlari yig'indisi tushuniladi.

Darsning tarkibiy qismlari jumlasiga tashkiliy qism, uy vazifasini tekshirish, yangi o'quv materialini o'rganish, uni mustahkamlash va uygaga vazifa berish kiradi.

Tashkiliy qism darsni tashkil etishda uncha ko'p vaqt sarflanmaydigan, lekin darsda muhim o'rin tutadigan tarkibiy qism bo'lib, unda biologiya o'quv xonasi va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi (darslik, daftar, o'tgan va yangi mavzu bo'yicha ko'rgazma vositalari, jihozlar, o'quv quroollarining mavjudligi)ni tekshirish, o'tgan mavzu yuzasidan topshiriqlarni aniqlash, o'quv maqsadlarini qo'yish, darsning borishi, o'rganiladigan mavzu, dars davomida bajariladigan o'quv topshiriqlari bilan tanishtirish, o'quvchilarning o'quv motivlarini faollashtirish, intizomini saqlash kabi vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Uy vazifasini tekshirish bosqichida o'quvchilarning avvalgi mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalar, unga bog'liq holda yangi o'quv materialini o'zlashtirish imkoniyati aniqlanadi.

O'quvchilarning avvalgi mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini aniqlash, baholashda o'qituvchi turli shakl: yalpi, individual, kichik guruhlarda nazorat turlaridan foydalanishi mumkin.

O'quvchilarning o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini nazorot qilish va baholash uchun o'qituvchi mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda test topshiriqlari, didaktik va tarqatma materiallar, yozma ish, og'zaki savol-javob, turli didaktik o'yinlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Darsda o'rganiladigan o'quv materialining avvalgi darsda o'rganilgan o'quv materiali bilan mantiqan bog'langanligi hisobga olingen holda darsning uy vazifasini so'rash qismi turlicha o'tkaziladi:

1. Darsda o'rganiladigan o'quv materialining avvalgi darsda o'rganilgan o'quv materiali bilan mantiqan bog'langan bo'lsa, uy vazifasini so'rash yetakchi o'rinda turadi va u tashkiliy qismdan so'ng o'tkazilishi maqsadga muvofiq.

2. Darsda o'rganiladigan o'quv materialining avvalgi darsda o'rganilgan o'quv materiali bilan uzviy bog'langan bo'lsa, uy vazifasini so'rash yangi mavzuni o'rganish jarayoni bilan qo'shib olib borilai.

3. Darsda o'rganiladigan o'quv materialining avvalgi darsda o'rganilgan o'quv materiali bilan bog'liq bo'lman, avtonom mazmunga ega bo'lsa, avval yangi mavzu o'rganilib, so'ngra uy vazifasini so'rash mustahkamlash bilan birga tashkil etiladi.

Umumlashtiruvchi dars jarayonida o'quv materialidagi tipik faktlarni aniqlash, qiyoslash, dastlabki xulosalar, hodisaning rivojlanish dinakmikasini tasavvur qilish, umumlashtirish natijalarini shartli belgilar yordamida rasmiylashtirish, umumiyl xulosa chiqarishga zamin tayyorlaydi. Mazkur dars jarayonida:

a) induktiv metod - xususiy faktlarni muammoli bayon qilish, o'quvchilar faoliyatini xususiydan umumiyl xulosalar chiqarishga yo'naltirish, muammoli topshiriqlarni berish uslublarini;

b) deduktiv metod umumiyl qonunlarni bayon qilish, o'quvchilarning faoliyatini umumiyydan xususiy xulosa chiqarishga yo'naltirish uslublarini;

v) tahlil metodi axborotni anglab idrok etish, o'rganilgan obyektlarning o'xshashlik va farqli tomonlarni aniqlash, o'rganilgan obyektlarni tarkibiy qismlarga ajratish, ular o'rtasidagi boshlanishlarni aniqlash uslublarini;

g) bosh g'oyani ajratish metodi o'quv materialidagi asosiy g'oyani ajratish va saralash, axborotni mantiqiy tugallangan fikrli qismlarga ajratish, asosiy g'oya va ikkinchi darajali fikrlarni ajratish, tayanch so'zlar va tushunchalarini ajratish, asosiy fikr haqida xulosa chiqarish uslublarini;

d) qiyoslash metodi qiyosiy obyektlarni aniqlash, obyektlarning asosiy belgilarini aniqlash, taqqoslash, o'xshashlik va farqlarni aniqlash, qiyoslash natijalarini shartli belgilar bilan rasmiylashtirish uslublarini;

g) umumlashtirish metodi o'quv materialidagi tipik faktlarni aniqlash, qiyoslash, dastlabki xulosalar, hodisaning rivojlanish dinakmikasini tasavvur qilish, umumlashtirish natijalarini shartli belgilar yordamida rasmiylashtirish, umumiyl xulosa chiqarish uslublarini o'zida mujassamlashtiradi.

Nazorat ta'lrim jarayonining ajralmas qismlaridan biri sanaladi. Nazoratning muntazamligi va izchilligi o'quvchilarning faol aqliy mehnat qilishga undaydi, ularda ma'suliyat, burch, diqqat, xotira, o'z-o'zini nazorat qilish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga zamin tayyorlaydi.

Nazoratning to'liqliligi, haqqoniyligi, keng ko'lamliligi, muntazamli-ligi barcha metodlar kabi bu metodlarning ta'limiyl, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va o'quvchilarga tafovutlab yondashish kabi funksiyalarini amalga oshirish imkonini beradi.

Bu metodlar guruhiba og'zaki va yozma nazorat, laboratoriya va amaliy mashg'ulot yordamida nazorat, o'z-o'zini nazorat, o'zaro nazorat varag'i va testlar yordamida nazorat metodlari misol bo'ladi va quyidagi:

a) og'zaki va yozma nazorat metodlari o'quvchilarning bilimlarni mantiqiy izchil bayon qilishga o'rgatish, nutqni o'stirish, o'quvchilar javobidagi tipik xatoliklarni aniqlash va unga barham berish uslubi.

b) laboratoriya va amaliy mashg'ulot yordamida nazorat metodlari o'quv va amaliy ko'nikmalarini aniqlash, o'quvchilarning o'quv jihozlari va asboblar bilan ishlash ko'nikmalarini aniqlash, bajarilgan topshiriqlarning sifatini aniqlash va baholash, ish mazmuniga bog'liq holda obyektlar va asboblarni to'g'ri tanlash, ishni yakunlash va natijasini rasmiylashtirish, olingen natijalarining to'g'riligini aniqlash uslubi.

v) o'z-o'zini nazorat qilish metodlari o'kuv materiali yuzasidan qisqa reja, savollar tuzish, asosiy g'oyani ajratish, savollarga javoblar

topish, masalalar yechish va ularni namunaga muvofiq tekshirib ko'rish, taqqoslash, olingan natijalarning to'g'rilingini tekshirish uslubi.

g) o'zaronazoratvarag'i yordamida nazoratmetodlario 'rganilgan bob, mavzu bo'yicha nazorat savollarini tuzish, savollarning metodik jihatdan to'g'riliqi, mantiqiy ketma-ketligi, o'quvchilar bilimini nazorat qilishning haqqoniyligi, keng ko'lamliligi uslubi.

d) testlar yordamida nazorat metodlari o'rganilgan bob, mavzu bo'yicha nazorat testlarini tuzish, test savollari va javoblarning metodik jihatdan to'g'riliqi, mantiqiy ketma-ketligi, o'quvchilar bilimini nazorat qilishning haqqoniyligi, keng ko'lamliligi kabi uslublardan iborat.

Barcha metodlar kabi o'qitishdagi nazorat va o'z-o'zini nazorat metod-larining ham ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifasi mavjud.

Nazoratning ta'limiy vazifasini o'qituvchi barcha o'quvchilarni o'z o'rtog'ining javobini tinglashga, javobdagi xato va kamchiliklarni to'g'rilaishga, tuzatishlar va qushimchalar kiritishni taklif etish orqali ta'minlaydi. Shutufayli ushbu jarayonda o'kuvchilarning o'zlashtirgan bilimlari tizimga solinadi, takrorlanadi va mustahkamlanadi.

Nazoratning tarbiyaviy vazifasi uning o'kuvchilarni rag'batlantirishni ta'minlash, tahsil olishdagi ma'suliyat va burch tarkib toptirish, hissiyotni shakllanishida namoyon bo'ladi.

Nazoratning rivojlantiruvchi funksiyasi o'quvchilarda barqaror diqqat, xotirani mustahkamlash, o'z-o'zini nazorat qilish va baholash ko'nikmalarini egallashlarida ko'zga tashlanadi.

TALABALARNING BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH UCHUN O'QUV TOPSHIRIQLARI

1. Intefaollikning mohiyatini tushuntiring.
2. O'qitishning faol metodlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.
3. Muammoli izlanish metodlarining didaktik vazifalarini aniqlang.

4. Umumlashtiruvchi darslarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.

5. O'qitishda o'quvchilarning faoliyatini rag'batlantirish va asoslash metodlari guruhiga qaysi metodlar kirishini aniqlang.

6. O'qitishdagi nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlarining ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini aniqlang.

7. Testlar yordamida nazorat metodlari o'rganilgan bob, mavzu bo'yicha nazorat testlarini tuzish, test savollari va javoblarning metodik jihatdan to'g'rilingini aniqlang.

48 - LABORATORIYA MASHG'ULOT BIOLOGIYADAN DARS DAN TASHQARI ISHLARNING TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA TUTGAN O'RNI

Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi: Talabalarni umumiyo'rta ta'lismaktablarida biologiyadan darsdan tashqari ishlarning ta'lim-tarbiya jarayonida tutgan o'rni bilan tanishish.

Mashg'ulot davomida talaba:

- Umumiy o'rta ta'lismaktablarining o'quvchilarida ilmiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish usullarini tanlay olishi;
- biologiyani o'qitishda o'quvchilarda ma'naviy-ahloqiy tarbiyani tarkib toptirish usullarini tanlay olishi;
- biologiyani o'qitishda o'quvchilarda vatanparvarlik tarbiyasini tarkib toptirish usullarini tanlay olishi;
- biologiyani o'qitishda o'quvchilarda ekologik tarbiyani tarkib toptirish usullarini tanlay olishi;
- biologiyani o'qitishda o'quvchilarda estetik tarbiyani tarkib toptirish usullarini tanlay olishi;
- biologiyani o'qitishda o'quvchilarda iqtisodiy va jismoniy tarbiyani tarkib toptirish usullarini tanlay olishi;
- biologiyani o'qitishda o'quvchilarda gigienik va mehnat tarbiyani tarkib toptirish usullarini tanlay olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim;

Laboratoriya mashg'ulotida foydalilaniladigan jihozlar va qurollar: biologiya darsligi, dastur, DTS, laboratoriya mashg'ulotlarni

topish, masalalar yechish va ularni namunaga muvofiq tekshirib ko‘rish, taqqoslash, olingen natijalarning to‘g‘riligini tekshirish uslubi.

g) o‘zaronazoratvarag‘iyordamidanazoratmetodlario‘rganilgan bob, mavzu bo‘yicha nazorat savollarini tuzish, savollarning metodik jihatdan to‘g‘riliqi, mantiqiy ketma-ketligi, o‘quvchilar bilimini nazorat qilishning haqqoniyligi, keng ko‘lamliligi uslubi.

d) testlar yordamida nazorat metodlari o‘rganilgan bob, mavzu bo‘yicha nazorat testlarini tuzish, test savollari va javoblarning metodik jihatdan to‘g‘riliqi, mantiqiy ketma-ketligi, o‘quvchilar bilimini nazorat qilishning haqqoniyligi, keng ko‘lamliligi kabi uslublardan iborat.

Barcha metodlar kabi o‘qitishdagi nazorat va o‘z-o‘zini nazorat metod-larinining ham ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifasi mavjud.

Nazoratning ta’limiy vazifasini o‘qituvchi barcha o‘quvchilarni o‘z o‘rtog‘ining javobini tinglashga, javobdagi xato va kamchiliklarni to‘g‘rilashga, tuzatishlar va qushimchalar kiritishni taklif etish orqali ta’minlaydi. Shu tufayli ushbujarayonda o‘kuvchilarning o‘zlashtirgan bilimlari tizimga solinadi, takrorlanadi va mustahkamlanadi.

Nazoratning tarbiyaviy vazifasi uning o‘kuvchilarni rag‘batlantirishni ta’minalash, tahsil olishdagi ma’suliyat va burch tarkib toptirish, hissiyotni shakllanishida namoyon bo‘ladi.

Nazoratning rivojlantiruvchi funksiyasi o‘quvchilarda barqaror diqqat, xotirani mustahkamlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish va baholash ko‘nikmalarini egallashlarida ko‘zga tashlanadi.

TALABALARING BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH UCHUN O‘QUV TOPSHIRIQLARI

1. Intefoallikning mohiyatini tushuntiring.
2. O‘qitishning faol metodlarining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlang.
3. Muammoli izlanish metodlarining didaktik vazifalarini aniqlang.

4. Umumlashtiruvchi darslarining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlang.

5. O‘qitishda o‘quvchilarning faoliyatini rag‘batlantirish va asoslash metodlari guruhiga qaysi metodlar kirishini aniqlang.

6. O‘qitishdagi nazorat va o‘z-o‘zini nazorat metodlarining ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini aniqlang.

7. Testlar yordamida nazorat metodlari o‘rganilgan bob, mavzu bo‘yicha nazorat testlarini tuzish, test savollari va javoblarning metodik jihatdan to‘g‘riliqini aniqlang.

48 - LABORATORIYA MASHG‘ULOT BIOLOGIYADAN DARS DAN TASHQARI ISHLARNING TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA TUTGAN O‘RNI

Laboratoriya mashg‘ulotining maqsadi: Talabalarni umumiy o‘rta ta’lim maktablarida biologiyadan darsdan tashqari ishlarning ta’lim-tarbiya jarayonida tutgan o‘rni bilan tanishish.

Mashg‘ulot davomida talaba:

- Umumiyl o‘rta ta’lim maktablarining o‘quvchilarida ilmiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish usullarini tanlay olishi;
- biologiyani o‘qitishda o‘quvchilarda ma’naviy-ahloqiy tarbiyani tarkib toptirish usullarini tanlay olishi;
- biologiyani o‘qitishda o‘quvchilarda vatanparvarlik tarbiyasini tarkib toptirish usullarini tanlay olishi;
- biologiyani o‘qitishda o‘quvchilarda ekologik tarbiyani tarkib toptirish usullarini tanlay olishi;
- biologiyani o‘qitishda o‘quvchilarda estetik tarbiyani tarkib toptirish usullarini tanlay olishi;
- biologiyani o‘qitishda o‘quvchilarda iqtisodiy va jismoniy tarbiyani tarkib toptirish usullarini tanlay olishi;
- biologiyani o‘qitishda o‘quvchilarda gigienik va mehnat tarbiyani tarkib toptirish usullarini tanlay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari lozim;

Laboratoriya mashg‘ulotida foydalilaniladigan jihozlar va qurollar: biologiya darsligi, dastur, DTS, laboratoriya mashg‘ulotlarni

o'tkazish uchun zarur jihozlar.

Laboratoriya mashg'ulotida foydalilaniladigan pedagogik texnologiya: Loyihalash ta'lif texnologiyasida ishlash metodi.

Laboratoriya mashg'ulotining borishi:

Tashkiliy qism.

1. Talabalarni laboratoriya mashg'ulotining maqsadi, borishi, mustaqil bajariladigan o'quv topshiriqlari bilan tanishtirish. Izoh: talabalar kichik guruhlarga bo'linib, har bir guruh mustaqil ravishda mavzu tanlaydi.

2. Talabalar tirik tabiat burchagida ta'lif – tarbiyaviy ko'nikmalarni tarkib toptirishni tashkil qilishni o'rganadi.

3. Talabalar tirik tabiat burchagidagi o'simliklarni ko'paytirish va parvarishlash orqali amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish usullarini tanlay olishni o'rganadi;

4. Talabalar tirik tabiat burchagidagi hayvonlarni ko'paytirish va parvarishlash orqali amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish usullarini tanlay olishadi;

5. Talabalar estetik tarbiya berish orqali amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish usullarini tanlay olish ko'nikmalariga ega bo'lishadi.

Biologiyani o'qitishda avvalo, o'quvchilarни biologiyaning asosiy g'oya, nazariya, qonuniyatları va tushunchalari, amaliyot, xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida tutgan o'rni, biologik bilimlarni o'zlashtirishning ahamiyati bilan tanishtirish nazarda tutiladi va shu orqali o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va insonnинг tabiat va jamiyatga ongli munosabatini tarkib toptirish bilan uziyi bog'langan holda ta'lif-tarbiyaviy tizim vujudga keltiriladi.

Biologiyani o'qitishda darsdan tashqari ishlarda o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashiga asos bo'ladigan tushunchalarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1) jonsiz va jonli tabiatning kimyoviy tarkibidagi o'xshashliklar, yuz beradigan hodisalarining umumiyligi va uziyiligi;

2) tirik organizmlarda sodir bo'ladigan hayotiy jarayonlar va o'zgaruvchanliklarni tushunishda, muammoli o'quv topshiriqlarini hal etishda biologik qonunlar bilan bir qatorda, fizik-kimyoviy qonunlardan foydalanan orqali fanlararo bog'lanishni amalgalashga yordam beradi. O'qituvchi o'quvchilar faoliyatini o'simlik organizmining tuzilishi va funksiyasi, ko'payish usullari, yashash muhitiga moslashishi xaqidagi bilim-larini umumlashtirish, ilmiy dunyoqarashga oid xulosalar chiqarishga yo'l-laydi. O'quvchilarning

oshirish;

3) moddiy borliqdagi hodisa va voqealarni o'rganishning zarurati, ekologik fojealarning sabablari va ularni bartaraf etish tadbirleri;

4) inson tomonidan tabiat qonunlarini o'rganish va undan samarali va oqilona foydalanish yo'llari;

5) tabiiy hodisalarining o'zaro bog'liqligi va rivojlanishida sabab-oqibat bog'lanishlar.

6) inson – ijtimoiy mavjudot.

7) tabiatni muhofaza qilish – bu sayyoramizda hayotni asrashning asosi.

Umumiy o'rta ta'lif maktablarida biologiya o'quv kurslari mazmun jihatdan faktlarga boy bo'lishi bilan bir qatorda, har bir mavzuda o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish imkonini beradi.

Biologiya o'quv fani dasturidan o'rin olgan «O'simlik-yaxlit organizm» mavzusini o'rganishda o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga asos bo'ladigan bilimlar umumlashtiriladi, tabiatni muhofaza qilishga doir ko'nikmalarni amaliyotga qo'llash imkoniyati tug'iladi. Mazkur biologik bilimlar muayyan darajada o'quvchilarning atrof-muhitga bo'lgan munosabati, hatti-harakatini belgilaydi. Shu sababli o'qituvchi ushu mavzuni o'rganishda jiddiy tayyorgarlik ko'rishi, o'quvchilarning e'tiborini mazkur bilimlarga tayanib, tabiiy boyliklarning tabiat va inson hayotidagi ahamiyatini anglagan holda ularni asrash lozimligi haqida xulosa chiqarishiga yo'naltirishi lozim. Mavzuni o'rganish jarayonida o'simlikning barcha organlari o'zaro bog'liqligi, organizm bilan atrof-muhit o'rtasida uziyilik mavjudligi yoritiladi. Mazkur bilimlar o'quvchilarning o'simlikning yaxlit organizm ekanligi, biologik jarayonlarning borishida organlarning ishtiroti, biologik hodisalarining sodir bo'lishida sabab-oqibat bog'lanishlarini anglashga yordam beradi. O'qituvchi o'quvchilar faoliyatini o'simlik organizmining tuzilishi va funksiyasi, ko'payish usullari, yashash muhitiga moslashishi xaqidagi bilim-larini umumlashtirish, ilmiy dunyoqarashga oid xulosalar chiqarishga yo'l-laydi. O'quvchilarning

o'simliklarning hujayraviy tuzilishi haqidagi bilim-larini umumlashtirish maqsadida hujayra, to'qima, organ, organlar sistemasi va organizm o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va quyidagi jadvalni to'ldirish tavsiya etadi.

O'quvchilar darslik, ko'rgazmali vositalar va tarqatma materiallar yordamida mustaqil ishlab, hujayra, to'qima, organ, organlar sistemasi va organizm o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlab, muayyan xulosaga keladilar.

O'quvchilarning o'simliklarda boradigan hayotiy jarayonlarning mohiyatini anglashlari, jumladan, fotosintez jarayonida o'simlik organlarining bajaradigan vazifalarini aniqlash uchun quyidagi jadvalni to'ldirish tavsiya etiladi.

O'simlik organlari	Fotosintez jarayonidagi vazifasi	Organik moddalar harakati va sarfi	O'zaro bog'liqlik
Ildiz			
Poya			
Barg			
Gul			
Meva			

Dars yakunida o'simlik organlarida sodir bo'ladigan hayotiy jarayonlar, ularga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi muhit omillari qayd etilib, bilimlar umumlashtiriladi va o'simlik – yaxlit organizm ekanligi haqida xulosa chiqariladi. O'qitishning bu shaklda tashkil etilishi o'quvchilarning faktlar, hodisalarning o'zaro bog'liqligi ustida mulohaza yuritishiga yordam beradi. Mulohaza yuritish o'quvchilarning o'quv materialini ongli va puxta o'zlashtirishiga imkon yaratadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri tabiatni o'rganish jarayonida o'quvchilarda tabiat, mehnat, insonlarga nisbatan e'tiborli munosabatda bo'lish, tabiiy boyliklardan tejab-tergab foydalanish, topshirilgan vazifalarni to'la-to'kis, sifatli bajarish, rasmiylashtirish, ongli intizom, burch

va ma'suliyatni tarkib toptirish, insonning qadr-qimmatini hurmat qilishga o'rgatish sanaladi. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda o'quv faoliyatini rag'batlantirish va asoslash, ijobiyl xatti-harakatlarni qo'llab-quvvatlash, salbiy holatlarni muhokama qilish, o'qituvchining shaxsiy namunasi va ijobiyl xatti-harakatlarni ko'rgazmali ko'rsatish muhim rol o'ynaydi.

O'quvchilarning organik olam va uning ob'ektlarini o'rganishda, o'simliklar, hayvonlarning rivojlanishi, ularning xilma-xilligi, hayotini saqlab qolish va ko'paytirish uchun qayg'urishi, g'amxo'rlik qilishi, yordam berishi haqidagi ilmiy bilimlar, muayyan ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishga e'tiborini qaratishi zarur. Tabiat, inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishda, Yerda hayotni saqlab qolishda biologik bilimlardan foydalanishning ahamiyati, insonning tabiatga nisbatan insonparvarlashtirilgan munosabatining roli ko'rsatib o'tiladi.

Vatanparvarlik tarbiysi. Maktab biologiya o'quv fanlari o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim o'rinn tutadi.

Biologiyani o'qitishda o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Respublikamizning go'zal tabiatni, yer osti va usti boyliklari, xalq xo'jaligini rivojlantirishda qo'lga kiritilgan yutuqlar, barkamol shaxsnı kamolga yetkazish maqsadida qabul qilingan qabul qilingan qonunlar, tabiatni muhofaza qilish yuzasidan o'tkazilayotgan tadbirlar bilan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o'rta asrlarda yashagan ulug' allomalarining ma'naviy qarashlari, hadislar, hikmatli hikoyalardan foydalanish tavsiya etiladi.

O'rganilayotgan mavzu mazmuniga bog'liq holda tabiatni ilmiy-nazariy, hissiy-estetik jihaddan o'rganishni to'g'ri yo'lga qo'yish – insonning tabiatga nisbatan ongli, ma'naviy-axloqiy munosabatlari me'yorlarining asosini tashkil etadigan yuksak vatanparlik burchning shakllanishiga zamin tayyorlaydi.

O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning samaradorligi quyidagilarga bog'liq.

1. O'quvchilarning hissiyotiga ta'sir ko'rsatadigan o'quv materiallarini tanlash.

o'simliklarning hujayraviy tuzilishi haqidagi bilim-larini umumlashtirish maqsadida hujayra, to'qima, organ, organlar sistemasi va organizm o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va quyidagi jadvalni to'ldirish tavsiya etadi.

O'quvchilar darslik, ko'rgazmali vositalar va tarqatma materiallar yordamida mustaqil ishlab, hujayra, to'qima, organ, organlar sistemasi va organizm o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlab, muayyan xulosaga keladilar.

O'quvchilarning o'simliklarda boradigan hayotiy jarayonlarning mohiyatini anglashlari, jumladan, fotosintez jarayonida o'simlik organlarining bajaradigan vazifalarini aniqlash uchun quyidagi jadvalni to'ldirish tavsiya etiladi.

O'simlik organlari	Fotosintez jarayonidagi vazifasi	Organik moddalar harakati va sarfi	O'zaro bog'liqlik
Ildiz			
Poya			
Barg			
Gul			
Meva			

Dars yakunida o'simlik organlarida sodir bo'ladigan hayotiy jarayonlar, ularga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi muhit omillari qayd etilib, bilimlar umumlashtiriladi va o'simlik – yaxlit organizm ekanligi haqida xulosa chiqariladi. O'qitishning bu shaklda tashkil etilishi o'quvchilarning faktlar, hodisalarning o'zaro bog'liqligi ustida mulohaza yuritishiga yordam beradi. Mulohaza yuritish o'quvchilarning o'quv materialini ongli va puxta o'zlashtirishiga imkon yaratadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri tabiatni o'rganish jarayonida o'quvchilarda tabiat, mehnat, insonlarga nisbatan e'tiborli munosabatda bo'lish, tabiiy boyliklardan tejab-tergab foydalanish, topshirilgan vazifalarni to'la-to'kis, sifatli bajarish, rasmiylashtirish, ongli intizom, burch

va ma'suliyatni tarkib toptirish, insonning qadr-qimmatini hurmat qilishga o'rgatish sanaladi. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda o'quv faoliyatini rag'batlantirish va asoslash, ijobiy xatti-harakatlarni qo'llab-quvvatlash, salbiy holatlarni muhokama qilish, o'qituvchining shaxsiy namunasi va ijobiy xatti-harakatlarni ko'rgazmali ko'rsatish muhim rol o'yaydi.

O'quvchilarning organik olam va uning ob'ektlarini o'rganishda, o'simliklar, hayvonlarning rivojlanishi, ularning xilma-xilligi, hayotini saqlab qolish va ko'paytirish uchun qayg'urishi, g'amxo'rlik qilishi, yordam berishi haqidagi ilmiy bilimlar, muayyan ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishga e'tiborini qaratishi zarur. Tabiat, inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishda, Yerda hayotni saqlab qolishda biologik bilimlardan foydalanishning ahamiyati, insonning tabiatga nisbatan insonparvarlashtirilgan munosabatining roli ko'rsatib o'tiladi.

Vatanparvarlik tarbiyasi. Maktab biologiya o'quv fanlari o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim o'rinn tutadi.

Biologiyani o'qitishda o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Respublikamizning go'zal tabiatni, yer osti va usti boyliklari, xalq xo'jaligini rivojlantirishda qo'lga kiritilgan yutuqlar, barkamol shaxsni kamolga yetkazish maqsadida qabul qilingan qabul qilingan qonunlar, tabiatni muhofaza qilish yuzasidan o'tkazilayotgan tadbirlar bilan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o'rta asrlarda yashagan ulug' allomalarining ma'naviy qarashlari, hadislar, hikmatli hikoyalardan foydalanish tavsiya etiladi.

O'rganilayotgan mavzu mazmuniga bog'liq holda tabiatni ilmiy-nazariy, hissiy-estetik jihatdan o'rganishni to'g'ri yo'lga qo'yish – insonning tabiatga nisbatan ongli, ma'naviy-axloqiy munosabatlari me'yorlarining asosini tashkil etadigan yuksak vatanparlik burchning shakllanishiga zamin tayyorlaydi.

O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning samaradorligi quyidagilarga bog'liq.

1. O'quvchilarning hissiyotiga ta'sir ko'rsatadigan o'quv materiallarini tanlash.

2. Tanlangan o'quv materialining o'rganilayotgan o'quv materiali bilan uzviyilagini ta'minlash orqali milliy g'ururni shakllantirish.

3. O'qituvchi tomonidan o'quv materiallarini ehtirosli bayon etish.

4. O'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishda samarali metod va vositalardan foydalanish.

5.O'quvchilarни o'rganilayotgan mavzu mazmuni bilan bog'liq holda kasb tanlashga, Vatanning ravnaqi va mustaqillikning mustahkamlanishiga hissa qo'shishga safarbar etish.

6. Sharq ma'naviyati durdonalari, hadislar, hikmatli hikoyalari va afsonalardan foydalanish.

Vatanparvarlik tarbiyasi o'qitishning barcha shakllarida, shu jumladan, sinfdan tashqari mashg'ulotlarida amalga oshirish, bunda vatanni madh etuvchi she'rlar, qo'shiqlar, san'at asarlari, ma'naviyat durdonalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ekologik tarbiya. Sayyoramizda ekologik muammolar va tanglik yuz berayotgan jarayonda o'quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirish zarurati kelib chiqadi.

Ekologik madaniyat umumiyligi madaniyatning muhim tarkibiy qismi sanalib, shaxsning ma'naviy hayoti va kundalik hayotida xattiharakat shaklida namoyon bo'ladigan, hayotning va tabiatning bebaaho ahamiyatini anglash, ularni asrab avaylash, muhofaza qilishda faollik ko'rsatish kabi sifatlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu madaniyat albatta o'quvchilarining ekologik ta'lim va tarbiyasi asosida vujudga keladi. Ekologik ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi o'quvchilarida tabiatga nisbatan burch va ma'suliyat, ongi munosabatni tarkib toptirish, sharqona odob-axloq me'yorlariga mos xulq-atvorni shakllantirish sanaladi.

O'qituvchi har bir darsda, sinfdan tashqari mashg'ulotlar va ekskursiyalarda o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish bo'yicha rejali va muntazam ish olib borishi zarur.

Biologiyani o'qitishda ekologik masalalar keng qamrovli bo'lib, hamma o'quv fanlarida mujassamlashgan. Ushbu o'quv materialari o'quvchilarining tabiatdagi uyg'unlik, unda sodir bo'ladigan

hodisalar, o'zgarishlar, ular o'rtasidagi uzviylik va mazkur uzviylikni, o'zaro bog'lanishlarni buzib yuborish osonligini tushunishga imkon beradi. Masalan, qishloq xo'jaligi dalalarida zaharli pestitsid va gerbitsidlardan foydalanish, ko'zlangan natijaga olib kelishi mumkin, lekin bu jarayonda dorivor o'simliklar va foydali hasharotlar ham nobud bo'ladi. Ularni yegan qushlar ham qirilib ketadi. Natijada shu arealdagi oziq zanjiri buzilib ketishi, o'simliklar qoplami ham muayyan darajada o'zgarishlarga uchrashi tayin.

O'qituvchi biologiya o'quv fanini o'qitish orqali ekologik tushunchalar: organizm va muhitning o'zaro bog'liqligi, tabiiy jamoalarning almashinushi, biogeotsenozlar, ekologik sistemalarning o'zgarishi, biosfera, insonning ekologik omil ekanligi va h.k. o'quvchilar tomonidan mustahkam o'zlashtirishlari, ko'nikma va malakalarni egallahiga erishishi lozim.

O'quvchilarida ekologik madaniyatni tarkib toptirishda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

1) o'quvchilar tomonidan tabiatning yaxlitligi, jamiyat va tabiatning o'zaro aloqadorligi haqidagi ilmiy bilimlarni o'zlashtirish, tabiatga nisbatan ongli munosabatni tarkib toptirishga asos bo'ladigan ekologik bilim, ko'nikma va malakalarni egallahga erishish;

2) tabiat va uning tarkibiy qismlarining keng ma'nodagi ahamiyatini tushunish, tiklanadigan va tiklanmaydigan boyliklarning farqiga yetish;

3) tabiiy boyliklardan tejamkorlik bilan foydalanish, atrof-muhitning tozaligini asrash, ko'kalamzorlashtirish va tabiiy boyliklarni ko'paytirish uchun amalga oshiriladigan tadbirlar, ijtimoiy foydali mehnatda faol ishtirok etish motivlarini shakllantirish.

Ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirishda quyidagi ko'rsatmalarga amal qilish zarur.

1. Tabiat va atrof muhitni o'rganish va o'zlashtirish insonning bilish va amaliy faoliyati birligi asosida tashkil etiladi. Shu sababli o'qituvchi biologiyani o'qitishda tabiatning har bir tarkibiy qismi, shu jumladan, o'simliklar, hayvonlarning tuzilishi va hayotiy jarayonlari o'rganilganda o'quvchilarga ilmiy bilimlar berish bilan birga, mazkur bilimlarni amaliyotga tatbiqi haqida ham ma'lumot berishi, har bir

organizmga tashqi muhitning ko'rsatadigan ta'siri, organizmlarning yashash muhitiga moslashishini tushuntirilishi.

2. Insonning jonsiz va jonli tabiatga, o'simliklar olami va hayvonot dunyosiga ko'rsatgan ijobjiy va salbiy ta'sirini yoritish asosida, tabiat, inson va jamiyat munosabatlari tushuntirilishi, fan sohalari bo'yicha to'plangan ilmiy bilimlar integratsiyasi va fanlararo bog'lanishlar amalga oshirilishi.

3. Sayyoramizda vujudga kelgan lokal va global ekologik muammolarni hal etishda dunyo hamjamiyati, davlat va nodavlat tashkilotlarining faoliyati, ya'ni ushbu ekologik muammolarning hal etilishida davlatlararo umumiy aloqadorlik masalalari haqida ma'lumot berilishi.

4. O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish barkamol shaxsni kamolga yetkazish borasida olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaviy ishlarning asosiy tarkibiy qismi ekanligini nazarda tutish zarur.

Estetik tarbiya. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim oluvchilarda boy estetik dunyoqarashni hosil qilish masalasiga keng e'tibor berilgan. Ma'lumki, estetika – go'zallik elementlari, sharoitlari va qonunlari to'g'risidagi fandir. Estetik tarbiya go'zallik hissi, tuyg'ular, badiiy didni rivojlantirishga qaratilgan.

Estetika mehnatda, ijtimoiy va shaxsiy hayotda o'z atrofida go'zallik barpo etishga intilishni vujudga keltiradi. Go'zallikni ko'ra bilish, idrok qilish, barpo etish va chiroyli ish ko'rish – tarbiya vazifalaridan biridir.

Biologiya darslarida o'qituvchi o'simliklarning organlari, gul va mevalar, o'simliklar qoplamin o'rganishda ularning go'zalligini yoritadi. Bunda o'quvchilarning e'tiborini o'simliklarning tashqi go'zalligiga qaratib, ularagi yashirin go'zallik hayoti, muhit bilan uyg'unlashishi, tabiat va inson hayotida tutgan o'rnini idrok qilishga o'rgatadi.

O'quvchilarni estetik tarbiyalashda biologiya o'quv xonasi, tirik tabiat burchagi, maktab tajriba yer maydonlarida vujudga keltirilgan tartib, shinamlik va go'zallik muhim rol o'ynaydi. O'quv xonasidagi o'simliklar, ko'rgazma vositalari estetik talablarga javob berishi va

ma'lum bir mazmunda joylashtirilgan bo'lishi kerak.

Estetik tarbiyaning vazifasi:

- 1) o'quvchilarni go'zallikni ko'rish va idrok qilishga, chiroylini xunukdan farq qilishga o'rgatish, bu bilan estetikani idrok qilish bilan bog'lash;
- 2) tabiatda, mehnat jarayonida, o'z atrofida, shaxsiy va ijtimoiy hayotda go'zallikni o'rnatish va himoya qilishga, estetik didni mehnat va turmush madaniyati bilan bog'lash;
- 3) turli hayotiy vaziyatlarda chiroyli ish tutishga, estetikani ma'naviy-ahloqiy qarashlar bilan uyg'unlashtirishga o'rgatishdan iborat.

Biologiyani o'qitishda estetik tarbiya serqirrali bo'lib, uni dars, darsdan va sinfdan tashqari ishlar va ekskursiyalarda amalga oshirish imkoniyati mavjud.

Iqtisodiy tarbiya. Respublikamiz bozor iqtisodiyotiga o'tishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarga iqtisodiy tarbiya berish zaruratini keltirib chiqaradi. O'quvchilar biologiya, zoologiya, umumiy biologiya o'quv fanlarida o'simlik va hayvonlarning mahsuldarligi, dalalarning unumdarligini oshirish, tuproq va yerga nisbatan munosabatini tubdan o'zgartirish, olinadigan mahsulotlarni ham miqdor, ham sifat jihatdan orttirish masalalari bilan tanishadilar. O'qituvchi o'rganilayotgan mavzu mazmuniga bog'liq holda iqtisodiy tarbiyani amalga oshirishi zarur.

Iqtisodiy tarbiya o'qitishning barcha shakllarida, shu jumladan, sinfdan tashqari mashg'ulotlarida amalga oshirish, bunda vatanimizning iqtisodiyoti va xalq xo'jaligining turli tarmoqlarini rivojlantirishda biologiya fanining tutgan o'rniga oid ma'lumotlardan foydalanish tavsiya etildi.

Jismoniy tarbiya - har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishning ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy, aqliy, estetik jihatdan uyg'un rivojlanishini ta'minlaydi. Jismoniy tarbiya o'quvchilarning aqliy va ma'naviy-axloqiy tarbiya bilan uzviy holda amalga oshirilgandagina kutilgan natijalar, jumladan, o'z salomatligini asrash va mustahkamlash, xatti-harakatlarning gigienik me'yorlari, harakat ko'nikmalarini tarkib toptirish mumkin. Jismoniy tarbiya masalasi biologiyani o'qitish metodikasida

inson organizmining tuzilishi, hayotiy jarayonlari, rivojlanishi bilan uzviylikda o'rganish orqali amalga oshiriladi. Sport bilan shug'ullangan o'quvchilarda iroda va salomatlik mustahkamlanishi, aniq maqsad sari intilish, qiyinchiliklarni bardosh va chidam bilan yengishga kabi ijobiy fazilatlar vujudga kelishi ko'rsatib o'tiladi.

Gigienik ta'lif-tarbiya. O'quvchilarning sog'liklarini saqlash va mustahkamlash shart-sharoitlari va ularni vujudga keltirish haqidagi bilimlarga asoslanadi. Biologiyani o'qitishda gigienik tarbiya asosiy o'rinni egallaydi va mavzu mazmuniga bog'liq holda amalga oshiriladi. Masalan, biologiyani o'qitishda o'simliklarning inson salomatligiga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri, ularning atrof-muhitning mussafoligini saqlashdagi roli yoritiladi. Bakteriyalar bo'limi o'rganilganda, bakteriyalarning xilma-xilligi, xayotiy faoliyati, tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyatini o'rganish bilan bir qatorda, parazit bakteriyalar, ular tomonidan keltirib chiqariladigan kasalliklar, mazkur kasalliklarni yuqtirmaslik chora-tadbirlari haqida ma'lumot beriladi.

Biologiyani o'qitishda hayvonot olamining xilma-xilligi, tabiat va inson hayotidagi ahamiyatini qayd etish bilan birga, parazit tarzda hayat kechiruvchi hayvonlar, ularning rivojlanish sikli, oraliq xo'jayinlari, kasallik tashuvchi organizmlar, kelib chiqadigan kasalliklar, ularni yuqtirmaslik yo'llari haqida ma'lumot beriladi.

Biologiyani o'qitishda o'quvchilarning o'z salomatiklarini asrash, shaxsiy gigiena bo'yicha bilimlari rivojlantiriladi, har bir organlar sistemasi o'rganish davrida organlar sistemasining ishiga jismoniy tarbiya va sportning ijobiy ta'siri, kasalliklarning kelib chiqish sabablari va ularning oldini olish va bartarafl etish yo'llari haqida ilmiy tushunchalar beriladi.

Mehnat tarbiyasi. Barkamol shaxsni kamolga yetkazishda mehnat tarbiyasi muhim rol o'ynaydi. Shu sababli ham uzlusiz ta'lif tizimi oldiga qo'yilgan muhim vazifa, fan va texnikaning hozirgi bosqichidagi rivoji, davlat va jamiyat ehtiyojlari, o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlariga muvofiq holda kasb tanlashga yo'llash, ularda mehnat va o'quv mehnati ko'nikma-larini shakllantirishga e'tibor qaratish zarurligi ko'rsatilgan. Mehnat tarbiyasi o'qitishning

nazariya va amaliyotning uzviy bog'liqligi printsipini amalga oshirish, o'quvchilarda mehnat faoliyatiga nisbatan ijobiy motivlar, mehnat vositalari va qurollariga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatni shakllantirish, o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni vujudga keltirishga zamin tayyorlaydi.

O'quv dasturidan o'rın olgan mavzular bo'yicha laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish jarayonida o'quvchilarda mikroskop bilan ishlash, mikropreparatlar, majmualar tayyorlash, darslik, ko'rgazma vositalari va tarqatma materiallari ustida mustaqil ishlash kabi o'quv mehnati ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu ko'nikmalar kelgusida o'quvchilarning tanlaydigan kasbi bo'yicha mehnat ko'nikmalariga aylanishi mumkin.

Biologiyani o'qitishda o'rganilayotgan mavzu mazmuniga bog'liq holda o'quvchilarda mehnat madaniyati ko'nikmalarini, jumladan, ko'rgazmalijihozlar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarda foydalilaniladigan o'quv jihozlari va asboblari bilan ishlash, ish stoli, biologiya darsligi, daftarini toza va ozoda saqlash, o'quv topshiriqlari va uy vazifalarini o'z vaqtida va talab darajasida bajarishga e'tiborni qaratish lozim.

O'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlashda qishloq xo'jaligi mehnati ko'nikmalarini muhim ahamiyatga ega. Ular jumlasiga tuproqqa ishlov berish, o'g'itlash, o'simliklarni sug'orish, urug'ni ekishga tayyorlash, ekish, o'simliklarni parvarish qilish, hosilni yig'ish va saqlash, shuningdek, qishloq xo'jaligi hayvonlarini boqish, zararkunandalariga qarshi kurash, mehnat qurollari bilan ishlash kabilarni kiritish mumkin.

Mehnat tarbiyasini amalga oshirishda o'qituvchi o'quvchilarni mehnatfaoliyatigapsixologikjihatdantayyorlash, mehnatmadaniyatini takomillash-tirish, shuningdek, o'quvchilarning o'zlashtirgan nazariy bilimlaridan foydalangan holda aqliy va jismoniy mehnatni to'g'ri tashkil etish ko'nikmalarini tarkib toptirishga e'tiborni qaratishi lozim.

Mehnat tarbiyasining asosiy vazifalaridan biri barkamol shaxsning asosiy fazilatlari bo'lgan mehnatsevarlikni rivojlantirish sanaladi. Bu jarayonda o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy, aqliy,

inson organizmining tuzilishi, hayotiy jarayonlari, rivojlanishi bilan uzviylikda o'rganish orqali amalga oshiriladi. Sport bilan shug'ullangan o'quvchilarda iroda va salomatlik mustahkamlanishi, aniq maqsad sari intilish, qiyinchiliklarni bardosh va chidam bilan yengishga kabi ijobiy fazilatlar vujudga kelishi ko'rsatib o'tiladi.

Gigienik ta'lif-tarbiya. O'quvchilarning sog'liklarini saqlash va mustahkamlash shart-sharoitlari va ularni vujudga keltirish haqidagi bilimlarga asoslanadi. Biologiyani o'qitishda gigienik tarbiya asosiy o'rinni egallaydi va mavzu mazmuniga bog'liq holda amalga oshiriladi. Masalan, biologiyani o'qitishda o'simliklarning inson salomatligiga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri, ularning atrof-muhitning mussafoligini saqlashdagi roli yoritiladi. Bakteriyalar bo'limi o'rganilganda, bakteriyalarning xilma-xilligi, xayotiy faoliyati, tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyatini o'rganish bilan bir qatorda, parazit bakteriyalar, ular tomonidan keltirib chiqariladigan kasalliklar, mazkur kasalliklarni yuqtirmaslik chora-tadbirlari haqida ma'lumot beriladi.

Biologiyani o'qitishda hayvonot olamining xilma-xilligi, tabiat va inson hayotidagi ahamiyatini qayd etish bilan birga, parazit tarzda hayot kechiruvchi hayvonlar, ularning rivojlanish sikli, oraliq xo'jayinlari, kasallik tashuvchi organizmlar, kelib chiqadigan kasalliklar, ularni yuqtirmaslik yo'llari haqida ma'lumot beriladi.

Biologiyani o'qitishda o'quvchilarning o'z salomatiklarini asrash, shaxsiy gigiena bo'yicha bilimlari rivojlantiriladi, har bir organlar sitemasini o'rganish davrida organlar sistemasining ishiga jismoniy tarbiya va sportning ijobiy ta'siri, kasalliklarning kelib chiqish sababları va ularning oldini olish va bartaraf etish yo'llari haqida ilmiy tushunchalar beriladi.

Mehnat tarbiyasi. Barkamol shaxsni kamolga yetkazishda mehnat tarbiyasi muhim rols o'ynaydi. Shu sababli ham uzlusiz ta'lif tizimi oldiga qo'yilgan muhim vazifa, fan va texnikaning hozirgi bosqichidagi rivoji, davlat va jamiyat ehtiyojlari, o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlariga muvofiq holda kasb tanlashga yo'llash, ularda mehnat va o'quv mehnati ko'nikmalari shakllantirishga e'tibor qaratish zarurligi ko'rsatilgan. Mehnat tarbiyasi o'qitishning

nazariya va amaliyotning uzviy bog'liqligi printsipini amalga oshirish, o'quvchilarda mehnat faoliyatiga nisbatan ijobiy motivlar, mehnat vositalari va qurollariga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatni shakllantirish, o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni vujudga keltirishga zamin tayyorlaydi.

O'quv dasturidan o'rin olgan mavzular bo'yicha laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish jarayonida o'quvchilarda mikroskop bilan ishlash, mikropreparatlar, majmualar tayyorlash, darslik, ko'rgazma vositalari va tarqatma materiallari ustida mustaqil ishlash kabi o'quv mehnati ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu ko'nikmalar kelgusida o'quvchilarning tanlaydigan kasbi bo'yicha mehnat ko'nikmalariga aylanishi mumkin.

Biologiyani o'qitishda o'rganilayotgan mavzu mazmuniga bog'liq holda o'quvchilarda mehnat madaniyati ko'nikmalarini, jumladan, ko'rgazmalijihozlar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarda foydalilanidigan o'quv jihozlari va asboblari bilan ishlash, ish stoli, biologiya darsligi, daftarini toza va ozoda saqlash, o'quv topshiriqlari va uy vazifalarini o'z vaqtida va talab darajasida bajarishga e'tiborni qaratish lozim.

O'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlashda qishloq xo'jaligi mehnati ko'nikmalari muhim ahamiyatga ega. Ular jumlasiga tuproqqa ishlov berish, o'g'itlash, o'simliklarni sug'orish, urug'ni ekishga tayyorlash, ekish, o'simliklarni parvarish qilish, hosilni yig'ish va saqlash, shuningdek, qishloq xo'jaligi hayvonlarini boqish, zararkunandalariga qarshi kurash, mehnat qurollari bilan ishlash kabilarni kiritish mumkin.

Mehnat tarbiyasini amalga oshirishda o'qituvchi o'quvchilarni mehnatfaoliyatigapsixologikjihatdantayyorlash, mehnatmadaniyatini takomillash-tirish, shuningdek, o'quvchilarning o'zlashtirgan nazariy bilimlaridan foydalangan holda aqliy va jismoniy mehnatni to'g'ri tashkil etish ko'nikmalarini tarkib toptirishga e'tiborni qaratishi lozim.

Mehnat tarbiyasining asosiy vazifalaridan biri barkamol shaxsnинг asosiy fazilatları bo'lgan mehnatsevarlikni rivojlantirish sanaladi. Bu jarayonda o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy, aqliy,

hissiy-irodaviy, ruhiy, jismoniy jihatdan uyg'un rivojlanishini amalga oshirish maqsadida xalqimizning boy ma'naviy durdonalari bo'lган hadislar, hikmatli hikoyalari, maqollardan foydalanish tavsiya etiladi.

TALABALARING BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH UCHUN O'QUV TOPSHIRIQLARI

1. O'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish yo'llarini o'rganing.
2. Biologiyani o'qitishda o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash uchun o'qituvchi nimalarga e'tiborini qaratish zarur deb o'ylaysiz?
3. O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha berilgan tavsiyalar-ni o'rganing, Siz yana nimalarga e'tibor berishni taklif qilasiz?
4. Biologiyani o'qitishda o'quvchilarda ekologik madaniyat va tafakkurni rivojlantirishning zaruratini asoslab bering.
5. Biologiyani o'qitishda estetik tarbiyani amalga oshirishning imkoniyatlarini gapirib bering.
6. O'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlashda jismoniy, gigienik, iqtisodiy va mehnat tarbiyasining ahamiyatini asoslab bering.
7. Hozirgi sharoitda o'quvchilarni baynalminal ruhda tarbiyalashning ahamiyatini tushuntiring.
8. Biologiyani o'qitishda ta'lim – tarbiyaning uzviyligini ta'minlash yo'llarini o'rganing.
9. Masalan, «Poyaning eniga o'sishi» mavzusida daraxt tanalarining qurilish, mebelsozlik, qog'oz tayyorlash sanoati va h.k.da keng miqyosda foydalanishi qayd etiladi. O'quvchilarda tejamkorlikni vujudga keltirish uchun o'qituvchi o'quvchilar e'tiboriga quyidagi ma'lumotlarni havola etadi. Bir tonna qog'oz tayyorlash uchun 50-80 yoshdagи 15-16 ta daraxt tanasi sarf bo'ladi. Daraxtlarni saqlab qolish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirish zarur deb o'ylaysiz? degan savolni qo'yadi. O'quvchilar daraxtzorlarni ko'paytirish, keraksiz qog'ozlarni toplash va qayta ishlashtirish zarurligini qayd etadilar. O'qituvchi 60 kg qog'oz bitta daraxtning, 50 t qog'oz 100 ga

yerdagи daraxtzorlarni asrab qolishini aytadi.

49 - LABORATORIYA MASHG'ULOTI BIOLOGIYA O'QITISHDA O'QUVCHILARDA AMALIY KO'NIKMALARINI TARKIB TOPTIRISH. (6 – SINF MISOLIDA)

Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi: Umumiy o'rta ta'lim maktabalarining biologiya (6-sinf) o'quv fanini o'qitishda o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish metodikasi bilan tanishish;

Mashg'ulot davomida talaba:

- Umumiy o'rta ta'lim maktabalarining biologiya (6-sinf) o'quv fanidan amaliy ko'nikmalarni farqlay olishi ;
- biologiya o'qitishda o'quvchilarda amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish orqali amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish ko'nikmalarga ega bo'lishi;
- o'quvchilarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish orqali, o'quvchilarda bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarish ko'nikmalarini egallashi;
- biologiya o'qitishda o'quvchilarda tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish orqali bilimlarini amaliyatga qo'llay olish ko'nikmalarni tarkib toptirish ko'nikmalarga ega bo'lishi;
- biologiya o'quv fanidan amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirishni tashkil etishda ta'lim mazmuni, metodlari va vositalaridan uyg'un ravishda foydalanish ko'nikmalarga ega bo'lishi;
- o'simliklarning hayotiy shakllarini, vegetativ va generativ organlarini farqlay olish, madaniy o'simliklarni payvandlash, parheshlash, ildizpoyasidan, tigunagidan va piyozboshidan ko'paytirish usullarini o'rgata olish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- madaniy o'simliklarni urug'idan ko'paytirish va urug'ni unib chiqish samaradorligini aniqlash meva turlarini farqlash, mevalarni saqlay olish; madaniy o'simliklarni o'g'itlash o'rgata olish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- o'simliklarni sistematik guruhlarini farqlay olish, dorivor o'simliklardan foydalana olish usullarini o'rgata olish ko'nikmalariga

ega bo'lishlari lozim.

Laboratoriya mashg'ulotida foydalilaniladigan jihozlar va qurollar: 6-sinf uchun biologiya darsligi, dastur, DTS, laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar.

Laboratoriya mashg'ulotida foydalilaniladigan pedagogik texnologiya: Muammoli ta'lif texnologiyasining kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash metodi.

Laboratoriya mashg'ulotining borishi:

Tashkiliy qism.

1.Talabalarni laboratoriya mashg'ulotining maqsadi, borishi, mustaqil bajariladigan o'quv topshiriqlari bilan tanishtirish. Izoh: talabalar kichik guruhlarga bo'linib, har bir guruh mustaqil ravishda mavzu tanlaydi.

2. Laboratoriya mashg'ulotlarni tashkil qilish orqali meva turlarini farqlash, mevalarni saqlay olish, urug'larni saralash, o'simliklarni sistematik guruhhlarini farqlash, dorivor o'simliklardan foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim.

3. Tajriba- sinov ishlarni tashkil qilish orqali ildizlarning bosim kuchini aniqlash, madaniy o'simliklarni o'g'itlash ko'nikmalarni hosil qilish.

4. Mustaqil ishlarni tashkil qilish orqali o'simliklarning hayotiy shakllarini, vegetativ va generativ organlarini farqlay olish, madaniy o'simliklarni payvandlash, parhishlash, ildizpoyasidan, tugunagidan va piyoboshidan ko'paytirish ko'nikmalarni hosil qilish.

Umumiy o'rta ta'lif maktablarining biologiya (6-sinf) o'quv fanini o'qitishda o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish amaliy mashg'ulotlar, tajriba – sinov ishlari va mustaqil kuzatishlar olib borish orqali amalga oshiriladi.

Amaliy ishlar. O'quv yili mobaynida o'rganladigan materiallar bilan bog'liq bo'lib, meva turlarini farqlash, mevalarni saqlay olish, urug'larni saralash, o'simliklarni ekish, parvarishlash, ko'paytirish, maktab hovlisini ko'kalamzorlashtirish, o'simliklarni sistematik guruhhlarini farqlash, dorivor o'simliklardan foydalana olish kabi ishlarni olib borishdan iborat bo'ladi.

Amaliy ishlar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, mustaqil

ravishda qo'shimcha bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojlarini va qiziqishlarini rivojlantiradi. Masalan, o'quvchilar o'zlari uylarida parvarish qilgan xona o'simliklarining ko'rgazmasini tashkil etish mumkin. Bunda o'quvchilar o'zlari o'stirgan o'simlikning nomi, vatani, sistematikada tutgan o'rni, parvarish qilish qoidalari, o'simlikning ahamiyati kabi ma'lumotlar bilan o'rtoqlashadilar.

Tajriba – sinov ishlari. Tajribalar o'tkazish o'quvchilardan ma'lum bilimga ega bo'lishlikni, shu bilimlarini amaliyatga qo'llay olish mahoratini, sabr – toqat bilan ish olib borish kabi jihatlarning bo'lishini talab etadi. Tajribalar o'tkazish davomida o'quvchilar mustaqil faoliyat olib borish ko'nikmasini hosil qiladilar. Tajriba ishlari davomida o'quvchilarda ilmiy – tadqiqot ishlari qiziqish uyg'onadi. Tajribalar ishlarning maqsadi, mohiyati, rejasi, o'tkazish tartibi, uning natijalari maxsus daftarga qayd etib boriladi. Masalan, ildizlarning bosim kuchini aniqlash ustida quyidagi tajribani o'tkazish tartibi quyidagicha;

- ildiz bosim kuchi haqidagi nazariy bilimlar o'rganiladi;
- tajriba uchun o'simlik (pomidor, bodring, makkajo'xori ko'chati) tanlanadi;
- tajriba uchun olingan o'simlik poyasi yer yuzidan 3 sm balandlikda kesiladi;
- yer yuzida qolgan qismiga rezina nay va unga esa shisha nay kiygiziladi;
- shish nay ichiga rangli suv quyilib, sathi belgilanadi;
- o'simlik yaxshilab sug'oriladi;
- shisha nay ichidagi suv sathi dastlab pasayishi, so'ngra ko'tarilishi kuzatiladi;
- ildiz bosim kuchini guttattsya hodisasi yordamida ham aniqlash mumkin.

Bu tajriba hovlida yoki sind xonasida o'tkazilishi mumkin.

Mustaqil kuzatishlar olib borish. Bu usul o'quvchilarning bilishga qiziqishini shakllantiradi, bilimini chuqurlashtiradi, faolligini oshiradi hamda mustaqil ishlashga o'rgatadi. Mustaqil kuzatishlar orqali o'quvchilar o'simliklarning tuzilishini, o'sishini, rivojlanishini,

ega bo'lishlari lozim.

Laboratoriya mashg'ulotida foydalaniladigan jihozlar va qurollar: 6-sinf uchun biologiya darsligi, dastur, DTS, laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar.

Laboratoriya mashg'ulotida foydalaniladigan pedagogik texnologiya: Muammoli ta'lim texnologiyasining kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash metodi.

Laboratoriya mashg'ulotining borishi:

Tashkiliy qism.

1. Talabalarni laboratoriya mashg'ulotining maqsadi, borishi, mustaqil bajariladigan o'quv topshiriqlari bilan tanishtirish. Izoh: talabalar kichik guruhlarga bo'linib, har bir guruh mustaqil ravishda mavzu tanlaydi.

2. Laboratoriya mashg'ulotlarni tashkil qilish orqali meva turlarini farqlash, mevalarni saqlay olish, urug'larni saralash, o'simliklarni sistematik guruhlarini farqlash, dorivor o'simliklardan foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim.

3. Tajriba- sinov ishlarni tashkil qilish orqali ildizlarning bosim kuchini aniqlash, madaniy o'simliklarni o'g'itlash ko'nikmalarni hosil qilish.

4. Mustaqil ishlarni tashkil qilish orqali o'simliklarning hayotiy shakllarini, vegetativ va generativ organlarini farqlay olish, madaniy o'simliklarni payvandlash, parhishlash, ildizpoyasidan, tugunagidan va piyozboshidan ko'paytirish ko'nikmalarni hosil qilish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining biologiya (6-sinf) o'quv fanini o'qitishda o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish amaliy mashg'ulotlar, tajriba – sinov ishlari va mustaqil kuzatishlar olib borish orqali amalga oshiriladi.

Amaliy ishlar. O'quv yili mobaynida o'rganladigan materiallar bilan bog'liq bo'lib, meva turlarini farqlash, mevalarni saqlay olish, urug'larni saralash, o'simliklarni ekish, parvarishlash, ko'paytirish, muktab hovlisini ko'kalamzorlashtirish, o'simliklarni sistematik guruhlarini farqlash, dorivor o'simliklardan foydalana olish kabi ishlarni olib borishdan iborat bo'ladi.

Amaliy ishlar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, mustaqil

ravishda qo'shimcha bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojlarini va qiziqishlarini rivojlantiradi. Masalan, o'quvchilar o'zları uylarida parvarish qilgan xona o'simliklarining ko'rgazmasini tashkil etish mumkin. Bunda o'quvchilar o'zları o'stirgan o'simlikning nomi, vatani, sistematikada tutgan o'rni, parvarish qilish qoidalari, o'simlikning ahamiyati kabi ma'lumotlar bilan o'rtoqlashadilar.

Tajriba – sinov ishlari. Tajribalar o'tkazish o'quvchilardan ma'lum bilimga ega bo'lishlikni, shu bilimlarini amaliyatga qo'llay olish mahoratini, sabr – toqat bilan ish olib borish kabi jihatlarning bo'lishini talab etadi. Tajribalar o'tkazish davomida o'quvchilar mustaqil faoliyat olib borish ko'nikmasini hosil qiladilar. Tajriba ishlari davomida o'quvchilarda ilmiy – tadqiqot ishlari qiziqish uyg'onadi. Tajribalar ishlarning maqsadi, mohiyati, rejasi, o'tkazish tartibi, uning natijalari maxsus daftarga qayd etib boriladi. Masalan, ildizlarning bosim kuchini aniqlash ustida quyidagi tajribani o'tkazish tartibi quyidagicha;

- ildiz bosim kuchi haqidagi nazariy bilimlar o'rganiladi;
- tajriba uchun o'simlik (pomidor, bodring, makkajo'xori ko'chati) tanlanadi;
- tajriba uchun olingan o'simlik poyasi yer yuzidan 3 sm balandlikda kesiladi;
- yer yuzida qolgan qismiga rezina nay va unga esa shisha nay kiygiziladi;
- shish nay ichiga rangli suv quyilib, sathi belgilanadi;
- o'simlik yaxshilab sug'oriladi;
- shisha nay ichidagi suv sathi dastlab pasayishi, so'ngra ko'tarilishi kuzatiladi;
- ildiz bosim kuchini guttatsiya hodisasi yordamida ham aniqlash mumkin.

Bu tajriba hovlida yoki sind xonasida o'tkazilishi mumkin.

Mustaqil kuzatishlar olib borish. Bu usul o'quvchilarning bilishga qiziqishini shakllantiradi, bilimini chuqurlashtiradi, faolligini oshiradi hamda mustaqil ishlashga o'rgatadi. Mustaqil kuzatishlar orqali o'quvchilar o'simliklarning tuzilishini, o'sishini, rivojlanishini,

ularda sodir bo‘ladigan fiziologik jarayonlarni, o‘simliklarga ekologik omillarning ta’sirini o‘rganishlari mumkin. Mustaqil kuzatishlar tabiatda, mактабнинг o‘quv-tajriba maydonida, tirik tabiat burchagida olib boriladi. Kuzatish ishlarining mazmuni, maqsadi, olib borish tartibi, natijalari maxsus daftarga qayd etib boriladi. Masalan, bir va ikki urug‘ pallali o‘simlik urug‘ larining unib chiqish jarayonini kuzatishda quyidagilar aniqlanib daftarga qayd etiladi:

- urug‘ni ekish vaqtini belgilash;
- urug‘ni ekish chuqurligini aniqlash (urugni belgilangan chuqurlikda, yuzaroq va chuqurroq ekip natijasini kuzatish);
- urug‘larning bir qismiga ishlov berib, bir qismiga esa ishlov bermasdan ekip ularning unishini kuzatish;
- saralangan va saralanmagan urug‘larni ekip ularning rivojlanishidagi farqlarni kuzatish;
- urug‘larning unib chiqishi uchun zarur omillar – suv, harorat, havo kabilarning ta’sirini kuzatish;
- yumshoq va zinch tuproqqa ekip urug‘ lardagi o‘zgarishlarni kuzatish;
- ikki urug‘ pallali o‘simliklarning urug‘ pallabarglarida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni kuzatish.

TALABALARING BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH UCHUN O‘QUV TOPSHIRIQLARI

Siz muammoli dasturi yordamida darslik ustida mustaqil ishlab, o‘simliklarning vegetativ ko‘payish xususiyatlari bilan tanishishingiz zarur.

	Birinchi kichik guruh	Ikkinci kichik guruh
Tayyorligi ko‘rish	maqsad qo‘yish; – material tanlash; – kichik guruhlarga topshiriqnini tushuntirish; – zarur materiallar bilan ta’minalash; – qo‘yilayotgan topshiriqnini, masalani o‘qituvchilarning hamkorlikda yechishi zarurligi	maqsad qo‘yish; – material tanlash; – kichik guruhlarga topshiriqnini tushuntirish; – zarur materiallar bilan ta’minalash; – qo‘yilayotgan topshiriqnini, masalani o‘qituvchilarning hamkorlikda yechishi zarurligi

Axborot bilan ta’minalash	– kichik guruh ildizpoyasi yordamida ko‘payadigan o‘simlik bilan tanishib, ularning nomlarini yozadilar.	– kichik guruh piyozboshi yordamida ko‘payadigan o‘simlik bilan tanishib, ularning nomlarini yozadilar.
Topshiriq ustida ishlash	– kichik guruh ildizpoyasi yordamida ko‘payadigan o‘simliklarning hayotiy shakkari, vegetativ va generativ organlarining aniqlaydilar; – kichik guruh o‘z ish natijasini gapirib berishga, qilgan ishini ko‘rsatishga tayyorlanadilar; – kichik guruh o‘z ish natijasini boshqa kichik guruhlar ish natijasi bilan taqqoslaydilar;	– kichik guruh piyozboshi yordamida ko‘payadigan o‘simliklarning hayotiy shakkari, vegetativ va generativ organlarining aniqlaydilar; – kichik guruh o‘z ish natijasini gapirib berishga, qilgan ishini ko‘rsatishga tayyorlanadilar; – kichik guruh o‘z ish natijasini boshqa kichik guruhlar ish natijasi bilan taqqoslaydilar;
O‘qituvchining Kichik guruhlar ish natijasini muhokama qilish	– kichik guruhlar qo‘yilgan masalani birgalikda muhokama qilish uchun yig‘iladi; – kichik guruhdan bitta o‘quvchi (dokladchi) erishgan natijani qisqacha doklad qiladi; – ish natijasi muhokama qiladilar; – bildiigan fikrlar bo‘yicha umumiy xulosaga kelinadi; – o‘quvchilarga umumiy natija e’lon qilinadi. .	– kichik guruhlar qo‘yilgan masalani birgalikda muhokama qilish uchun yig‘iladi; – kichik guruhdan bitta o‘quvchi (dokladchi) erishgan natijani qisqacha doklad qiladi; – ish natijasi muhokama qiladilar; – bildiigan fikrlar bo‘yicha umumiy xulosaga kelinadi; – o‘quvchilarga umumiy natija e’lon qilinadi.
Qo‘riq	– qaror qabul qiladi; – darsni tashkil qiladi va boshlaydi; – nazorat qiladi va zarur bo‘lganda, aralashadi; – tahlil qiladi va baholaydi.	– qaror qabul qiladi; – darsni tashkil qiladi va boshlaydi; – nazorat qiladi va zarur bo‘lganda, aralashadi; – tahlil qiladi va baholaydi.

TALABALARING MUSTAQIL ISH TOPSHIRIG‘I

1. Urug‘larning unishi, o‘simtalarning oziqlanishi va rivojlanishi uchun qanday shart-sharoitlar zarurligini eslang.
2. Qanday urug‘lar unuvchan urug‘lar deyilishini aniqlang.
3. Qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligini yuqori bo‘lishi qanday omillarga bog‘liq?
4. Nima sababdan qishloq xo‘jaligi ekinlarining urug‘lari ekishdan avval tozalanadi va saralanadi?

5. Urug'larda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni kuzatib boring va kuzatish natijalarini quyidagi jadvalga yozib boring.

Kuzatishlar jadvali

Nº	Qanday sharoit yaratilgan	Qanday omillar yetarli emas	Urug'larda sodir bo'lgan o'zgarishlar
Nº 1	Harorat, havo	Suv	
Nº 2	Suv, havo	Harorat	
Nº 3	Suv, harorat	Havo	
Nº 4	Suv, havo, harorat	Barcha omillar yetarli	

6. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining biologiya (6-sinf) darsligida berilgan dorivor o'simliklardan foydalanish.

Nº	O'simliklar nomi	Kasalliklar

50 - LABORATORIYA MASHG'ULOTI XONA O'SIMLIKLARINI KO'PAYTIRISH VA PARVARISHLASH

Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi: Talabalarni Umumiy o'rta ta'lim maktablarining biologiya (6-sinf) o'quv fanini o'qitishda o'quvchilarda xona o'simliklarining ko'paytirish va parvarishlash metodikasi bilan tanishish;

Mashg'ulot davomida talaba:

- Umumiy o'rta ta'lim maktablarining biologiya (6-sinf) o'quv fanidan amaliy ko'nikmalarini farqlay olishi;
- biologiya o'qitishda o'quvchilarda xona o'simliklarining ko'paytirish va parvarishlash ishlarni tashkil qilish orqali amaliy ko'nikmalarini tarkib toptirish usullarini tanlay olish;
- xona o'simliklarning tuplarga ajratib ko'paytirish va parvarishlash orqali amaliy ko'nikmalarini tarkib toptirish usullarini tanlay olish;
- xona o'simliklarning barg qalamchalari va qalamchalar yordamida ko'paytirish va parvarishlash orqali amaliy ko'nikmalarini tarkib toptirish usullarini tanlay olish;

• xona o'simliklarning parhishlash, ildizpoyasidan, tugunagidan va piyozboshidan ko'paytirish va parvarishlash orqali amaliy ko'nikmalarini tarkib toptirish usullarini tanlay olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim;

Laboratoriya mashg'ulotida foydalilaniladigan jihozlar va qurollar: 6-sinf uchun biologiya darsligi, dastur, DTS, Laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar, tuproqlar, gultuvaklar, xona o'simliklari, pichoq.

Laboratoriya mashg'ulotida foydalilaniladigan pedagogik texnologiya: Muammoli ta'lim texnologiyasining kichik guruhlarda hamkorlikda ishslash metodi.

Laboratoriya mashg'ulotining borishi:

Tashkiliy qism.

1. Talabalarni laboratoriya mashg'ulotining maqsadi, borishi, mustaqil bajariladigan o'quv topshiriqlari bilan tanishtirish. Izoh: talabalar kichik guruhlarga bo'linib, har bir guruh mustaqil ravishda mavzu tanlaydi.

2. Talabalarni xona o'simliklarning ko'paytirish va parvarishlash ishlarni tashkil qilishni o'rganadi.

3. Talabalarni xona o'simliklarning tuplarga ajratib ko'paytirish va parvarishlash orqali amaliy ko'nikmalarini tarkib toptirish usullarini tanlay olishni o'rganadi.

4. Talabalarni xona o'simliklarning barg qalamchalari va qalamchalar yordamida ko'paytirish va parvarishlash orqali amaliy ko'nikmalarini tarkib toptirish usullarini tanlay olish;

5. Talabalarni xona o'simliklarning parheshlash, ildizpoyasidan, tigunagidan va piyozboshidan ko'paytirish va parvarishlash orqali amaliy ko'nikmalarini tarkib toptirish usullarini tanlay olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim.

O'qituvchiga eslatma. Mazkur laboratoriya mashg'ulotni o'tkazishdan oldin gultuvaklarga solinadigan tuproqlar tayyorlab qo'yiladi.

1. Tuproq aralashmasini tayyorlash.

Tuproqlar	Qism hisobida		
	Chimli tuproq	barg chirindisi yoki parnik go'ngi	Qush
Og'ir	3	1	1
O'rtacha	2	2	1
Yengil	1	3	1

Chim tuproq g'alla ekinlari ekilgan joy tuprog'idan 10—12 sm qalinlikda qazib olinib, ular qat-qat qilib uyib qo'yiladi. Har qaysi qavat orasiga chirindi solinib, vaqtı-vaqtı bilan namlanadi. Barg chirindisini tayyorlash uchun o'simlik barglari chiritish uchun bir joyga uyib qo'yiladi. Go'ng chirindisi parniklardan olinadi.

2. Xona o'simliklarini qalamchalar yordamida ko'paytirish uchun 2-3 hafta oldin 3—5 tagacha kurtagi bo'lган novdalar kesib olinadi va ildiz otguncha qumli yashik yoki gultuvaklarda saqlanadi. Qalamchaning 2 ta kurtagi qumga ko'miladi, 3 tasi qumdan tashqarida qoldiriladi, suv quyiladi va usti oyna bilan yopib qo'yiladi. 2—3 haftada ildizlar paydo bo'ladi.

3. Xona o'simliklarini barg qalamchalaridan ko'paytirish uchun, masalan, begoniya bargi bandidan 5 sm qoldirib kesib olinadi va nam tuproqli yashikdag'i chuqurchalarga bandi bilan ko'mib qo'yiladi. Barg qiya qilib joylashtiriladi. Qo'shimcha ildiz yoki barglar hosil bo'lishi bilan tuvaklarga eklidi.

1. Tuplarga ajratib ko'paytirish.

Buning uchun o'simlik (masalan, sansivera)ni eski tuvakdan chiqarib olib o'tkir pichoq bilan tupchalarga ajrating.

Zararlangan va chirigan qismlarini kesib tashlang. Har bir tupchada ildizpoya, barg va qo'shimcha ildizlar bo'lishi shart. O'simlikni qirqilgan joylariga maydalangan ko'mir sepib, tuvaklarga o'tkazing. Atrofidagi bo'sh qolgan qismiga maxsus tayyorlangan tuproqdan solib zichlang, keyin sug'orib, salqinroq joyga qo'yib qo'ying.

2. Qalamchalar yordamida ko'paytirish.

Buning uchun avvaldan qumda saqlangan yoki suvg'a solib qo'yilgan, ya'ni qo'shimcha ildizlar chiqargan qalamchalaridan foydalaning. Masalan, ildiz chiqargan yorongulni gultuvakka

joylashtirib atrofiga tayyorlab qo'yan yengil tuproqni solib zichlang va sug'orib salqinroq joyga qo'yib qo'ying.

3. Barg qalamchalaridan ko'paytirish.

Begoniyani barg qalamchalari qo'shimcha ildiz chiqargandan so'ng (yangi barg chiqarganda) yengil tuproq solingan gultuvaklarga eking, suv quyib salqin joyga qo'yib qo'ying.

1. Laboratoriya mashg'ulotni yakunlash.
2. Darsdan tashqari ish yuzasidan topshiriqlar berish.


TALABALARING BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH UCHUN O'QUV TOPSHIRIQLARI

1. Xona o'simliklari qanday ahamiyatga ega?
2. Xona o'simliklari qanday yo'llar bilan ko'paytiriladi?
3. Ildizpoyasi yordamida ko'paytiriladigan xona o'simliklariga misollar keltiring.
4. Qaysi xona o'simliklari piyozlari bilan ko'paytiriladi.
5. Qalamchalari bilan ko'paytiriladigan xona o'simliklarini aniqlang.
6. Barglari yordamida ko'paytiriladigan xona o'simliklarini toping.
7. Qaysi xona o'simliklari ildiz bachkilari yordamida ko'paytiriladi?
8. Parxish qilish yo'lli bilan ko'paytiriladigan xona o'simliklarini ko'rsating.


1-jadval

No	O'simliklarini nomi	Ko'paytirish yo'lli
1.		
2.		
3.		
4.		
5.		
6.		
7.		


9. O'simliklarni ko'paytirish usullarini yozing.



10. Gultuvakda gul ko'paytirish bo'yicha tajribangiz bilan o'rtoqlashing.



11. Madaniy o'simliklarni payvandlash ketma-ketligini yozing.



51 - LABORATORIYA MASHG'ULOTI TIRIK TABIAT BURCHAGIDA HAYVONLARNI SAQLASH VA PARVARISHLASH

Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi: Talabalarni Umumiy o'rta ta'limgaktablarining tirik tabiat burchagida hayvonlarni saqlash va parvarishlash metodikasi bilan tanishish.

Mashg'ulot davomida talaba:

- Umumiy o'rta ta'limgaktablarining tirik tabiat burchagini tashkil etish ta'lim – tarbiyaviy ko'nikmalarni tarkib toptirish usullarini tanlay olishi;
- tirik tabiat burchagini tashkil etish, jihozlash orqali amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish usullarini tanlay olishi;
- tirik tabiat burchagidagi o'simliklarni ko'paytirish va parvarishlash orqali amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish usullarini tanlay olishi;
- tirik tabiat burchagidagi hayvonlarni ko'paytirish va parvarishlash orqali amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish usullarini tanlay olishi;
- estetik tarbiya berish orqali amaliy ko'nikmalarni tarkib

toptirish usullarini tanlay olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim;

Laboratoriya mashg'ulotida foydalaniladigan jihozlar va qurollar: biologiya darsligi, dastur, DTS, Laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar, gultuvaklar, akvarium, terrarium, kataklar.

Laboratoriya mashg'ulotida foydalaniladigan pedagogik texnologiya: Loyihalash ta'lim texnologiyasida ishlash metodi.

Laboratoriya mashg'ulotining borishi:

Tashkiliy qism.

1. Talabalarni laboratoriya mashg'ulotining maqsadi, borishi, mustaqil bajariladigan o'quv topshiriqlari bilan tanishtirish. Izoh: talabalar kichik guruhlarga bo'linið, har bir guruh mustaqil ravishda mavzu tanlaydi.

2. Talabalar tirik tabiat burchagida ta'lim-tarbiyaviy ko'nikmalarni tarkib toptirishni tashkil qilishni o'rganadi.

3. Talabalar tirik tabiat burchagidagi o'simliklarni ko'paytirish va parvarishlash orqali amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish usullarini tanlay olishni o'rganadi.

4. Talabalar tirik tabiat burchagidagi hayvonlarni ko'paytirish va parvarishlash orqali amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish usullarini tanlay olishadi.

5. Talabalar estetik tarbiya berish orqali amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish usullarini tanlay olish ko'nikmalariga ega bo'lishadi.

Biologiya o'quv dasturi asosida tuzilgan DTSdan o'rinni olgan juda ko'pchilik ko'nikma va malakalarmi darslarda tarkib toptirib bo'lmaydi. Ularni tarkib toptirish muammosi o'quvchilarning tirik tabiat burchagida olib boriladigan kuzatish, tajriba qo'yish, o'simliklarni parvarishlash, ko'paytirish, hayvonlarni boqish va parvarishlash ishlarining tashkil etilishini talab etadi.

Shu sababli, biologiya o'qituvchisi:

1) tirik tabiat burchagini tashkil etishi va uni o'quv dasturiga mos jihozlashi, tabiiy ob'ektlarni tanlashi;

2) o'quvchilar tirik tabiat burchagida ishlashi natijasida tarkib toptiriladigan ko'nikma va malakalarmi aniqlashi;

3) tirik tabiat burchagida o'quvchilarning mustaqil ishlari,

darsdan va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishni rejalashtirishi;

4) o'quvchilar tomonidan olib boriladigan va natijalaridan darsda foydalaniladigan kuzatish va tajriba qo'yish ishlarini rejalashtirishi, ularni o'tkazish muddatlarini belgilashi lozim.

Biologiya o'qitishning moddiy bazasini asosiy qismini tirik tabiat burchagi tashkil etadi. Tirik tabiat burchagi – o'simlik va hayvonlarni saqlash, ular ustida kuzatishlar o'tkazish, tajribalar qo'yish, sinfdan tashqari ishlarni bajarish joyi sanaladi.

Tirik tabiat burchagida «Biologiya» o'quv dasturiga kiritilgan o'simlik va hayvonlar saqlanishi maqsadga muvofiq.

Tirik tabiat burchagi maktabga ko'rk bag'ishlashi bilan bir qatorda, muhim o'quv vazifalarni bajaradi. O'quvchilar tirik tabiat burchagidagi o'simliklar va hayvonlar ustida kuzatishlar o'tkazish, tajribalar qo'yadi. Uzoq muddatda olib borilgan kuzatish va tajribalar o'quvchilarda qisman tadqiqot xarakteridagi izlanishlar olib borish, muayyan ko'nikmalarni egallah, bilimlarni amaliyatga qo'llashga zamin tayyorlaydi.

Tirik tabiat burchagi uchun ajratilgan joyning yuzasi 15-18 m² bo'lib, derazalari janub yoki janubiy-sharqiy tomonga qaragan bo'lishi, yorug'lik yaxshi tushadigan joy bo'lishi kerak.

Maktabda tirik tabiat burchagining tashkil etilishi o'qitish maqsadlari, o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish, ularning biologiyaga bo'lgan qiziqishlari, bilim doirasini kengaytirish uchun boy imkoniyatlarning vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatadi.

Tirik tabiat burchagi dastlab, o'quvchilar kuchi bilan biologiya kabinetida, sinf derazalarida tashkil etiladi. O'quvchilar uylaridan xona o'simliklari yoki ularning qalamchalari, ekskursiyalardan – hayvonlar va yovvoyi o'simliklarni olib keladilar. Natijada tirik tabiat burchagi juda tezlik bilan kengaya boradi va maxsus xona talab etadi. Uni tashkil etish, tirik organizmlarni saqlash va joylashtirish biologik talablarga to'la mos bo'lishi kerak. O'simlik va hayvonlar biotsenozlar bo'yicha guruhlar ajratiladi. Akvariumlarda baliqlar, va suv muhitiga moslashgan o'simliklar, terrariumlarda nam joyda o'sadigan o'simliklar (qirqquloq, qirqbo'g'in,yo'sin) va baqa kaltakesaklar, qafaslarda turli hayvonlar va o'simlik shoxlari bo'ladi.

Burchakdagagi o'simlik va hayvonlarni sistemali qulay va chiroyli qilib joylashtirish muhimdir. Saqlanayotgan tirik organizmlar agro va zootexnika qoidalariga rioya qilgan holda saqlash zarur. Har bir ob'ekt oldida etiketka va pasportining bo'lishi, ular bilan yaxshi tanishish imkonini beradi.

Tirik tabiat burchagida o'simlik va hayvonlarni parvarishlash bo'yicha mehnat madaniyati tarbiyalanadi; maktab boyligini ehtiyyotkorlik munosabati tarbiyalanadi. Estetik tarbiya uchun ham katta imkoniyatlar bor: o'simlik akvariumlarni, qafaslarni qanday chiroyli qilib, o'zaro bog'liqlikda joylashtirishga o'rgatadi.

Shunday qilib, tirik tabiat burchagi – faqat o'quv joyi emas, balki ko'p qirrali tarbiyaviy ishlar joyi hamdir.

Tirik tabiat burchagini o'simliklari.

Xona o'simliklari tirik burchakning asosiy qismini tashkil etadi. Burchakdagagi o'simliklarga birligina emas, balki bir necha tajribalar qo'yish imkonini beradigan vakillarini olingani ma'qul. Besh-o'nta shunday o'simliklar ko'p joy egallamagan holda biologiya kurslaridan mashg'ulotlarini material bilan ta'minlaydi. Bularga quyidagi xona o'simliklari: kaktus, geran, tradeskansiya, begoniya, kolanxoe, elodeyalar kiradi.

Xona o'simliklaridan turli xil tajribalarda foydalanish mumkinligini quyidagi misolda ishonch hosil qilish mumkin. Tradeskansiya o'simligini quyidagi maqsadda: changdon ipchalari va chang donachalaridan preparat tayyorlash; sitoplazmaning harakatlanishi; qo'shimcha ildizlarni paydo bo'lishi; qalamchalarining tez ildiz olish; parxishlash, payvandlash; quruqlik o'simliklarining suv o'simligiga aylanish kabi maqsadlar uchun foydalanish mumkin.

Tirik burchakda biologik xususiyatlarini o'rganish uzoq vaqt diqqat bilan kuzatishlar olib borishini va tajribalar qo'yishni talab qiluvchi yovvoyi o'simliklar ham bo'lishi zarur. Bunday o'simliklarni ekskursiya vaqtida tuprog'i bilan kovlab olinib, kichikroq gultuvaklarga o'tqaziladi.

Tirik burchakdagagi har bir o'simlikning yorug'likka, issiqlikka va namlikka bo'lgan munosabatini hisobga olgan holda joylashtiriladi. So'ngra ekologik guruhlardan tashkil qiladilar va ularni tirik burchakda

muayyan sistemada taqsimlaydilar. Masalan: quruqlikda o'sadigan o'simliklar kserofitlarga kaktus, aloe, agava.

Nam joyda o'sadigan gigrofitlarga – tradeskansiya, begoniya, qirkqulqoq, qirqbo'g'in, yo'sin.

Namligi o'rtacha bo'lgan joyda o'sadigan o'simliklar fikus, limon, yovvoyi o'simliklar yertut, primula.

Tirik burchakdagagi o'simliklarni geografik guruhlarga taqsimlash mumkin.

Tropik o'simliklar: kaktus, agava, aloe, begoniya tradeskansiya, fikus.

Subtropik o'simliklar: limon, apelsin, tolkul.

Mo'tadil mintaqaga o'simliklari: primula, pechakgul.

Mahalliy o'simliklar: yovvoyi va madaniylari.

Tajriba uchun ekilgan o'simliklarni alohida joyga qo'yilishi kerak. Ekologik jihatdan yaqin bo'lgan bir nechta o'simliklar bir-biriga yaqin ekiladi. Natijada cho'l, tropik o'rmon kabi "biogeotsenozerlar" tashkil etiladi. Tirik burchakdagagi har bir o'simlikda nomi yozilgan etiketka va qisqacha xarakteristikali pasporti bo'lishi kerak. O'simlik ta'riflangan, har bir o'simlik to'g'risida tavsiya etilgan kitoblarni ko'rsatgan pasportlardan tirik burchakdagagi o'simliklar kartotekasi tuziladi. Kartoteka o'simlikni parvarish qiluvchilarga hamda u bilan tanishishni xohlovchilarga tushunarli bulishi kerak.

Tirik tabiat burchagidagi hayvonlar.

Tirik tabiat burchagidagi hayvonlar uchun akvarium, terrarium, kataklar qo'yish uchun joy ajratilishi kerak. Akvarium baliklar, shoxilonlar, suv qo'ng'izlari, triton, ayrim baqalar, gidra va dafnayalarini saqlash va boqish uchun eng qulaydir.

Akvarium suv havzasining sun'iy biogeotsenozi ya'ni chuchuk suv havzasini modeli hisoblanadi. Unda suv hayvonlari hayotining suv o'simliklari elodeya valisneriya, odest, shox barg va boshqalar bilan bog'liqligi ko'rsatiladi. Tirik burchakda biologiyadan ko'rgazmali va amaliy metodlar bilan o'rganiladigan hayvonlar bo'lishi zarur.

Sodda hayvonlardan tufelkaning kulturasi, dars va darsdan

tashqari ishlar uchun doim tirik burchakda bo‘lishi kerak, buning uchun bir oz somon yoki pomidorning quritilgan bargi bo‘lishi kerak.

Sentyabr oylaridan boshlab akvariumda gidra, akam-tukam va boshqa chig‘anoqli shilliqurtlarni tayyorlab qo‘yiladi. Maxsus yashiklarda yomg‘ir chuvalchangini saqlash mumkin. Yashik navbat bilan qatlam – qatlam qilib to‘kilgan barglar, poliz tuprog‘i bilan to‘ldiriladi va unga 50 tacha chuvalchang joylashtiriladi. Uni salqin joyda saqlash kerak. Mayda sut emizuvchilar, suvda ham quruqlikda yashovchilar ham sudralib yuruvchilar terrariumlarda saqlanadi. Terrarium o‘tloq, cho‘l va boshqalar shaklida bezatiladi. Botqoqlik hosil qilish uchun temir yoki plastmassa vannacha qo‘yiladi. Olmaxon, to‘ti va boshqa sayroqi qushlar maxsus kataklarda boqiladi.

Tirik tabiat burchagi uchun ajratilgan xonada har-xil hayvonlarni, masalan: akvarium va mahalliy baliq turlari, suvda ham quruqlikda yashovchilar, sudralib yuruvchilar, qushlar va sut emizuvchilarni boqish mumkin. Maktabning o‘quv tajriba uchastkasida tovuq, nutriya, norka, quyon kabi hayvonlarni boqish tavsiya etiladi.

Agar tirik tabiat burchak uchun ajratilgan xona kichik bo‘lsa yoki torlik qilsa, unda bir mucha yirik qushlar va hayvonlarni saqlash mumkin. Dars vaqtida o‘quvchilarining fikrlarini bo‘lmaydigan boshqa ob‘ektlarni bevosita biologiya xonasiga joylashtirish mumkin. Turli tovush, qo‘lansa hid chiqaradigan hayvonlar alohida kichik xonada saqlanadi.

Tirik tabiat burchagidagi hayvonlarning ko‘plari ustida zarur tajribalar qo‘yilishi mumkin. Masalan; «Moddalar almashinuvi» mavzusiga oid V va S vitaminlar, avitaminozlarning kelib chiqishi bo‘yicha, quyonlarning og‘irligi oziq sifatining ta’siri, tuproq rangining baqa tanasining rangiga ta’sirini, it baliqdagi metamorfozni o‘rganish mumkin.

Tirik tabiat burchagi yosh tabiatshunoslarning ish joyi hamdir. Bu yerda yosh tabiatshunoslar kuzatuv ishlarini olib borib, uni natijalarini yozadilar, hayvonlar uchun oziq tayyorlaydilar, turli moslama yasaydilar va ta’mirlaydilar. Tirik tabiat burchaklaridagi har bir hayvonning nomi yozilgan etiketkasi, parvarishlash qoidasi va oziqlantirish normasi hamda tajriba o‘tkazayotgangan o‘quvchining

familiyasi ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Hayvonlar burchakda tip va sinflar bo‘yicha guruhlarga ajratiladi, lekin guruhlashtirish yashash muhit bo‘yicha va ularning tegishli o‘simlik bilan birga bo‘lishi mumkin.

Sinfning yoki tirik burchakning birorta derazasida o‘simliklarning «tirik sistema»sinini tasvirlab ko‘rsatish mumkin, bu o‘quvchilar uchun foydalidir. Buning uchun xona va yovvoyi o‘simliklardan foydalilanadi, ular derazalarga bir avlodning turlari, bir oilaning avlodlari shu kabilar tartibida joylashtiriladi. Hayvonlar sistemasini tirik obyektlarni turkumlari bilan, ba’zi hollarda rasmlar bilan birga ko‘rsatish mumkin.

Maktab tirik tabiat burchagida alohida sinflar uchun, qandaydir qismalarni ajratish pedagogik maqsadga muvofiq emas. Unda o‘quvchilar jamoatchilik, o‘simlik va hayvonlar dunyosining tabiiy birligini tushunib olish ruhida tarbiyalash muhimdir. Tirik tabiat burchagini jihozlash. Tirik burchakni tashkil etishda ba’zi bir zarur jihozlarni ham nazarda tutish lozim. Birinchi galda o‘simliklarni qo‘shimcha yorug‘lik ta’sirida o‘tkaziladigan tajribalarni ta’minalash kerak.

Buning uchun burchak qo‘shimcha yorug‘lik manbalari bilan ta’minalishi kerak. Agar tirik burchakda harorat past bo‘lsa, unda yorug‘lik kamerasi bo‘lishi kerak. Bu yetarli darajada yorug‘lik berishi, haroratni ko‘tarish yoki pasaytirishga imkon berishi, shu haroratni saqlab turishi kerak.

Qish o‘rtasida yorug‘lik kamerasini tirik burchak jihozlari qatoriga kiritilishi, yorug‘sevar va issiqsevar o‘simlik ustida turli tajribalar o‘tkazishga imkon beradi. Havo namligini saqlash uchun o‘simliklarga pulverizatorda suv purkaladi. Namlik kamerasi uchun terrariumdan foydalinish mumkin.

Buning uchun terrarium ostiga qum solinadi va gul tuvakchalar past – baland qilib qo‘yiladi. Ularga namda o‘sadigan o‘simliklar mox va boshqalar o‘tkaziladi. O‘rtaga suv yig‘iladigan chuqurcha qilinadi yoki suvli vannacha qo‘yiladi.

Qalamchalar uchun to‘rtta oynak qo‘yilgan, tuproq yoki qum

bilan to'ldirilgan va burchaklari yopishtirilgan shisha yashikcha tarzida namlik kamerasi yoki parnikcha yasash mumkin.

Zamburug‘, bakteriyalar kolloniyasini o‘stirish bo‘yicha qator tajribalar uchun qorong‘ulik kamerasi kerak. Bu kameraning ichi qora rangga, tashqi tomoni esa xona mebellari rangida bo‘ladi. Gidrofitlarni akvarium yoki bankalarga joylashtiriladi.

Buning uchun banka ostiga bir oz tuprok, 2 sm qalinlikda torf qum solinadi.

Tirik tabiat burchagida har xil hayvonlarni saqlash uchun akvarium, terrarium va qafaslar zarur. Suv havzalarida yashovchi hayvonlar ustida kuzatish olib borish uchun matabda akvariumlar va tiniq shishali bankalar bo‘lishi zarur. Terrariumlarni suvda ham quruqda ham yashovchilarini, sudralib yuruvchilarini ekologiyasini hisobga olgan holda saqlash uchun o‘rnatalidi.

Qushlar va sut emizuvchilarini saqlash uchun har xil kattalikdagi qafaslar bo‘lishi kerak. Shunday qilib tirik tabiat burchagini tarkibi va undagi ishlarning mazmuni barcha biologik kurslar bo‘yicha ta’lim-tarbiya ehtiyojlari bilan belgilanadi.

TALABALARING BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH UCHUN O‘QUV TOPSHIRIQLARI

1. Tirik tabiat burchagi qanday ta’lim tarbiyaviy ahamiyatiga ega?
2. Tirik tabiat burchagi qanday tashkil etiladi?
3. Tirik tabiat burchagida qaysi o‘simliklar o‘rin oladi?
4. Tirik tabiat burchagida qaysi hayvonlar boqiladi?
5. Loyihalash orqali tirik tabiat burchagini jihozlang.
6. Tirik tabiat burchagini ahamiyati

tarbiyaviy ahamiyati	biologik ahamiyati	estetik ahamiyati

52 / 1 - LABORATORIYA MASHG‘ULOTI BIOLOGIYA (6- SINF)NI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING KUZATISH VA TAJRIBA QO‘YISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Laboratoriya mashg‘ulotining maqsadi: Talabalarni umumiy o‘rtta ta’lim maktabalarining biologiya (6- sınıf)ni o‘qitishda o‘quvchilarning kuzatish va tajriba qo‘yish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi bilan tanishish.

Mashg‘ulot davomida talaba:

- Umumiy o‘rtta ta’lim maktabalarining “Biologiya (6-sinf)”ni o‘qitishda o‘quvchilarning kuzatish va tajriba qo‘yish ko‘nikmalarini tarkib toptirish usullarini tanlay olishi;

- biologiya (6- sınıf)ni o‘qitishda o‘quvchilarning kuzatish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali amaliy ko‘nikmalarni tarkib toptirish usullarini tanlay olishi;

- biologiya (6- sınıf)ni o‘qitishda o‘quvchilarning tajriba qo‘yish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali amaliy ko‘nikmalarni tarkib toptirish usullarini tanlay olishi;

- biologiya (6- sınıf)ni o‘qitishda o‘quvchilarning kuzatish va tajriba qo‘yish uchun reja tuza olishi;

- o‘simliklar ustida kuzatish va tajribalar qo‘yish, tadqiqotchilik ko‘nikma va malakalar orqali amaliy ko‘nikmalarni tarkib toptirish usullarini tanlay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari lozim.

Laboratoriya mashg‘ulotida foydalaniladigan jihozlar va qurollar: biologiya darsligi, dastur, DTS, laboratoriya mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun zarur jihozlar, gultuvaklar.

Laboratoriya mashg‘ulotida foydalaniladigan pedagogik texnologiya: Loyihalash ta’lim texnologiyasida ishlash metodi.

Laboratoriya mashg‘ulotining borishi:

Tashkiliy qism.

1.Talabalarni laboratoriya mashg‘ulotining maqsadi, borishi, mustaqil bajariladigan o‘quv topshiriqlari bilan tanishtirish. Izoh: talabalar kichik guruhlarga bo‘linib, har bir guruuh mustaqil ravishda mavzu tanlaydi.

2. Talabalar “Biologiya (6- sinf)”ni o‘qitishda o‘quvchilarning kuzatish va tajriba qo‘yish ta’lim – tarbiyaviy ko‘nikmalarni tarkib toptirishni tashkil qilishni o‘rganadi.

3. Talabalar “Biologiya (6- sinf)”ni o‘qitishda o‘quvchilarning kuzatish va tajriba qo‘yish uchun reja tuza olishni o‘rganishadi.

4. Talabalar o‘simliklar ustida kuzatish va tajribalar qo‘yish, tadqiqotchilik ko‘nikma va malakalar tarkib toptirish usullarini tanlay olishadi.

O‘quvchilarning maktab tajriba yer maydonchasida kuzatish va tajriba qo‘yish ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etilishi, biologiya o‘quv xonasini o‘quv jarayoni uchun kerakli tarqatma materiallar bilan ta’minlash, kuzatish va tajribalarning natijalarini darsda namoyish qilish imkonini beradi.

O‘quvchilarni aniq puxta, mantiqiy tuzilgan reja asosida ishslash uquvini singdirish zarur. Buning uchun mакtab o‘quv tajriba uchastkasida katta pedagogik imkoniyatlar bor. Maktab tajriba yer maydonchasini tashkil etish, ekin va ko‘chatlar ekishning puxta o‘ylangan rejasini tuzishni birinchi o‘ringa qo‘yish kerak.

O‘quvchilar mакtab uchastkasida ishlab, biologiyadan olgan bilimlarini yangi olingan o‘simliklar misolida mustahkamlaydilar. Ular qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirishning eng muhim agronomik usullari to‘g‘risida tasavvurlar hamda ular bilan ishslashning muayyan sistemadagi ko‘nikmalarni hosil qiladilar.

Maktab tajriba yer maydonchasidagi ishlар o‘quvchilarda tashkilotchilik, jamoatchilik ko‘nikmalarini, mehnat madaniyatini, estetik tuyg‘ularni, o‘simlikni ko‘paytirish bilan tabiatni qayta ishlab chiqarish ko‘nikmalarini tarbiyalashi kerak.

O‘quv tajriba maydonchasida kuzda, bahorda biologiya bo‘yicha darslar va laboratoriya mashg‘ulotlar, yozda, kuzda va bahorda tajribalar qo‘yish va kuzatishlar o‘tkazish, umumiy biologiya darslarga tarqatiladigan materiallari tayyorlashlash bo‘yicha darsdan tashqari ishlар o‘tkaziladi.

Maktab mакtab tajriba yer maydonchasidagi ishlarni tashkil etishda o‘quvchilarni kichik guruhlarga ajratish, har bir guruh yetakchisini tayinlash, yetakchiga bajariladigan ishlар bo‘yicha aniq

topshiriqlarning berilishi ishning samarali bo‘lishi va ularni nazorat qilinishi, o‘quvchilarning o‘z vaqtida rag‘batlanirish imkonini beradi. Ota-onalar, mакtab ma‘muriyati mazkur ishlarni tashkil etishda yaqindan yordam berishi zarur.

Maktab tajriba yer maydonchasining tarkibiy qismlari bo‘yicha metodist olimlar o‘rtasida turlicha yondoshuvlar mavjud.

Jumladan, P.I. Borovskiy mакtab tajriba yer maydonchasi ikki bo‘limdan: tajriba va kolleksiya bo‘limlaridan iborat bo‘lishini ta’kidlagan.

N.M. Verzilinning fikricha, maktab tajriba yer maydonchasi bir necha bo‘limdan: dala, sabzavot, rezavor, manzarali o‘simliklar, biologiya va zoologiya bo‘limlaridan iborat bo‘lishi darkor.

Olimning fikricha, o‘quv dasturi talablarini bajarish maktab tajriba yer maydonchasining biologiya bo‘limiga yuklatiladi.

Maktab tajriba maydonchasida mакtab o‘quv dasturida o‘rganiladigan o‘simliklar: dala, poliz, rezavor mevalar, manzarali va yovvoyi o‘simliklar bo‘lishi kerak.

Shunga muvofiq, maydoncha aniq chegaralangan: dala, poliz, rezavor meva, manzarali, biologik bo‘limlarga ega bo‘lishi zarur. Uchastkada metrologik stantsiya, auditoriya barpo etish zarur. Har bir bo‘limda o‘simlik kolleksiysi va ular ustida tajriba o‘tkazish uchun joy ajratiladi.

Dala bo‘limi ikki: kolleksiya va tajriba qismlarga bo‘linadi.

Kolleksiya qismi quyidagi dalalarga ajratiladi: birinchi dalaga – suli, o‘tlar; ikkinchi dalaga – donli ekinlar: javdar bug‘doy, arpa, tariq, makkajo‘xori; uchinchi dalaga – dukkakli ekinlar: no‘xot, loviya, soya va yem xashak o‘tlari, beda; to‘rtinchi dalaga – tolali ekinlar: zig‘ir, kanop, moyli ekinlar: kungaboqar, kanakunjut, yeryong‘oq; beshinchi dalaga – chopiq talab ekinlar: kartoshka, qand va xashaki lavlagilar; oltinchi dalaga – efirli va dorivor o‘simliklar yalpiz; yettinchi dalaga – texnika ekinlari: g‘o‘za, kanop ekinlari.

Tajriba qismlarida birinchi dalada qora shudgorda begona o‘tlarni paydo bo‘lishi va ularga qarshi kurash, yashil o‘g‘itlar bilan o‘g‘itlangan va o‘g‘itlanmagan yerda kelgusi yilda g‘alla ekish. Ikkinchi dalada ekishning yaxshi usulini aniqlash. Uchinchi

dalada beda va unga aralashtirilgan pichan hosili. To'rtinchi dalada kartoshkalarning yer ustki tugunaklarini hosil qilish, chopiqning ta'siri, kartoshkani ko'paytirish usullari, kartoshkadan yuqori hosil olish.

TALABALARING BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH UCHUN O'QUV TOPSHIRIQLARI

1. Topshiriq. Sabzavot ekinlarini bo'limida – alohida uchastkaga ko'p yillik ekinlar kolleksiyasi: yernok shavel, ravoch o'tqaziladi. Bo'limning qolgan maydonini sabzavot almashlab ekish uchun 4 ta dalaga ajratiladi. Guruhlarga bo'linib quyidagi ekinlar ekilgan dala maydonlarida olib boriladigan ishlarni rejalashtiring.

Guruhs	Dalalar	Ekiladigan ekinlar	Uchastkadagi ishlar
1-guruh	1-dalada	go'ng bilan yangi o'g'itlangan yerga bargli ekinlar, har xil navli karam: mosh va qizil karam, gul karam, pomidor, piyozi	
2- guruh	2- dalada	Mevali ekinlar	
3- guruh	3- dalada	Mineral og'itlar bilan o'g'itlangan yerga ildizmevali: sabzi, lavlagi, sholg'om, rediska	
4- guruh	4- dalada	Dukakli ekinlar: loviya, no'xot va ertangi kartoshka ekilidi	

2. Topshiriq. Sabzavot ekinlari ustida o'tkaziladigan tajribalar quyidagilar bo'lishi mumkin. Asosiy ekinlar: karam, pomidor, lavlagi,

piyozi, bodring va boshqalardan yuqori hosil yetishtirish uchun tavsiya bering.

	O'tkaziladigan tajribalar	Tavsiyalar
1	yerga qo'shimcha ishlov berish	
2	qalamchadan ko'paytirish	
3	chatishdirish	
4	novdalarning chilpish	
5	o'simliklarni urug'lilik uchun ajratish	

3. Topshiriq. Rezavor- meva ekinlari bo'limining katta qismi mevali bog' uchun, kichikroq qismi rezavor-meva ekinlari va pitomnik uchun ajratiladi. Rezavor-meva bo'limini tashkil qilishda katta yoshli meva daraxtlari ular ustida kuzatish olib borish uchun, tez o'zgaruvchan yosh, shakl beriladigan daraxtlarga nisbatan unchalik qiziqarli bo'lmaydi. Shuning uchun maktab uchastkasida pitomnik bo'lishi, ularda o'simliklarning urug'lari ekilib yosh nihollar o'stirilishi zarur.

Ularga misollar keltiring

Mevali bog' ekinlari	Rezavor-meva ekinlari

4. Topshiriq. Rezavor-meva ekinlari gullarni sun'iy changlatish, mevali daraxtlarni kurtak va iskana payvand qilish, rezavor - mevalarni parxishlab va qalamchalardan ko'paytirish bo'yicha tajribalar o'tkaziladi. Vegetativ ko'paytirish ko'nikmalariga alohida e'tibor berish kerak. 1) Payvandlash usullarini tushuntiring. 2) Parxishlash usulini tushuntiring.

dalada beda va unga aralashtirilgan pichan hosili. To'rtinchi dalada kartoshkalarning yer ustki tugunaklarini hosil qilish, chopiqning ta'siri, kartoshkani ko'paytirish usullari, kartoshkadan yuqori hosil olish.

TALABALARING BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH UCHUN O'QUV TOPSHIRIQLARI

1. Topshiriq. Sabzavot ekinlarini bo'limida – alohida uchastkaga ko'p yillik ekinlar kolleksiyasi: yernok shavel, ravoch o'tqaziladi. Bo'limning qolgan maydonini sabzavot almashlab ekish uchun 4 ta dalaga ajratiladi. Guruhlarga bo'linib quyidagi ekinlar ekilgan dala maydonlarida olib boriladigan ishlarni rejalshtiring.

Guruhi	Dalalar	Ekiladigan ekinlar	Uchastkadagi ishlar
1-guruhi	1-dalada	go'ng bilan yangi o'g'itlangan yerga bargli ekinlar, har xil navli karam: mosh va qizil karam, gul karam, pomidor, piyozi	
2- guruhi	2- dalada	Mevali ekinlar	
3- guruhi	3- dalada	Mineral og'itlar bilan o'g'itlangan yerga ildizmevali: sabzi, lavlagi, sholgom, rediska	
4- guruhi	4- dalada	Dukakli ekinlar: loviya, no'xot va ertangi kartoshka ekiladi	

2. Topshiriq. Sabzavot ekinlari ustida o'tkaziladigan tajribalar quyidagilar bo'lishi mumkin. Asosiy ekinlar: karam, pomidor, lavlagi,

piyozi, bodring va boshqalardan yuqori hosil yetishtirish uchun tavsiya bering.


O'tkaziladigan tajribalar	Tavsiyalar
1 yerga qo'shimcha ishlov berish	
2 qalamchadan ko'paytirish	
3 chatishdirish	
4 novdalarning chilpish	
5 o'simliklarni urug'lik uchun ajratish	

3. Topshiriq. Rezavor- meva ekinlari bo'limining katta qismi mevali bog' uchun, kichikroq qismi rezavor-meva ekinlari va pitomnik uchun ajratiladi. Rezavor-meva bo'limini tashkil qilishda katta yoshli meva daraxtlari ular ustida kuzatish olib borish uchun, tez o'zgaruvchan yosh, shakl beriladigan daraxtlarga nisbatan unchalik qiziqarli bo'lmaydi. Shuning uchun maktab uchastkasida pitomnik bo'lishi, ularda o'simliklarning urug'lari ekilib yosh nihollar o'stirilishi zarur.

Ularga misollar keltiring

Mevali bog' ekinlari	Rezavor-meva ekinlari

4. Topshiriq. Rezavor-meva ekinlari gullarni sun'iy changlatish, mevali daraxtlarni kurtak va iskana payvand qilish, rezavor - mevalarni parxishlab va qalamchalardan ko'paytirish bo'yicha tajribalar o'tkaziladi. Vegetativ ko'paytirish ko'nikmalariga alohida e'tibor berish kerak. 1) Payvandlash usullarini tushuntiring. 2) Parxishlash usulini tushuntiring.



TALABALARING BILIMLARINI NAZORAT QILISH SAVOLLARI

1. Maktab tajriba yer maydonchasingin ta'lif va tarbiyaviy ahamiyatini aniqlang.
2. Maktab o'quv tajriba uchastkasida qanday bo'limlar bo'lishi kerak?
3. Dala o'simliklar bo'limi qanday qismlarni o'z ichiga oladi?
4. Rezavor-meva ekinlari bo'limida qanday o'simliklar ekiladi?
5. O'quv tajriba uchastkasida qanday eksperimentlar o'tkazilishi mumkin?
6. Manzarali o'simliklar bo'limida quyidagi o'simliklar:
-baxmalgul,
-kartoshkagul,
-gulsafsar.
-siren (nastarin) qanday parvarish qilinadi?
7. Manzarali o'simliklar bilan yovvoyi o'simliklarni madaniylashtirish bo'yicha, chatishdirish, payvandlash parxishlab ko'paytirish, kun uzunligini ta'siri, o'g'itlab sug'orishning ta'siri, shonalarni chilpish bilan o'simlikni gullash vaqtini o'zgartirish bo'yicha tajribalar o'tkazing.
8. O'simliklar biologiyasi bo'yicha ahamiyatga ega bo'lgan o'simliklarda eng muhim biologiya qonunlarini aniqlashtiruvchi tajribalar qo'ying.
9. Yovvoyi o'simliklarni o'rganishda o'quvchilarini e'tiborini tabiatni bilib olishga qaratiladi.

52 / 2 - LABORATORIYA MASHG'ULOTI BIOLOGIYA (7- SINF) DAN O'QUVCHILARNING KUZATISH VA TAJRIBA ISHLARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH METODIKASI

Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi: Talabalarni umumiy o'rta ta'lif maktablarining biologiya (7-sinf)ni o'qitishda o'quvchilarining kuzatish va tajriba ishlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi bilan tanishish.

Mashg'ulot davomida talaba:

- Umumiy o'rta ta'lif maktablarining biologiya (7- sınıf) ni o'qitishda o'quvchilarining kuzatish va tajriba ishlarini tashkil etish ko'nikmalarini tarkib toptirish usullarini tanlay olishi;
- biologiya (7 sınıf) ni o'qitishda o'quvchilarining kuzatish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ko'nikmalarni tarkib toptirish usullarini tanlay olishi;
- biologiya (7- sınıf) ni o'qitishda o'quvchilarining tajriba qo'yish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish usullarini tanlay olishi;
- biologiya (7- sınıf) ni o'qitishda o'quvchilarining kuzatish va tajriba qo'yish uchun reja tuza olishi
- biologiya (7- sınıf) ni o'qitishda o'quvchilarining kuzatish va tajriba o'tkaza olishi;
- hayvonlar ustida kuzatish va tajribalar qo'yish, tadqiqotchilik ko'nikma va malakalar orqali amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish usullarini tanlay olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim;

Laboratoriya mashg'ulotida foydalaniladigan jihozlar va qurollar: "Biologiya" (7- sınıf) darsligi, dastur, DTS, laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar.

Laboratoriya mashg'ulotida foydalaniladigan pedagogik texnologiya: Loyihalash ta'lif texnologiyasida ishslash metodi.

Laboratoriya mashg'ulotining borishi:

Tashkiliy qism.

1. Talabalarni laboratoriya mashg'ulotining maqsadi, borishi, mustaqil bajariladigan o'quv topshiriqlari bilan tanishtirish. Izoh:

talabalar kichik guruhlarga bo'linib, har bir guruh mustaqil ravishda mavzu tanlaydi.

2. Talabalar biologiya (7- sinf) ni o'qitishda o'quvchilarning kuzatish va tajriba qo'yish ta'lim – tarbiyaviy ko'nikmalarni tarkib toptirishni tashkil qilishni o'rganadi.

3. Talabalar biologiya (7- sinf) ni o'qitishda o'quvchilarning kuzatish va tajriba qo'yish uchun reja tuza olishni o'rganishadi;

4. Talabalar o'simliklar ustida kuzatish va tajribalar qo'yish, tadqiqotchilik ko'nikma va malakalar tarkib toptirish usullarini tanlay olishadi;

5. Talabalar estetik tarbiya berish orqali amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish usullarini tanlay olish ko'nikmalariga ega bo'lishadi.

Biologiya o'qituvchisi biologiya o'kitishning moddiy texnika bazasining har bir tarkibiy qismining didaktik funksiyasi, biologiya darslari bilan bir qatorda, o'quvchilar bilan olib boriladigan darsdan va sinfdan tashqari ishlar, o'quvchilarning mustaqil ishlarini maqsadga muvofiq tashkil etish yo'llarini belgilashi va o'z pedagogik faoliyatini amalga oshirishi lozim.

O'quvchilarning muktab tajriba yer maydonchasida kuzatish va tajriba quyish ishlarini maqsadga muvofiq tashkil etilishi, biologiya o'quv xonasini o'quv jarayoni uchun kerakli tarqatma materiallar bilan ta'minlash, kuzatish va tajribalarning natijalarini darsda namoyish qilish imkonini beradi.

Kuzatish va tajriba qo'yish o'quvchilarning xilma-xil qiziqishlarini hisobga olishga, ularni to'g'ri yo'nalishda sezilarli darajada chuqurlashtirishga va kengaytirishga imkon beradi. Turli xil tajribalar o'tkazish va kuzatuvlar o'tkazish ayniqsa, hayvonlarni himoya qilishda o'quvchilar yovvoyi tabiat bilan yaqin aloqada bo'lishadi, bu ularga katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi.

Kuzatish va tajriba qo'yish nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligini yanada chuqurroq amalga oshirishga imkon beradi. U muktab o'quvchilarini turli xil mumkin bo'lган ishlar bilan tanishtiradi: tajribalar o'tkazish va hayvonlarni kuzatish ularga g'amxo'rlik qilish, qushlarni boqish uchun ovqat tayyorlash, ferma hayvonlariga g'amxo'rlik qilish, bu o'z navbatida ular uchun javobgarlik hissini

uyg'otadi. topshirilgan vazifa, ishni oxirigacha bajarish qobiliyati, tabiatga muhabbat tuyg'usini rivojlantirishga yordam beradi.

O'quvchilarni aniq puxta, mantiqiy tuzilgan reja asosida ishslash uquvini singdirish zarur. Buning uchun muktab o'quv tajriba uchastkasida katta pedagogik imkoniyatlar bor. Muktab tajriba yer maydonchasini tashkil etish, hayvonlarni kuzatish, ularga g'amxo'rlik qilish, tajribalar qo'yish rejasini tuzishni birinchi o'ringa qo'yish kerak.

O'quvchilar muktab uchastkasida ishlab, biologiyadan olgan bilimlarini hayvonlar misolida mustahkamlaydilar. Ular hayvonlar parvarishining eng muhim usullari to'g'risida tasavvurlar hamda ular bilan ishslashning muayyan sistemadagi ko'nikmalarni hosil qiladilar.

Muktab tajriba yer maydonchasidagi ishlar o'quvchilarda tashkilotchilik, jamoatchilik ko'nikmalarini, mehnat madaniyatini, estetik tuyg'ularni, hayvonlar ni ko'paytirish bilan tabiatni qayta ishlab chiqarish ko'nikmalarini tarbiyalashi kerak.

Muktab tajriba yer maydonchasidagi ishlar tashkil etishda o'quvchilarni kichik guruhlarga ajratish, har bir guruh yetakchisini tayinlash, yetakchiga bajariladigan ishlar bo'yicha aniq topshiriqlarning berilishi ishning samarali bo'lishi va ularni nazorat qilinishi, o'quvchilarning o'z vaqtida rag'batlanishiga imkonini beradi. Ota-onalar, muktab ma'muriyati mazkur ishlarini tashkil etishda yaqindan yordam berishi zarur.

Biologiyadan darsdan tashqari mashg'ulotlarda kuzatuvlar va tajribalar o'tkazish o'quvchilarida tadqiqot qobiliyatini rivojlantiradi. Bundan tashqari, kuzatilayotgan hayvonlarning o'ziga xos xususiyatlari, yovvoyi va uy hayvonlari solishtirib, xulosalar chiqarish fikrlash, kuzatish rivojlanishiga hissa qo'shami, ularning diqqat e'tiboridan ilgari o'tgan narsalar haqida o'ylashga imkon beradi.

Agar darsdan tashqari ishlar tabiatda to'plangan materialdan ko'rgazmali qurollar ishlab chiqarish, shuningdek, jadvallar, modellar, biologik tanlovlardan, ko'rgazmalar, devoriy gazetalarni tashkil etish bilan bog'liq bo'lsa, bu muktab o'quvchilarining ommabop ilmiy va ilmiy biologik adabiyotlardan foydalaniishi, darsdan tashqari o'qishni joriy etish zaruriyatini keltirib chiqaradi. .

Kuzatish va tajriba qo'yishning ahamiyati shundaki, u o'quvchilarni bo'sh vaqtlarini qiziqarli narsalar va hodisalarini kuzatishga, hayvonlarni boqishga, uy hayvonlarga g'amxo'rlik qilishga bag'ishlashadi.

Shunday qilib, biologiyadan darsdan tashqari ishlar maktab biologiyasi kursining ta'lim muammolarini hal qilishda ham, umuman mактабнинг oldida turgan ko'plab umumiy pedagogik vazifalarni hal qilishda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun u har bir biologiya o'qituvchisi faoliyatida muhim o'rin egallashi kerak.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarni, tashabbuskorlikni, kuzatuvchanlik va mustaqillikni rivojlantiradilar, mehnat ko'nikmalariga ega bo'ladilar, intellektual, kognitiv qobiliyatlarni rivojlantiradilar, qat'iyatlilik va mehnatsevarlikni rivojlantiradilar, hayvonlar to'g'risida bilimlarni chuqurroq egallaydilar, atrof-muhitga qiziqishni rivojlantiradilar, olingen bilimlarni amalda qo'llashga o'rganadilar, amaliyotda ular tabiiy ilmiy dunyoqarashni shakllantirdilar.

O'quvchilarning qiziqishlari ko'pincha yig'ish yoki har qanday hayvonga nisbatan havaskorona munosabat bilan chegaralanadi, o'qituvchining vazifasi o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, tabiatni, ilm-fanni sevadigan bilimdon shaxsni tarbiyalash va tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Yaxshi tashkillashtirilgan darsdan tashqari ish katta ahamiyatga ega, chunki darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida biologiyada individual kashfiyotlarni muhokama qilish, turli xil murakkablik va davomiylikdagi tajribalarni kuzatish va o'rnatish uchun imkoniyatlar mavjud. Tajribalar va tabiiy hodisalarini uzoq vaqt davomida kuzatishda (turli joylarda va har xil fasllarda) mактаб o'quvchilari ularni o'rab turgan moddiy voqelik to'g'risida aniq tasavvurlarni shakllantiradilar. O'quvchilarning o'zлари tomonidan olib borilgan kuzatuvalar, masalan, kapalakning rivojlanishi (masalan, karam kapalagi) ularning ongida chuqur iz va kuchli hissiy taassurot qoldiradi.

Tajribalar va amaliy mashg'ulotlar uchun quyonlar yoki tovuqxonalarda tovuqlar bo'lishi shart. Hayvonlarning o'simlik muhitini bilan bo'lgan tabiiy bog'lanish ishini tushuntirish uchun uchastkaning

o'simliklari bo'lgan turli bo'limlardan foydalilanadi.

Masalan, o'quvchilar ba'zi bir zararkunandalar rivojlanishini kuzatish uchun daraxtlarning zararkunandalarini ustida kuzatishlar olib boriladi.

Xulosa qilib aytganda, mактаб tajriba yer maydonchasida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatining barcha turlarini tashkil etish biologik bilim va ko'nikmalarni takomillashtirish, ularni amaliyotga qo'llash bo'yicha ko'nikma va malakalar tarkib topadi, hayvonlar ustida kuzatish va tajribalar qo'yish, tadqiqotchilik ko'nikma va malakalarning ortishiga, kuzatish natijalarini rasmiylashtirish, tajriba va nazorat ob'ektlarini o'zaro taqqoslash, oddiy hisoblash natijalarini asosida tajriba natijalarini dallillash, olingen natjalarga tashqi muhitning ko'rsatgan ta'sirini aniqlay olish, ob-havo o'zgarishlari natijasida vujudga keladigan holatlarni izohlash, imkoniyati vujudga keladi.


TALABALARING BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH UCHUN O'QUV TOPSHIRIQLARI

1. Topshiriq. Hayvonlarda tajriba va kuzatishlar olib borish uchun reja tuzing.

1-rypyx	2- rypyx
Yakka tartibda olib boriladigan ishlar	Guruh bo'lib olib boriladigan ishlar


2. Topshiriq. It zotlarini kuzating va ularning morfologik va fiziologik belgilarni yozing.

Morfologik	Fiziologik
------------	------------




3. Topshiriq. Biznes reja tuzing.

1-guruh



2- guruh



BILIMNI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

- Maktab maktab tajriba yer maydonchasining ta'lim va tarbiyaviy ahamiyatini aniqlang.
- Tajribalar o'tkazish va kuzatuvalar o'tkazish qanday tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi?
- Kuzatish va tajriba qo'yish nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligini amalga oshirish nimalarni o'z ichiga oladi?
- Aniq puxta, mantiqiy tuzilgan reja tuzishda nimalarga e'tibor berish kerak?
- Biologiyadan darsdan tashqari mashg'ulotlarda kuzatuvalar va tajribalar o'tkazish o'quvchilarida tadqiqot qobiliyatini rivojlantirishdagi ahamiyatini aniqlang.
- Talabalarning qiziqlichlari ko'pincha juda tor, munosabat bilan chegaralanadi. Bunda o'qituvchining vazifasi nimalardan iborat?

IZOHLI LUG'AT

Amaliy tadqiqotlar – pedagogik jarayonning ayrim jihatlarini chuqur o‘rganishga qaratilgan ishlar, pedagogik amaliyot qonunlarini ochish.

Anatomik ko‘nikmalar – hujayra organoidlarining tuzilishi va funksiyasini aniqlash, kattalashtiruvchi asboblar bilan ishlash, mikropreparatlar tayyorlay olish.

Anatomik mazmundagi laboratoriya mashg‘ulotlari – tirik organizmlarning ichki tuzilishi, to‘qima, hujayra organoidlarining tuzilishi va funksiyasini aniqlash, kattalashtiruvchi asboblar bilan ishlash, mikropreparatlar tayyorlay olishga mo‘ljallangan mashg‘ulotlar.

Bayon qilish – o‘qituvchi tomonidan o‘rganilayotgan material mazmunini izchil so‘zlab berish metodi.

Bilim – narsa va hodisalarning muhim belgi va xususiyatlari, jarayonlar va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risida fan tomonidan aniqlangan tushunchalardan tarkib topadi.

Bilish faoliyati – idrok qilish hissi, nazariy fikrlash va amaliy faoliyat birligi.

Biologik tushunchalar – biologiya o‘quv fani mazmuni mantiqiy izchillikda shakllantiriladigan, rivojlantiriladigan va o‘zaro aloqada bo‘lgan tushunchalar tizimi.

Boshqarish – tashkil etish, qaror qabul qilishga qaratilgan faoliyat, obyektni o‘z xizmat vazifasi doirasida nazorat qilish, tartibga solish, ishonchli axborotlar asosida tahlil qilish va yakun yasash.

Burch – muayyan axloqiy majburiyatlarni his qilish, uning zarurligini anglash.

Vazifa – maqsad va uni amalga oshirish bosqichlarining oydinlashtirilishi.

Verbal – ifodali, og‘zaki.

Davlat ta’lim standarti – uzlusiz ta’limning muayyan bosqichida shaxs (mutaxassis)ning tayyorgarlik darajasi va mazmuniga qo‘yiladigan minimum talablar.

Dars – biologiya o‘quv dasturi bilan me’yorlangan mazmunni o‘rganish maqsadida yoshi, tayyorgarlik darajasi bir xil, doimiy tarkibga ega bo‘lgan o‘quvchilardan iborat guruh (sinflarda belgilangan vaqt doirasida, qat’iy jadval asosida biologiya o‘quv xonasida tashkil etiladigan o‘qitish shakli.

Darslik – o‘quv dasturi asosida yoziladigan, ma’lum bilimlar majmuasi sistemali tarzda ifoda etilgan, o‘quvchilarning mustaqil bilim olishi uchun mo‘ljallangan o‘quv adabiyoti.

Dunyoqarash – shaxsning tafakkur tarzi va yo‘nalishini aks ettiruvchi qarashlar, e’tiqod hamda fikr-o‘ylar tizimi.

Izohlash – og‘zaki izoh, yoritilishi lozim bo‘lgan turli materiallarni izohlash, isbotlash, tahlil qilish.

Izchillik prinsipi – o‘quvchilar tomonidan tushunchalarni o‘zlashti-rish bosqichlarini e’tiborga olgan holda o‘quv materialini o‘rganishni tashkil etishni taqozo etadi.

Ilmiylik prinsipi – biologiyani o‘qitishda o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga asos bo‘ladigan va amaliy ahamiyati, yoritilgan, nazariy va amaliy jihatdan fanda aniqlangan ilmiy bilimlar, faktlar, tushunchalar, qonunlar, nazariyalarni o‘rganishni kafolatlaydi.

Individual va guruhlarda o‘qitishni uyg‘unlashtirish prinsipi – ta’lim jarayonida yalpi o‘qitish bilan bir qatorda, o‘quvchilarning individual va guruhlarda mustaqil ishlarini tashkil etishni taqozo etadi.

Kreativlik – betakror qadriyatlar yaratuvchi, nostandart yechimlar qabul qiluvchi individning botiniy qobiliyati.

Kuzatish – biror pedagogik hodisa bo‘yicha konkret faktik material olish maqsadini ko‘zlagan idrok etishning shakli.

Ko‘nikma – biror faoliyatni o‘zlashtirilgan usuli, malaka esa, mazkur ko‘nikmaning avtomatlashgan ko‘rinishi sanaladi.

Ko‘nikma – O‘rganish natijasida qo‘lga kiritilgan, beixtiyor, avtomatik tarzda bajariladigan harakat. Ko‘nikmalar biror harakatni nazoratsiz, avtomatik tarzda bajarish qobiliyatlaridir.

Ko‘rgazmalilik printsipi – tirik organizmlarning tuzilishi va hayotiy jarayonlarini o‘rganishda tabiiy, tasviriy, tarqatma, didaktik

va dinamik materiallar, ekran vositalaridan foydalanishni ko'zda tutadi.

Laboratoriya mashg'uloti – asbob-uskunalar va boshqa texnik moslamalardan foydalangan holda talabalar bilan tajribalar o'tkazish, biror hodisani maxsus jihozlar yordamida o'rganish.

Malaka – shaxsning o'zi egallagan bilimlari asosida ularning yangi sharoitdagи yangiliklar bilan birga, ma'lum bir faoliyatni samarali bajarish qobiliyatidir.

Mantiqiy ketma-ketlik printsipi – o'quvchilar tomonidan tushunchalarni o'zlashtirish qonuniyatlariga asoslanadi, o'quv dasturi va darsliklarda boblar, mavzular mantiqiy izchillikda yoritilishini talab etadi.

Mashq – O'zining bilimlarini chuqurlashtirish hamda tegishli malaka va ko'nikmalar hosil qilish maqsadida harakatlarni og'zaki va yozma ravishda takroran amalga oshirish

Metodika – biror ishni tashkil qilishda maqsadga muvofiq qo'llanadigan metodlar.

Metodist – ustoz mavzu bo'yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqadi va taqdimot qiladi.

Metodologiya – 1) dunyoni ilmiy bilish metodi haqidagi ta'limot; 2) biror fanda, shu jumladan pedagogikada qo'llaniladigan metodlar.

Moderator – ustoz o'rganilayotgan mavzuni o'qitishda foydalilanidigan innovatsion va axborot texnologiyalarni tavsiya etadi.

Morfologik ko'nikmalar – organlar shakli va tuzilishini ajrata olish;

Morfologik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlari – tirik organizmlarning tashqi tuzilishi, ularning organlari shakli va tuzilishini o'rganishga mo'ljallangan laboratoriya mashg'ulotlari.

Motiv – ma'lum ehtiyojlarni qondirish uchun asos bo'ladigan kishining ichki faoliyat mazmuni.

Motivatsiya – shaxsni faol xatti-harakatlarga undovchi sabablar, asoslar to'plami bo'lib, u ayni zamonda kishi xulqini fiziologik

va psixologik boshqarishning dinamik jarayonini ham bildiradi, faoliyatning yo'nalishi, faolligi, uyg'unligi hamda turg'unligini belgilaydi.

Muammoli vaziyat – o'quv vaziyati bo'lib, u mashaqqat bilan hal qilinadigan masala tufayli yuzaga keladi.

Muammoli o'qitish – o'quv mashg'ulotini tashkil etish shakli bo'lib, unda pedagog rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltiriladi va uning hal qilinishida ta'lim oluvchilar faol mustaqil harakat qiladilar.

Munozara – 1) matbuotda, suhbatda biror bahsli masalani muhokama qilish, bahs; 2) muayyan muammo bo'yicha fikr almashishga asoslangan ta'lim metodi.

Nazariya va amaliyot birligi prinsipi – o'rganilayotgan mavzu mazmunidagi nazariy bilimlarni amaliyotga joriy etish yo'llari, inson hayoti, xalq xo'jaligi va tabiatdagи ahamiyatini yoritishga xizmat qiladi.

Ob'ekt – insonning, sub'ektning bilish predmeti va faoliyati.

Onglilik prinsipi – ta'lim jarayonida qo'llanilgan o'qitishning samarali metodi va vositalari o'quvchilar tomonidan bilimlarni ongli o'zlashtirishiga zamin tayyorlaydi.

Osteologik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlari – tirik organizmlarning tayanch-harakatlanish organlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, tuzilishi va funksiyasini belgilashga mo'ljallangan laboratoriya mashg'ulotlari.

Refleksiya – takrorlash, aks etish, o'z harakatlari va holatlarini tahlil qilish.

Samaradorlik prinsipi – yangi mavzuni o'rganish maqsadida o'qituvchi tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llanilgan o'qitish metodi va vositalari o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni yuqori darajada o'zlashtirishi, ya'ni samaradorlikka xizmat qilishini nazarda tutadi.

Sistemalilik prinsipi – tirik organizmlarni biologik sistema sifatida turli tuzilish va murakkablik darajasida o'rganish, shuningdek, o'qitish jarayonining barcha tarkibiy qismlari: o'qitish maqsadi,

vazifalari, mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarini tizim shaklida tasavvur qilish va foydalanishni ko'zda tutadi.

Sistematik ko'nikmalar – sistematik guruh belgilari va xususiyatlarini aniqlay olish;

Sistematik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlari – sistematik guruh belgilari va xususiyatlarini aniqlay olishga mo'ljallangan laboratoriya mashg'ulotlari.

Suhbat – kuzatuv chog'ida yetarli darajada aniq bo'lmagan zarur axborotni olish uchun qo'llanadigan tadqiqot metodi.

Tadqiqot ob'ekti – ziddiyat va muammoli vaziyat tug'diruvchi, bilishga qaratilgan ilmiy tahlilga muhtoj ob'ekt.

Tadqiqot predmeti – bevosita o'rganilishi lozim bo'lgan va amaliy yoki nazariy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadigan ob'ektning mohiyati, ma'lum bir tomoni, xususiyati.

Talqin qilish – biror hodisa yoki narsani izohlash, tushuntirish.

Ta'lim va tarbiyaning uzviylichi printsiipi – ta'lim jarayonining metodik ta'minoti va boshqarilishida samaradorlikka erishish, o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish muammolarini hal etishni ko'zda tutadi.

Ta'lim jarayonini demokratlashtirish prinsipi – o'qitishda o'qituvchi va o'quvchilarning fuqarolik huquqlarini tenglashtirish, o'z fikrini erkin bayon etish, o'quv topshiriqlarini bajarishda tanlash huquqini berishni taqoza etadi.

Ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish prinsipi – o'quvchilarning bilim olish, tarbiyalash va rivojlantirish uchun qulay psixologik muhit yaratish, har bir o'quvchini o'z imkoniyati darajasida ijodiy qobiliyatlarini o'stirishga imkon yaratadi.

Ta'limni differensiallashtirish va individuallashtirish prinsipi – o'qitish jarayonini tabaqalashtirish, har bir shaxsning yosh va psixologik xususiyatlari, qiziqishi, qobiliyati, rivojlanish va imkoniyat-lari darajasida bilim olishi, ularga tavofutlab yondoshish maqsadida qiyinchilik darjasasi turlicha bo'lgan o'quv topshiriqlarini tuzish, ularni bajarish orqali ko'zlangan natijaga erishi, iqtidorli yoshlarga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil

ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratishni ko'zda tutadi

Test – 1) standart shakldagi topshiriqlar bo'lib, aqliy taraqqiyot, qobiliyat, bilim va malakanai aniqlash maqsadida o'tkaziladigan sinovdir; 2) aniq sotsiologik tadqiqotlarda foydalaniladigan tarqatma material, savolnomasi; 3) shaxs ruhiyati va xulqining aniq miqdoriy va ma'lum sifat baholarini oldindan berilgan ba'zi standart – test me'yordi bilan qiyosiy O'rganishga mo'ljallangan psixologik tadqiqotlarning standartlashtirilgan metodi.

Tushunarilik prinsipi – o'qitish jarayonida o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarning oldini olish uchun qo'llaniladi.

Uzviylik prinsipi – o'quvchilarning avval o'zlashtirgan bilimlari bilan o'rganilayotgan mavzudagi bilimlar o'rtaсидagi bog'lanish bo'lishini, shuningdek, uzlusiz ta'lim tizimi turlarida o'rganiladigan ta'lim mazmuni o'rtaсиda uzviylik bo'lishini nazarda tutadi.

O'qitish vositalari – ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadi va vazifalari, o'rganiladigan mavzu mazmuniga muvofiq, o'qituvchi tomonidan mazkur jarayonning samaradorligini orttirish maqsadida qo'llaniladigan vositalar.

O'qitish maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarining ijtimoiy muhitga bog'liqligi prinsipi – har tomonlama rivojlangan shaxsni kamolga yetkazishda ta'lim mazmunini saralash, unga bog'liq holda o'qitishning samarali metod, vosita va shakllaridan foydalanishni talab etadi.

Fiziologik ko'nikmalar – tirik organizmlarda sodir bo'ladigan hayotiy jarayonlarni o'rganishga oid oddiy tajribalar o'tkazish, kuzatishlar olib borish;

Fiziologik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlari – tirik organizmlarda sodir bo'ladigan hayotiy jarayonlarni o'rganishga oid oddiy tajribalar o'tkazish, kuzatishlar olib borishga mo'ljallangan laboratoriya mashg'ulotlari.

Fundamentallik prinsipi – biologiyaning asosiy, tayanch

vazifalari, mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarini tizim shaklida tasavvur qilish va foydalanishni ko'zda tutadi.

Sistematik ko'nikmalar – sistematik guruh belgilari va xususiyatlarini aniqlay olish;

Sistematik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlari – sistematik guruh belgilari va xususiyatlarini aniqlay olishga mo'ljallangan laboratoriya mashg'ulotlari.

Suhbat – kuzatuv chog'ida yetarli darajada aniq bo'lmagan zarur axborotni olish uchun qo'llanadigan tadqiqot metodi.

Tadqiqot ob'ekti – ziddiyat va muammoli vaziyat tug'diruvchi, bilishga qaratilgan ilmiy tahlilga muhtoj ob'ekt.

Tadqiqot predmeti – bevosita o'rganilishi lozim bo'lgan va amaliy yoki nazariy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadigan ob'ektning mohiyati, ma'lum bir tomoni, xususiyati.

Talqin qilish – biror hodisa yoki narsani izohlash, tushuntirish.

Ta'lim va tarbiyaning uzviyligi printsibi – ta'lim jarayonining metodik ta'minoti va boshqarilishida samaradorlikka erishish, o'quvchilarini tarbiyalash va rivojlantirish muammolarini hal etishni ko'zda tutadi.

Ta'lim jarayonini demokratlashtirish printsibi – o'qitishda o'qituvchi va o'quvchilarning fuqarolik huquqlarini tenglashtirish, o'z fikrini erkin bayon etish, o'quv topshiriqlarini bajarishda tanlash huquqini berishni taqoza etadi.

Ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish printsibi – o'quvchilarning bilim olish, tarbiyalash va rivojlantirish uchun qulay psixologik muhit yaratish, har bir o'quvchini o'z imkoniyati darajasida ijodiy qobiliyatlarini o'stirishga imkon yaratadi.

Ta'limni differensiallashtirish va individuallashtirish printsibi – o'qitish jarayonini tabaqalashtirish, har bir shaxsning yosh va psixologik xususiyatlari, qiziqishi, qobiliyati, rivojlanish va imkoniyat-lari darajasida bilim olishi, ularga tavofutlab yondoshish maqsadida qiyinchilik darjasini turlicha bo'lgan o'quv topshiriqlarini tuzish, ularni bajarish orqali ko'zlangan natijaga erishi, iqtidorli yoshlarga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil

ravishda fundamental va maxsus o'qitishda yaratishni ko'zda tutadi

Test – 1) standart shakldagi topshiriqlar bo'lib, aqliy taraqqiyot, qobiliyat, bilim va malakani aniqlash maqsadida o'tkaziladigan sinovdir; 2) aniq sotsiologik tadqiqotlarda foydalaniladigan tarqatma material, savolnoma; 3) shaxs ruhiyati va xulqining aniq miqdoriy me'yorlari bilan qiyosiy O'rganishga mo'ljallangan psixologik tadqiqotlarning standartlashtirilgan metodi.

Tushunarliklilik prinsipi – o'qitish jarayonida o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarning oldini olish uchun qo'llaniladi.

Uzviylik prinsipi – o'quvchilarning avval o'zlashtirgan bilimlari bilan o'rganilayotgan mavzudagi bilimlar o'rtasidagi bog'lanish bo'lishini, shuningdek, uzlusiz ta'lim tizimi turlarida o'rganiladigan ta'lim mazmuni o'rtasida uzviylik bo'lishini nazarda tutadi.

O'qitish vositalari – ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadi va vazifalari, o'rganiladigan mavzu mazmuniga muvofiq, o'qituvchi tomonidan mazkur jarayonning samaradorligini orttirish maqsadida qo'llaniladigan vositalar.

O'qitish maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarining ijtimoiy muhitga bog'liqligi printsibi – har tomonlama rivojlangan shaxsn ni kamolga yetkazishda ta'lim mazmunini saralash, unga bog'liq holda o'qitishning samarali metod, vosita va shakllaridan foydalanishni talab etadi.

Fiziologik ko'nikmalar – tirik organizmlarda sodir bo'ladigan hayotiy jarayonlarni o'rganishga oid oddiy tajribalar o'tkazish, kuzatishlar olib borish;

Fiziologik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlari – tirik organizmlarda sodir bo'ladigan hayotiy jarayonlarni o'rganishga oid oddiy tajribalar o'tkazish, kuzatishlar olib borishga mo'ljallangan laboratoriya mashg'ulotlari.

Fundamentallik prinsipi – biologyaning asosiy, tayanch

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

tushunchalari, nazariyalari, ilmiy-tadqiqot metodlari, umumiyl ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo'lgan va umuminsoniy qadriyatlarning yutug'i sanalgan tadqiqot natijalarini o'rganishga asoslanadi.

Ekologik ko'nikmalar – organizmlarning yashash muhitiga moslashish shakllarini aniqlash, ekologik sistemalardagi oziq-zanjirining tarkibiy qismlarini aniqlash;

Ekologik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlari – organizmlarning yashash muhitiga moslashish shakllarini aniqlash, ekologik sistemalardagi oziq-zanjirining tarkibiy qismlarini aniqlashga mo'ljallangan laboratoriya mashg'ulotlari.

Ekspert – ustoz avvalgi uch kichik guruhlarni tavsiyalarini tinglab, ekspert xulosani bayon etadi.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF- 4947- sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Umumiyl o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida 2017 yil 6 apreldagi 187-son qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 14-son, 230-modda

3. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF- 5712-son Farmoni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son)

4. O'zR Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda qabul qilingan 997-sonli "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.12.2018 y., 09/18/997/2289-son.

5. Allamuratov M.Zaripov.E , Usmonova.Z , Maksudova.R. Metodicheskoe posobie po provedeniyu laboratornyx rabot v obshcheobrazovatel'nyx shkolax. Nauchno-proizvodstvennoe ob'edinenie «ELXOLDING», 2008-87s.

6. Andreeva, N. D. Metodika obucheniya biologii v sovremennoy shkole : uchebnik i praktikum dlya bakalavriata i magistratury / 2-e izd., ispr. i dop. — M. : Izdatel'stvo Yurayt, 2017. — 294 s.

7. Vasil'eva M.Z. Metodika prepodavaniya biologii: uchebno-metodicheskiy kompleks. — Gorno-Altaysk: RIO GAGU, 2008. - s.

8. Zimnyaya I. A. Klyuchevye kompetentnosti kak

rezul'tativno - selevaya osnova kompetentnostnogo podxoda v obrazovanii. - M.: Issledovatel'skiy sentr problem kachestva podgotovki spetsialistov, 2004. — 42 c. ; 42 - b.;

9. Musaev.D.A.,Turabekov Sh.,Saidkarimov A.T.,Almatov A.S.Raximov.A.K. Genetika va selektsiya asoslari. Darslik.(lotin) „Voris nashriyoti” Toshkent. 2012 y.B.431.

10. Ponomareva I. N. Metodika obucheniya biologii : uchebnik dlya stud. uchrejdeniy vissih. prof. obrazovaniya / — M. : Izdatel'skiy sentr «Akademiya», 2012. — 368 s.

11. Raximov.A.K. Evolyutsion ta'limot fanidan amaliy va seminar mashgulot-larini tashkil etish va o'tkazish metodikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma.Tashkent. 2011 y.B.111.

12. Raximov.A.K. Evolyutsion ta'limot fanidan pedagogik tajriba-sinov o'tkazish materiallari. O'quv qo'llanma. TDPU Toshkent.2019 y. B.170.

13. Turabekov Sh.,Almatov A.S.,Jalolov G'.J., Raximov.A.K. Genetikadan masalalar to'plami va ularni yechish usullari. Uslubiy qo'llanma.(lotin) „Universitet” Toshkent. 2013 y.B.115.

14. Xutorskoy A.V. Kompetentnostnyy podxod v obuchenii. Nauchno-metodicheskoe posobie. — M.: Izdatel'stvo «Eydos», 2013. — 73 s.

15. G'ofurov A. Abdukarimov A.,Tolipova J.,Ishankulov O.,Umaralieva M.T., Abduraxmanova I. «Biologiya» \ O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinf va o'ta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik. «Sharq» nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi, 2017 yil.

16. G'ofurov A. Abdukarimov A., Tolipova J., Ishankulov O., Umaralieva M.T., Abduraxmanova I. «Biologiya» \ O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinf va o'ta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik. «Sharq» nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi, 2018 yil.

17. Tolipova J., Umaralieva M.T. «Odam va uning salomatligi darslari(8sinf)». O'qituvchi kitobi.\ Toshkent: "Tafakkur"

nashriyoti, 2016 yil.

18. Tolipova J., Umaralieva M.T. «Biologiya darslari (6 -sinf)» O'qituvchi kitobi. (Qayta ishlangan va to'ldirilgan nashri) \\\ Toshkent: "Tafakkur" nashriyoti, 2016 yil.

19. Tolipova J., Azimov I.T., Sultonova N. «Biologiya darslari (9-sinf)». O'qituvchi kitobi.\\\ Toshkent: "Tafakkur" nashriyoti, 2016 yil.

20. Tolipova J., Umaralieva M.T. «Biologiya darslari (5 -sinf)» O'qituvchi kitobi. O'quv-metodik qo'llanma. (Qayta ishlangan va to'ldirilgan nashri). Toshkent: "Tafakkur" nashriyoti, Toshkent, 2016 - 232 b.

21. J.O Tolipova, A.T.G'ofurov Biologiyani o'qitishning metodikasi Darslik T., 2007

22. G'ofurov A., Tolipova J., Umaralieva M.T. «Biologiya darslari» \ Pedagogika oliv ta'lim muassasalari talabalari, o'rta ta'lim kasb-hunar muassasalari o'qituvchilari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, 2015 yil. Guvohnoma raqami 332/1-17

23. Umaralieva M.T. "Biologiya". Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf o'quvchilari uchun biologiya fanidan o'quv qo'llanma. "Navro'z nashriyoti", Toshkent, 2019 - 118 b.


24. Umaralieva M.T., Pratov O., To'xtaev A.S., Azimova F.O., Saparboev I.Z. «Biologiya (Biologiya)». Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf o'quvchilari uchun darslik. «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent, 2017 - 144 b.

MUNDARIJA

So'z boshi	3	
Talabalarining laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorlanishi yuzasidan metodik ko'rsatma	5	
LABORATORIYA MASHG'ULOTI MAVZULARI		
1 Biologiyani o'qitishda laboratoriya mashg'ulotlarning o'mni va ahamiyati, tashkil etish va o'tkazish metodikasi	7	
2 Biologiyadan o'quv dasturlarida 5 – 11-sinflar uchun belgilangan laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari tahlili	12	
3 Biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari uchun texnologik xarita va dars ishlchanmasini loyihalash	17	
4 Biologiya xonasida laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda rioxan qilinadigan xavfsizlik qoidalari va laboratoriya mashg'ulotlarida foydalaniladigan asbob-uskunalar	23	
5 Biologiyaga kirish o'quv fani (5-sinf)da «kattalashtirib ko'rsatuvchi asboblar bilan tanishish» mavzusidagi laborato-riya mashg'ulotini tashkil etish metodikasi	28	
6 Biologiya o'quv fanidan morfologik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi	38	
7 Biologiya o'quv fanidan anatomik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi	42	
8 Biologiya o'quv fanidan fiziologik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi	47	
9 Biologiya o'quv fanidan sistematikaga oid mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi	52	
10 Zoologiya o'quv fanidan morfologik, anatomik, fiziologik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi	56	
11 Zoologiya o'quv fanidan mikroskopdan foydalanishga asoslangan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi	60	
12 Zoologiya o'quv fanidan tirik ob'ektlardan foydalanishga asoslangan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi	65	
13 Odam va uning salomatligi o'quv fanidan anatomiq mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi	68	
14 Odam va uning salomatligi o'quv fanidan fiziologik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi	73	
15 Odam va uning salomatligini o'qitishda fanlararo integratsiyani amalga oshirish metodikasi	77	
16 Odam va uning salomatligi o'quv fanidan valeologik mazmundagi laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi	86	
17 Sitologiya o'quv fanidan vaqtinchalik preperatlar tayyorlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi	88	
18 Sitologiya o'quv fanidan fiziologik jarayonlarni kuzatish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi	95	
19 Sitologiya o'quv fanidan masalalar yechish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi	98	
20 Genetika o'quv fanidan masalalar yechish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi	103	
21 Ekologiya o'quv fanidan ekologik tushuncha va ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi	108	
22 Ekologiya o'quv fanidan tabiatda kuzatishlar olib borish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi	110	
23 Ekologiya o'quv fanidan ekologik masalalar yechish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi	114	
24 Organik olam turli sistematik guruhlari o'rtaqidagi filogenetik bog'lanishlarni o'rganishga qaratilgan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi	117	
25 Virtual laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi	120	

26 Biologiya (biologiya)ni o‘qitishda o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish metodikasi.	121	41 O‘rta ta’lim matabning biologiyadan (11-sinf) DTS, o‘quv dasturi va darslikning tahlili.	221
27 Biologiyadan „Yosh biologlar” to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasi.	132	42 Hayotning populyatsiya darajalaridagi umumbiologik qonuniyatlarga oid mazmundagi darslarni tashkil etish metodikasi.	229
28 Biologiya darslarida foydalaniladigan ko‘rgazmali va didaktik vositalardan foydalanish foydalanish metodikasi .	136	43 Hayotning ekosistema darajalaridagi umumbiologik qonuniyatlarga oid mazmundagi darslarni tashkil etish metodikasi.	238
29 Biologiya darslarida multimedia, o‘quv kinofilmlari, nazorat dasturlaridan foydalanish metodikasi .	143	44 Hayotning biosfera darajalaridagi umumbiologik qonuniyatlarga oid mazmundagi darslarni tashkil etish metodikasi	244
30 O‘rta ta’lim matabning biologiyaga kirish (5 sinf) dan DTS, o‘quv dasturi, darslik tahlili, yillik taqvim-reja, mavzuli rejalar tuzish	149	45 Biologiyadan ekskursiya darslarni tashkil etish metodikasi.	251
31 O‘rta ta’lim matabning biologiyadan DTS, o‘quv dasturi, darslikning tahlili, yillik taqvim-reja, mavzuli rejalar tuzish.	156	46 Biologiya darslarida lokal texnologiyalardan foydalanish metodikasi.	263
32 Biologiya dan hamkorlikda o‘qitish texnologiyasiga asoslangan darslarni tashkil etish metodikasi	162	47 Biologiyadan umumlashtiruvchi va nazorat darslarni darslarni tashkil etish metodikasi	268
33 Biologiya dan didaktik o‘yin texnologiyasiga asoslangan darslarni tashkil etish metodikasi .	170	48 Biologiya dan darsdan tashqari ishlarning ta’lim-tarbiya jarayonida tutgan o‘rni.	273
34 O‘rta ta’lim matabining biologiya (zoologiya)dan DTS, o‘quv dasturi va darslikning tahlili, yillik taqvim-reja, mavzuli rejalar tuzish.	178	49 Biologiya o‘qitishda o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarini tarkib toptirish	281
35 Zoologiyadan modulli ta’lim texnologiyasiga asoslangan darslarni tashkil etish metodikasi.	184	50 Xona o‘simliklarining ko‘paytirish va parvarishlash	287
36 O‘rta ta’lim matabining “Odam va uning salomatligi”dan DTS, o‘quv dasturi, darslik tahlili, yillik taqvim-reja, mavzuli-reja, dars ishlanmasini loyihalash.	190	51 Tirik tabiat burchagida hayvonlarni saqlash va parvarishlash	287
37 Biologiyani o‘qitishda o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzining tarkib toptirish .	196	52 Biologiyani o‘qitishda o‘quvchilarning kuzatish va tajriba / 1 ko‘nikmalarini rivojlantirish .	287
38 O‘rta ta’lim matabining biologiya 9-sinfdan DTS, o‘quv dasturi va darslikning tahlili, yillik taqvim-reja; mayzuli-reja, dars ishlanmalari loyihalash.	201	52 Biologiya (7- sinf)ni o‘qitishda o‘quvchilarning kuzatish va tajriba / 2 ishlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi	294
39 Genetika o‘quv fanidan masala va mashqlar yechish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan darslarni tashkil etish metodikasi	211	Izohli lug’at	301
40 O‘rta ta’lim matabning biologiyadan (10-sinf) DTS, o‘quv dasturi va darslikning tahlili.	216	Foydalanilgan adabiyotlar	

13-23/21



Biologiya (biologiya)ni o‘qitishda o‘quvchilarning mustaqil ishlarini 121
26 tashkil etish metodikasi.

27 Biologiyadan „Yosh biologlar” to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etish 132
metodikasi.

28 Biologiya darslarida foydalaniladigan ko‘rgazmali va didaktik
vositalardan foydalanish foydalanish metodikasi .

29 Biologiya darslarida multimedia, o‘quv kinofilmlari, nazorat
dasturlaridan foydalanish metodikasi .

30 O‘rta ta’lim maktabning biologiyaga kirish (5 sinf) dan DTS, o‘quv
dasturi, darslik tahlili, yillik taqvim-reja, mavzuli rejalar tuzish

31 O‘rta ta’lim maktabning biologiyadan DTS, o‘quv dasturi,
darslikning tahlili, yillik taqvim-reja, mavzuli rejalar tuzish.

32 Biologiya dan hamkorlikda o‘qitish texnologiyasiga asoslangan
darslarni tashkil etish metodikasi

33 Biologiya dan didaktik o‘yin texnologiyasiga asoslangan darslarni
tashkil etish metodikasi .

34 O‘rta ta’lim maktabining biologiya (zoologiya)dan DTS, o‘quv
dasturi va darslikning tahlili, yillik taqvim-reja, mavzuli rejalar
tuzish.

35 Zoologiyadan modulli ta’lim texnologiyasiga asoslangan darslarni
tashkil etish metodikasi.

36 O‘rta ta’lim maktabining “Odam va uning salomatligi”dan DTS,
o‘quv dasturi, darslik tahlili, yillik taqvim-reja, mavzuli-reja, dars
ishlanmasini loyihalash.

37 Biologiyani o‘qitishda o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzining
tarkib toptirish .

38 O‘rta ta’lim maktabining biologiya 9-sinfdan DTS, o‘quv dasturi va
darslikning tahlili, yillik taqvim-reja, mayzuli-reja, dars ishlanma-
larini loyihalash.

39 Genetika o‘quv fanidan masala va mashqlar yechish ko‘nikmalarini
shakllantirishga qaratilgan darslarni tashkil etish metodikasi

40 O‘rta ta’lim maktabning biologiyadan (10-sinf) DTS, o‘quv dasturi
va darslikning tahlili.

41 O‘rta ta’lim maktabning biologiyadan (11-sinf) DTS, o‘quv dasturi va 221
darslikning tahlili.

42 Hayotning populyatsiya darajalaridagi umumbiologik qonuniyatlarga 229
oid mazmundagi darslarni tashkil etish metodikasi.

43 Hayotning ekosistema darajalaridagi umumbiologik qonuniyatlarga 238
oid mazmundagi darslarni tashkil etish metodikasi.

44 Hayotning biosfera darajalaridagi umumbiologik qonuniyatlarga oid 244
mazmundagi darslarni tashkil etish metodikasi

45 Biologiyadan ekskursiya darslarni tashkil etish metodikasi. 251

46 Biologiya darslarida lokal texnologiyalardan foydalanish metodikasi. 263

47 Biologiyadan umumlashtiruvchi va nazorat darslarni darslarni tashkil
etish metodikasi

48 Biologiya dan darsdan tashqari ishlarning ta’lim-tarbiya jarayonida
tutgan o‘rni.

49 Biologiya o‘qitishda o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarini tarkib
toptirish

50 Xona o‘simliklarining ko‘paytirish va parvarishlash

51 Tirik tabiat burchagida hayvonlarni saqlash va parvarishlash


52 Biologiyani o‘qitishda o‘quvchilarning kuzatish va tajriba qo‘yish
/ 1 ko‘nikmalarini rivojlantirish .

52 Biologiya (7- sinf)ni o‘qitishda o‘quvchilarning kuzatish va tajriba
/ 2 ishlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi

Izohli lug‘at

Foydalilanigan adabiyotlar

13723/21



J.O. TOLIPOVA, A.K. RAXIMOV, M. TUMARALIEVA,
I. Y.ABDURAXMONOVA, S. ABDURIZAEVA

BIOLOGIYA O'QITISH METODIKASI

(LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI)

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliquziyeva

Musahhih: M. Yunusova

Sahifalovchi: A. Isxoqov

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.

Bosishga ruxsat etildi 24.07.2022 y.

Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'ozi. "Times New Roman"
garniturası. Hisob-nashr tabog'i. 19,2.
Adadi 100 dona. Buyurtma № 49.

«ZEBO PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha



ISBN 978-9943-8463-8-8

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-8463-8-8.

9 789943 846388